

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Alishyer Navoiy nomidagi

SAMARQAND DAVLAT UNIVYERSITYETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK

Abdullayev Sardor

**Go‘zallik tushunchasini falsafiy mohiyati va uning estetik kategoriyalar
tizimidagi o‘rni**

5A120503 - “Etika va estetika”

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Ya

Ilmiy rahbar: f.f.n, dots.

A.R.Samadov

SAMARQAND – 2016

Magistrlik dissertasiya ishi “O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazaryasi va amaliyoti” kafedrasining 2016 yil ____ maydagi ____sonli bayonnomasi bilan dastlabki himoyadan o‘tgan.

Kafedra mudiri: f.f.n.dots. A.Q.Aymatov

Ilmiy rahbar: f.f.n.dots A.R.Samadov

Magistr: S.Abdullayev

Magistrlik akademik darajasiga talabgor Abdullayev Sardorning 5A-120503-Etika va estetika ixtisosligi bo'yicha «Go'zallik tushunchasini falsafiy mohiyati va uning estetik kategoriyalar tizimidagi o'рни» mavzuidagi dissertasiyasining

Annotasiyasi

Tayanch (eng muhim) so'zlar: estetiklik, go'zallik, estetik kategoriyalar, san'at, etnomadaniyat, estetik mezonlar, sport, jamiyat, obod turmush tarsi.

Tadqiqot obyekti: g'zallik va uning namo'n b'lish xususiyatlari, g'zallikning ma'naviy-estetik kadriyalar tizimidaги ўрни bilan bo'g'lik ilmiy-nazariy masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi: g'zallik haqidaги qarashlarning mohiyati, ma'naviy ahamiyati, kadriyadorlik tabiati hamda ma'naviy yangilaniш jara'nlariга ta'sirini ilmiy tadqiq etish

Tadqiqot metodlari: analiz va sintez, tizimli funksional yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabilardir.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: ushbu dissertatsiyaning yangiligi shundan iboratki, jamiyatimizda ma'naviy yangilaniш jara'nlariда g'zallikning namo'n b'lish xususiyatlariга yangicha munosabat bildirilgan, g'zallikning шахs va jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishdaги ўрни bугungi kun talablariдан келиб чиққан ҳолда ёритилди. Баркамол авлодни shakllantirish jara'nlariда g'zallikning ijtimoiy-ma'naviy asoslari tarixiylik xususiyatlari bilan bo'glanib, ularning rivojlaniш qonuniyatlari ba'en etildi. Jamiyat ha'tida axloqiy makonni yaratishda sportni ўрни, estetika qonuniyatlari, ayniqsa, g'zallik tamoyillarinинг o'рни haqida tegishli xulosalar chiqarilgan.

Amaliy ahamiyati: Magistrlik dissertasiyasining amaliy ahamiyati inson ma'naviy kamolotida axloqiy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash bilan bog'liq erishilgan ilmiy natijalar yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash ishlariga yaqindan ko'mak beruvchi jamoat birlashmalarining faoliyatlarida samarali foydalanish mumkin.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: Mazkur tadqiqotning ilmiy yutuqlari va erishilgan natijalaridan "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedra bilan korporativ hamkorlikda bo'lgan Siyob va So'zangaron kollejida sinovdan o'tgan. Bu erda o'tiladigan bir qator falsafiy fanlar uchun ma'ruzalar matni tayyorlashda foydalanildi.

Qo'llanish sohasi: magistrlik dissertasiyasi natijalaridan professor-o'qituvchilar, kollej, lisey va oliy o'quv yurtlarida ma'naviyat asoslari darslari, etika, estetika va mantiq fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

RESUME

Of the dissertation “” on specialty – 120503 Ethics and aesthetic for getting the degree of master by

Key words:

Aim of the research:

Methods of research: analysis and synthesis, systematic functional approach, historical and logical, comparative analysis

Given results and their novelty:

Practical significance:

Level of appliance and economical effectiveness:

Sphere of usage:

МУНДАРИЖА

КИРИШ.....	
I-БОБ. ГЎЗАЛЛИК ТУШУНЧАСИНИ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ.....	
1.1.	Гўзаллик тушунчасининг моҳияти.....
1.2.	Гўзалликка интилиш – инсоннинг этномаданий хусусияти сифатида.....
1.3	Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг ижодида гўзаллик тушунчасини ўрганилиши.....
	Bob buyicha xulosalar.....
II-БОБ. ГЎЗАЛЛИК ТУШУНЧАСИНИ ЭСТЕТИК КАТЕГОРИЯЛАР ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ ВА УНИНГ ИЖТИМОЙ ОНГ СОҲАЛАРИДА АКС ЭТИШИ.....	
2.1.	Гўзаллик тушунчасининг эстетик категориялар тизимида инъикоси.....
2.2.	Санъатда гўзаллик мезонлари талқини.....
2.3.	Спорт – гўзалликни намоён этувчи эстетик восита сифатида.....
	Bob buyicha xulosalar.....
III-БОБ. ЖАМИЯТ СОҲАЛАРИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШДА ГЎЗАЛЛИК ТУШУНЧАСИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ АКС ЭТИШИ	
3.1.	Баркамол авлод таълим-тарбияси жараёнида гўзалликни тутган ўрни.....
3.2.	Гўзалликнинг бунёдкорлик соҳасидаги инъикоси.....
3.3.	Globalashuv шароитида ёшларда гўзаллик мезонларини shakllantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining natijalari..
	Bob buyicha xulosalar.....
ХУЛОСА.....	
Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.....	

КИРИШ

Magistrlik dissertasiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Мамлакатимиз демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш йўлидан борар экан, миллий-эстетик қадриятлар ва маънавий меросимизга бўлган муносабат тубдан ўзгариб борди. Чунки, қадрият ва тарихий мерос миллат маънавиятини юксалтирувчи муҳим мезон ҳисобланади. Чунончи, халқимизнинг фалсафий-эстетик тафаккурини белгиловчи гўзаллик мезонлари ана шу жабҳанинг таркибий қисмидир.

Мамлакатимиз истиқлолга эришгач, жамиятда шахс эстетик маданиятининг шаклланиши ва ривожланишига ижтимоий-сиёсий ва маънавий ислохотлар негизида алоҳида эътибор қаратилди. Шахсни ҳар томонлама комил инсон қилиб тарбиялаш, ҳар бир фуқаро онгида миллий ғояни чуқур идрок этиб, мустақилликни мустаҳкамлаш ишига жалб этиш масаласи кун тартибига қўйилди. Юртбошимиз таъкидлаганидек: «ҳар қайси ижодкор ўз асарларида ана шу ўлмас ғояларни бош мақсад қилиб қўйса, уларни бадиий маҳорат билан ифода эта олса, ҳеч шубҳасиз, адабиёт ҳам, маданият ва санъат ҳам том маънода маънавий юксалишга хизмат қилиб, ўзининг ижтимоий вазифасини тўлиқ адо этишга эришган бўлади»¹.

Мамлакатимизда демократик жараёнларни чуқурлаштириш, аҳолининг сиёсий фаоллигини ошириш, фуқароларнинг сиёсий ва ижтимоий ҳаётда амалий иштирок этиши ахборот эркинлигини таъминлаш билан бевосита

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият енгилмас куч. Т., Маънавият, 2008. 158 -б.

боғлиқ. Чунки, оммавий ахборот воситаларини одамлар ўз фикр ва ғояларини, содир бўлаётган воқеаларга ўз муносабати ва позициясини эркин ифода этадиган минбарга айлантирмасдан туриб, бу мақсадларга эришиб бўлмаслиги глобаллашув даврида яққол намоён бўлмоқда. Шунга кўра, тадқиқотнинг долзарблигини қуйидаги жиҳатлар билан изоҳлаш мумкин:

биринчидан, ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларига гўзалликни татбиқ этиш, унинг қонуниятларини маънавий жараёнларга қўллаш орқали илғор кадриятлар тизимини барпо этиш мумкин. Жамиятнинг иқтисодий соҳаларига гўзалликни татбиқ қилиш орқали моддий эҳтиёжлар манбаи яратилади;

иккинчидан, ҳозирги кунда тинчликни барқарорлаштириш, экологик хавфнинг олдини олиш, давлатлараро ва этник низоларга чек қўйиш, оммавий қирғин қуроллари ишлаб чиқаришни йўқ қилиш, терроризм, геноцид ва гиёҳвандликнинг тарқалишига йўл қўймаслик кабилар умумбашарий муаммога айланиб бормоқда. Эндиликда техногенцивилизацияни ҳам гўзаллик қонунлари асосида ташкил этишга катта эҳтиёж сезилмоқда. Индивидуализация жараёнида эса гўзаллик муаммоси жамиятда шахснинг ўз ҳуқуқларини тўлақонли англаши, ўз фикрини баён этиши, тафаккури ва дунёқарашини турли «изм»лардан озод бўлган мустақил шахсни тарбиялаш билан белгиланади. Ана шулардан келиб чиққан ҳолда гўзаллик тушунчасига янгича ёндашиш заруриятга айланди;

учинчидан, гўзаллик норматив-баҳолаш хусусиятига эга. Чунки, гўзалликни ҳис этиш, уни баҳолай билиш орқали инсон ўзида уйғунликни пайдо қилиб боради. Уйғунлик эса пировардида инсонни фаоллаштиради, воқеа-ҳодисаларга нисбатан бефарқ муносабатда бўлмасликка чақиради. Агар фаолиятнинг бошқа турлари (сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий, ахлоқий) шахснинг алоҳида кучларини ривожлантиришга кўмаклашса, гўзаллик уларни яхлитлик сифатида шакллантиради. Зотан, гўзалликни тўғри баҳолаш

орқали инсон маънавият томон боради, маънавийлик эса ўз навбатида шахсни моддий оламга тўғри муносабатда бўлишга ундайди.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti. Тадқиқотнинг объектини— гўзаллик ва унинг намоён бўлиш хусусиятлари, тадқиқотнинг предмети - гўзалликнинг маънавий-эстетик қадриятлар тизимидаги ўрни билан боғлиқ илмий-назарий масалалар ташкил этади.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: гўзаллик ҳақидаги қарашларнинг моҳияти, маънавий ҳаётимиздаги аҳамияти, қадриятлилиқ табиати ҳамда маънавий янгиланиш жараёнларида спортнинг санъат билан биргаликда гўзалликни акс эттириши илмий тадқиқ этиш. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilangan:

- гўзаллик ҳақидаги қарашлар ва ёндошувларнинг хусусиятлари ҳамда эстетик тафаккур тарихидаги ўрни масалаларини ёритиб бериш;
- гўзалликни борлиқ ва билишнинг маҳсули сифатидаги аҳамияти замонавий эстетика талаблари асосида таҳлил қилиш;
- гўзалликнинг миллий қадриятлардаги инъикосининг фалсафий-эстетик асосларини таҳлил қилиш;
- санъат ва спортда гўзаллик мезонларининг ўзига хос хусусиятларини илмий баён этиш;
- баркамол авлод тарбиясида гўзалликнинг аҳамиятини мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар асосида кўрсатиб бериш.
- эстетик маданиятни шакллантирувчи ижтимоий ва маънавий омиллар ривожига гўзалликнинг ўрнини аниқлаш;
- гўзалликни шахс камолотининг энг муҳим мезонига айланиш қонуниятларини ўрганиш;
- эстетик тафаккур тарихининг асосий даврларида гўзалликка бўлган муносабат, қарашлар ва назарияларга холислик тамойили асосида муносабат билдириш;

- маънавий қадриятлар тизимида гўзалликнинг устувор аҳамиятини назарий ва амалий жиҳатдан асослаш вазифалари белгиланди.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- жамиятмизда маънавий янгиланиш жараёнларида гўзалликнинг намоён бўлиш хусусиятларига янгича муносабат билдирилди;
- гўзалликнинг шахс ва жамият маънавиятини юксалтиришдаги ўрни бугунги кун талабларидан келиб чиққан ҳолда таҳлил қилинди;
- Баркамол авлод, соғлом авлодни шакллантириш жараёнларида гўзалликнинг ижтимоий-маънавий асослари тарихийлик хусусиятлари билан боғланиб, уларнинг ривожланиш қонуниятлари баён этилди;
- жамият ҳаётида янгича гўзалликни маконини яратишда спортнинг ўрни ва уни эстетика қонуниятлари, айниқса, гўзаллик тамойиллари орқали амал қилиш кўлами ўрганилди;
- ижтимоий ҳаётга гўзалликнинг таъсири бугунги куннинг янги қадриятлари ҳамда мамлакатимизда олиб борилаётган бунёдкорлик соҳаларида акс этиши таҳлил қилинди.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida, xususan axloqiy-estetik taфаккурни ривожлантириш, шахс эстетик онгни шакллантиришда гўзаллик тамойиллари, санъат ва спортни ўрни, миллий, умуминсоний жиҳатларини ривожлантиришни аҳамияти ошиб borishi qonuniy jarayon bo‘lib, jamiyat ma’naviy hayotini modernizasiyalash istiqbollarini belgilab beradi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili): Гўзалликнинг турли параметрлари ва унинг муаммоси файласуф, адабиётшунос, санъатшунос олимлар томонидан ҳозирга қадар ўрганиб келинади. Хусусан, гўзалликнинг назарий ва амалий таҳлили, маънавий ва ахлоқий моҳияти, ижтимоий ва сиёсий аҳамиятини очиб беришга қаратилган тадқиқотлар

шулар жумласидандир. Умуман олганда, гўзаллик муаммосини ўрганишга доир тадқиқотларни асосан икки гуруҳга ажратиш мумкин. *Биринчи* гуруҳда гўзалликни назарий, фалсафий жиҳатдан таҳлил этишга қаратилган тадқиқотлар. *Иккинчи* гуруҳда техногенцивилизация жараёнларида гўзалликнинг амалий томонларини очиб берувчи тадқиқотлар.

Шулардан келиб чиққан ҳолда гўзаллик муаммосини ўрганишга доир тадқиқотларни қуйидагича гуруҳлаш мумкин. *Биринчи гуруҳда* эстетик тафаккур тарихида гўзалликнинг ўрнини фалсафий жиҳатдан тадқиқ қилишга қаратилган изланишлар. Гўзалликнинг эстетик тафаккурни шакллантиришдаги ўрни ва аҳамияти инсоният тараққиётининг барча босқичларида энг долзарб фалсафий муаммо бўлиб келган. Жумладан, Сукрот, Афлотун ва Арасту каби юнон файласуфларининг асарларида санъат эстетик маданиятни шакллантирувчи восита сифатида баён қилинган¹. Августин Аврелий, Фома Аквинский, Уильям Оккам каби илоҳиётчиларнинг гўзаллик ҳақидаги қарашларида черков ақидалари асосидаги ёндошувни кўрамиз². Бундан ташқари, Янги давр Ғарб фалсафасида гўзаллик тушунчасига доир фикрлар Данте Алигьери, Эдмунд Бёрк, Давид Юм, Франсуа Вольтер, Иммануил Кант, Георг Гегель, Николай Чернышевскийлар томонидан санъат ва ижтимоий ҳаёт билан боғлиқ ҳолда идрок этилган³.

Рус олимлари М.Ф.Овсянников, А.Ф.Лосев, Л.С.Коган, О.В.Буткевич, В.А.Шестаков, Е.А.Майминл, Г.А.Завалько, Т.Адорноларни келтириш мумкин. Жумладан, М.Ф.Овсянниковнинг илмий изланишларида эстетик

¹ Лосев А.Ф. История античной эстетики. Софисты. Сократ. Платон. – Москва: Искусство, 1969. – 248 с.; Афлотун. Қонунлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 450 б.; Аристотель. Политика. – Москва: Мысль, 1984. 376 с.; Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – 77 б.; Воронина Л.А. Основные эстетические категории Аристотеля. – Москва: Высшая школа. 1975. – 292 с.

² Смирбек Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 344 б.; Курантов А.П., Стяжкин Н.И. Уильям Оккам. – Москва: Мысль, 1985. – 424 с.

³ Алигьери Д. Божественная комедия. – Москва: Московского рабочего, 1986. – 266 с.; Бёрк Эдмунд. Философское исследования о происхождение наших людей возвышенного и прекрасного. – Москва: Искусство. 1979. – 234 с.; Нарский И.С. Давид Юм. – Москва: Мысль, 1973. – 333 с.; Вольтер Ф. Эстетика. Статьи. Письма. – Москва: Искусство, 1974. – 194 с.; Кант И. Сочинение. В 6 т-х. – Москва: Мысль, 1984; Гегель. Эстетика. В 3 т-х. – Москва: Искусство, 1979; Чернышевский Н.Г. Прекрасное - есть жизнь. – Москва: Искусство, 1973. – 112 с.

тафаккур тарихи умумий тарзда ўрганилган бўлса, В.А. Шестаковнинг тадқиқотлари асосан антик даврлар Юнон нафосатшунослигидан олмон мумтоз нафосатшунослигигача бўлган даврни ўз ичига олади¹.

Иккинчи гуруҳдаги тадқиқотлар кўпинча санъат, спорт, адабиёт ва маданият фалсафасида гўзалликнинг таҳлили масалаларига бағишланган тадқиқотлар. Бу тадқиқотларнинг умумий аҳамияти шундаки, санъатда бадиий қиёфа яратиш, ижодкор масъулияти ва санъатнинг миллий хусусиятларини гўзаллик билан боғлиқ тарзда ривожланишининг ўзига хос ифодаларини кўриш мумкин. Ушбу гуруҳдаги илмий тадқиқотлар гўзалликнинг миллий ва умуминсоний қадриятлардаги инъикоси ҳамда шахс маънавий камолотидаги аҳамиятига доир илмий-назарий изланишлардир. Кейинги йигирма беш йил ичида мамлакатимизда эстетика соҳасида қатор илмий тадқиқотларга қўл урилди, бу борада янги авлод ўқув-услубий адабиётлар базаси яратилди. Айниқса, таълимни тарбия билан узвийлигини таъминлашда эстетиканинг ўрни масалалари янгича ёндошувдаги тадқиқотларни юзага келтирди. Жумладан, гўзаллик категориясининг маънавий камолот масалалари билан боғлиқлиги, жамиятни модернизация қилишда бадиий-эстетик омилларнинг ўрни, нафосат фалсафаси мезоний тушунчаларининг эстетик маданият тизимидаги инъикоси ҳамда эстетик тарбиянинг шахс баркамоллигидаги аҳамияти каби масалалар бир қатор эстетик олимлар томонидан тадқиқ этилган. Бу борада Тилаб Маҳмудов, Эркин Умаров, Маҳмуд Абдуллаев, Алексей Цай, Акназар Қурбонмамадов, Абдулла Шер каби эстетик олимларнинг илмий асарларини, Мукаррам Нурматова, Баҳодир Ҳусанов, Отабек Ғайбуллаев, Зилола Собирова, Дилбар Ташбаева каби

¹Овсянников М.Ф. История эстетической мысли. Учебное пособие. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Высшая школа, 1984. - 336 с; Философские проблемы эстетики. — М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2011. — 400 с.. Эстетическая теория. – М., 2001. – С. 471

олимларнинг илмий тадқиқотларини алоҳида эътироф этиш керак¹.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi: диссертацияни тайёрлаш жараёнида тарихийлик, мантиқийлик, объективлик, қиёсий таҳлил, диалектик мушоҳада, кузатиш, умумлаштириш каби методлардан фойдаланилди.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: шундаки, унда олға сурилган назарий ва амалий хулосалар, илмий-услубий тавсиялардан таълим муассасаларида мавзуга тегишли ўқув-услубий адабиётларни тайёрлашда, дастурлар ва семинар режаларини ишлаб чиқишда фойдаланиш мумкин. Шунингдек, диссертациядан «Эстетика» фанининг “Ўзаллик категорияси” мавзусини ўтишда ҳамда бадиий-эстетик дидни юксалтириш билан боғлиқ жараёнларда фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

¹ Махмудов Т. Эстетика и духовные ценности. – Ташкент: Шарқ, 1993. – 286 с.; Махмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Ташкент: Шарқ, 2001. – 160 б.; Махмудов Т., Петров В. Вопросы методологии эстетического анализа искусства. – Ташкент: Фан, 2006. – 48 с. Умаров Э. Эстетика. Ўқув қўлланма. – Ташкент: Ўзбекистон, 1995. – 246 б.; Умаров Э., Абдуллаев М. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. – Ташкент: Шарқ, 2005. – 128 б.; Umarov E. Teatr estetikasi. –Toshkent: CHASHMA PRINT, 2009. – 160 б. Абдуллаев М. Национальное своеобразие и основные факторы развития эстетической культуры: Автореф. дис. ... докт. филос.наук. – Ташкент: ИФиП АН РУз, 1994 – 42 с.; Абдуллаев М. Эстетическая культура. Учебник. –Ташкент: Фан, 1991. – 144 с.; Абдуллаев М. Эстетик маданият: назарий-методологик жиҳатлар. – Тошкент: Фан, 2007. – 128 б.; Абдуллаев М, Ибрагимова Ф. Бадиий-эстетик маданият: назарий-методологик жиҳатлар. –Тошкент: Фан, 2007. – 142 б.; Махмудов А. Миллий эстетик маданиятнинг бунёдкорлик имкониятлари. // ЎЗМУ хабарлари. –Тошкент, 2009. -№ 4. – Б.19-21. Цай А.В. Материальная культура в свете современной эстетики. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 35-42. Курбонмамадов А. Эстетическая доктрина суфизма. – Душанбе: Дониш, 1984. – 240 с.; Курбонмамадов А. Из истории эстетической мысли Средней Азии. – Ташкент: Университет, 2007. – 168 с.; Курбонмамадов А. Эстетические особенности искусства. // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2009. № 4. –С. 13-15. Абдулла Шер. Эстетика. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2014. – 328 б.; Абдулла Шер, Баходир Хусанов. Нафосат фалсафаси. Маърузалар матни. –Тошкент. ЎЗМУ, 2008. - – 142 б.; Эстетикада ижодкор муаммоси. // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2009. № 4. – Б. 8-12; Abdulla Sher, Bahodir Husanov. Estetika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 190 б; Нурматова М. Шарқ ахлокий-эстетик тафаккур тараккиётининг асосий боскичлари. Услубий қўлланма. –Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 64 б.; Нурматова М. Шахс камолотида ахлокий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. –Тошкент: Университет, 2009. – 128 б; Ғайбуллаев О. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. – Тошкент: Chashma Print, 2008. – 160. Хусанов Б.Э. Шахс ва жамият муносабатларида ўзалликнинг намоён бўлиш хусусиятлари. Автореф. дис...фалс. фан. ном. –Тошкент: ЎЗМУ, 2002. – 24 б.; Хусанов Б. Глобаллашув жараёнларида ахлоқ ва эстетика фанларининг ўрни. // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2009. № 4. – Б. 4-7; Хусанов Б. Фуломов В. Муомала маданияти. Дарслик. –Тошкент: Иқтисод-молия, 2009. – 154 б. Собирова З.М. Жамият маънавий ҳаёти янгилашнинг бадиий-эстетик омиллари: Автореф. дис. ... фал. фан. ном. – Тошкент: ЎЗМУ, 2004. – 24 б.; Собирова З. Жамиятни янгилаш ва бадиий-эстетик омиллар. – Тошкент: “Фалсафа ва ҳуқуқ” нашриёти, 2007. – 124 б. Ташбаева Д.Х. Эстетические особенности узбекского музыкально-песенного искусства: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. -Ташкент: НУУз, 2008. – 30 б.; Ташбаева Д. Методика преподавания музыки и школьный репертуар. Музыкально-эстетическое воспитание. Учебно-методическое пособие для студентов ВУЗов // Под редакцией Э.У. Умарова. – Ташкент: Фан ва технология, 2007. – 192 с.

Tadqiqot ishining asosiy natijalarini sinovdan o'tkazish va tatbiq etish. Mazkur tadqiqotning ilmiy yutuqlari va erishilgan natijalaridan "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida bilan korporativ hamkorlikda bo'lgan Siyob va So'zangaron kollejida sinovdan o'tgan. Bu erda o'tiladigan bir qator falsafiy fanlar uchun ma'ruzalar matni tayyorlashda foydalanildi.

Ish tuzilmasining tavsifi: Ushbu magistrlik dissertatsiyasida bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar muallif tomonidan nashr etilgan jami 1 ta xoriжий журналда 2 respublika ilmiy-nazariy konferensiyalaridagi ma'ruzalarida o'z aksini topgan.

Ilmiy tadqiqotning o'rganishda foydalaniladigan metodlar: analiz va sintez, tizimli funksional yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabilardir.

Dissertatsiyaning tarkibi: tadqiqot "Kirish", 9 ta paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, "Xulosa" va "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"dan iborat. Matning umumiy hajmi -----betni tashkil etadi.

I-BOB. GO‘ZALLIK TUSHUNCHASINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK MASALALARI

I.1. Go‘zallik tushunchasining mohiyati

Insonlarning borliqqa nisbatan estetik munosabatlari nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Kishilarning ijtimoiy hayotida sodir bo‘ladigan estetik hissiyotlar, kechinmalar faqat sezgilarimiz, ongimizga bog‘liq bo‘lmay, balki ob‘ektiv borliqdagi narsa va hodisalar bilan bevosita bog‘liq. Inson sezgilari, hissiyoyotlari uning ruhiyatiga ta’sir etib, borliqdagi bir-biridan go‘zal manzaralarini his qilishda katta ahamiyatga ega.

Insonlar estetik faoliyatida borliqning turli-tuman go‘zalliklarini his qila borib, o‘zlarining hayotga bo‘lgan estetik munosabatlarini hissiy idrok etib, ulardan rohatlanish, zavqlanish, estetik lazzatlanish hosil qilganlar. Bunday ehtiroslar kishilarni yashashga hayot go‘zalligidan bahramand bo‘lishga chorlaydi. Ijtimoiy hayotdagi turli-tuman estetik tuyg‘ular borliqni estetik idrok etishda umumiylik, mushtaraklik, mukammallikni uyg‘un holda bo‘lish uchun xizmat qiladi. Mana shunday hissiyotli, ob‘ekt va sub‘ekt faoliyati bilan bog‘liq estetik kategoriyalardan biri bu go‘zallikdir. Estetik fikr tarixida go‘zallik tushunchasiga turlicha ta’rif va tafsir berib kelingan. Masalan, qadimgi Yunon faylasufi Aflotun go‘zallikni hissiy dunyoga qarama-qarshi qo‘yib, uning zamon va makondan tashqarida ekanligini aytadi. Aflotun “go‘zallik nechog‘lik g‘ayri hissiy tusiga ega bo‘lganligi uchun uni hissiyot orqali emas, balki aql orqali bilish mumkin”¹, deydi. «Go‘zallik-bu turli musiqalar, yaxshi xulq-atvorga to‘g‘ri keladigan, odamlar erishishga havas qiladigan narsalardir» (**Abu Nasr Forobiy**), «Har qanday go‘zallik, go‘zallikni anglay olgan muhabbat ob‘ektidir» (**Abu Homid G‘azzoliy**), «Go‘zallikka muhabbat qo‘yishning asosida ham aql, ham hissiyot yotadi» (**Ibn Sino**), «Go‘zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi» (**Umar Hayyom**), «Go‘zallik bu hayotdir» (**N.G.CHernishevskiy**), «Go‘zallik hissi, yoqimlilik tuyg‘usiga bog‘liq holda, odamlarning birlashuviga, ularda

¹ Юлдошев С.Антик философия. – Тошкент. 1999, 82-бет.

ijtimoiy-ahloqiy fazilatlarning shakllanishiga olib keladi» (**E.Byork**), «Go‘zallik manfaatsiz maftunlikning, muhabbatning ob’ekti» (**I.Kant**), «Go‘zallik-hodisaga aylangan erkinlik» (**F. Shiller**), «To bizga taalluqli emas ekan, hamma narsa go‘zal» (**A. SHopenhauer**), «Go‘zallik Xudo-san’atkor tomonidan yaratilgan illyuziya-xayolotdir» (**F. Nitsshe**), «Qaerda modda nurafshon bo‘lsa, o‘sha erda go‘zallik hodisasini uchratish mumkin: modda va nurning uzviy omuxtaligi-hayotdir» (**VI.Solovyov**) va Shu kabi fikrlar go‘zallikka turlicha yondoshuv natijasida yuzaga kelgan.

Falsafa ensiklopedik lug‘atida “Go‘zallik tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq, erkinlik tuyg‘ulari hosil qilishga qodir bo‘lgan xususiyatlarini ifodalaydi¹”, deb ta’rif berilgan. Taniqli estetik olim M.Olloyorovning fikricha, go‘zallik – bu markaziy mezoniy tuShuncha (kategoriya) bo‘lib, unda borliqdagi narsa hodisalarning shakl va mazmun uyg‘unligi, mukammalligi va insonning ularga bo‘lgan ma’naviy-ruhiy lazzatlanishi bilan shartlangan munosabati ifodalanadi².

Ob’ektning xususiyati, jihatlari kishi tomonidan estetik sub’ekt sifatida qayd etilgan birliklar o‘lchovida idrok etilgan paytda unda ma’naviy lazzatlanish his-tuyg‘ularini (ruhiy g‘izolanish-poklanish, zavqlanish, shodlik) uyg‘otadi. Go‘zallikning mohiyati borliqning barcha sohalarida (tabiat, jamiyat, inson, san’at) turli shakl, xususiyatlarda namoyon bo‘ladi.

Manbalarda go‘zallikning ilmiy ta’rifidan ko‘ra, unga nisbatan bildirilgan munosabat va qarashlar ko‘proq uchraydi. Shu bois go‘zallik haqidagi qarashlar va nazariyalar markaziga «Go‘zallik nima?» degan savol qo‘yiladi-yu, ammo ularning aksariyatida «Nima go‘zal?» degan savolga javobni ko‘ramiz. Natijada go‘zallikning nima ekanligi javobsiz qolib ketaveradi. Odatda go‘zallik xushnudlik kayfiyatlarini hosil qiladigan narsa-hodisalar majmui, zavq bag‘ishlovchi hodisa sifatida tuShuniladi. Bu go‘zallikka nisbatan sodda, jo‘n va yuzaki tuShunishdir.

¹ Фалсафа энциклопедик луғат. – Тошкент Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2010, 86-бет.

² Оллоёров М. Эстетиканинг асосий категориялари. Услубий қўлланма. Самарқанд. СамДУ нашри. 2011, 37-38 бет.

Aslida go‘zallik shunday xususiyatga egaki, u yoqimlilik tuyg‘usiga bog‘liq holda, odamlarning birlashuviga, ularda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarining shakllanishiga hamda ma‘naviy jarayonlarning barqarorlashuviga olib keladi. O.G‘aybullaevning fikricha, go‘zalik – bu tabiat va jamiyatdagi estetik ong va faoliyat asosida vujudga keladigan sub‘ektning voqelikni idrok etish qobiliyatidir¹. Inson ijtimoiy hayotda bo‘layotgan voqea-hodisalarni go‘zal jihatlarini mehr-muhabbat, zavq-shavq, erkinlik tuyg‘ulari bilan his etadi. Inson olamda yuz berayotgan jarayonlarni o‘zining his-tuyg‘ulari, kechinmalari orqali bilib olishga intiladi. Ana shu intilishlarda kishining avvalo, go‘zallikni his etishga bo‘lgan qiziqishlari sodir bo‘lib, nima go‘zalu, nima xunukligini bilish jarayoni voqelikni idrok etishda yuz beradi.

Go‘zallik haqidagi ayrim ta‘riflar bir-birini inkor etmaydi. Chunki ushbu tushuncha ustida bosh qotirganlarni hammasi ham estetikaning falsafiy muammolari bilan shug‘ullanadigan kishilari emas. Ayrimlari san‘atshunos yoki antropolog yoki badiiy-publitsistika bilan shug‘ullanuvchilardir. Masalan, A.Sher “Go‘zallik tushunchasini sub‘ektdagi yoqimli taassurot, xush kayfiyat va quvonch uyg‘otadigan ob‘ektdagi estetik xususiyatni tavsiflashga yo‘naltirilgan ilmiy atama”² deb aytsa, M.Nedonsel esa, “Go‘zallik – bu individuallikni namoyon qiluvchi hodisa bo‘lsa, san‘at esa individuallikni sun‘iy chizgilariga o‘xshatishga intilishdir. Shuning uchun go‘zallikni badiiy madaniyat yutuqlarsiz tushuntirish mumkin emas”³ deydi. Bu ta‘riflar bilan estetika ilmi bo‘yicha mumtoz bo‘lgan I.Kant, V.Gegel, Losev va bir qator faylasuflarni go‘zallik tushunchasiga bergan ta‘riflari bilan solishtirib ko‘rilsa buni farqiga borish mumkin.

Go‘zallik tushunchasining nazariy va amaliy o‘rganilishi, ma‘naviy va axloqiy mohiyati, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin: *birinchi*

¹ O.G‘aybullaev. Эстетика. АЛ ваКХК учун услубий кўлланма. Самарканд. СамДУ нашри. 2004, 57-бет.

² А.Шер. Гўзаллик ва хунуклик. (электрон манба) <http://faylasuf.uz/index.php/falsafa/manaaviyat/estetika/175-g-zallik-va-khunuklik> (мурожат этилган сана 04.04.2016)

³ Недонсель М. Введение в эстетику // Западноевропейская эстетика XX века. Вып. 2. М., 1991. С. 52.

guruhda go‘zallikning tushunchasi, tamoyil, qonuniyat va qadriyat sifatida estetika tafakkur tarixida tutgan o‘rnini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar; *ikkinchi guruhda* go‘zallikni san‘at, adabiyot, madaniyat hamda badiiy ijod jarayonlariga ta‘siri masalalarini taxlil etishga bag‘ishlangan tadqiqotlar; *uchinchi guruhda* tabiat, jamiyat va inson munosabatlarida go‘zallikning namoyon bo‘lish xususiyatlariga doir tadqiqotlar; *to‘rtinchi guruhda* go‘zallikni moddiy ne‘matlar yaratish hamda texnikaviy taraqqiyot jarayonlari bilan bog‘lab o‘rganilgan tadqiqotlar; *beshinchi guruhda* komil inson, shaxs kamoloti va zamon kishisini tarbiyalashda go‘zallikning amaliy ahamiyatiga doir izlanishlar; *oltinchi guruhda* milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma‘naviy jarayonlar bilan bog‘liq go‘zallikning aksiologik-falsafiy jihatlarini o‘rganilgan ilmiy izlanishlar; *ettinchi guruhda* mustaqillikka erishganimizdan so‘ng go‘zallik kategoriyasini ma‘naviy qadriyatlar va yangi qarashlar asosida ilmiy tadqiq etishga, uni zamonaviy jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan ta‘sirini xolisona baholashga ehtiyoj tug‘ildi. Zotan, insonning jamiyat, tabiat bilan bo‘ladigan munosabatining rivojlanib borishi pirovardida uning go‘zallikka bo‘lgan yondashuvi va qarashlarining yangilanishiga sabab bo‘ladi.

Go‘zallik tushunchasi rus va evropa mamlakatlarida turlicha kategoriyalarda tushintirilgani sababli o‘zbek tilida tarjimalari har-xil bo‘lib kelgan. Bizning fikrimizcha, go‘zallikning ikki xili, Ya‘ni ob‘ektiv, insonning sezgi a‘zolaridan baland turadigan asoslarga ega go‘zallik va sub‘ektning didi, his-tuyg‘usi va estetik tarbiyasi orqali anglashiladigan go‘zallikka bo‘lish mumkin. Go‘zallikning hissiy emotsional xususiyati, lahzaliligi, me‘yoriyligi, ma‘nodorligi sababli bu to‘g‘risida qarashlarni xilma-xilligiga sabab bo‘lgan. Qadimgi davr estetikasining ichki atamalarida chiroylilik (*prekrasnoe*) va go‘zallik (*krasota*) tushunchalari kosmologiya, metafizika, ilohiyotda va amaliyotda sinonim tushunchalar sifatida ishlatib kelingan. O‘sha paytlarda chiroylilik juda keng bahoviy kategoriya sifatida ishlatilgan bo‘lsa, go‘zallik tushunchasi esa

universumning mukammalligini va uning alohida qismi sifatida ishlatilgan¹.

Go‘zallikni idrok etish, xis qilish hamda yaratishning murakkabligi Shundaki, u avvalo bilishning mahsuli. Voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go‘zalligi uning ishonchlilik, haqqoniylik, ulug‘vorlik, tug‘yoniylilik va realligi bilan belgilanadi. Insonlar go‘zallik haqidagi dastlabki ma’lumotni beshta sezgining eng rivojlangan turi bo‘lmish ko‘rish sezgisi orqali o‘zlashtiradi. Undan so‘ng eshitish, ta’min bilish, hid bilish va tana sezgisi orqali go‘zallikni xis etadilar. Biroq, mazkur beshta sezgi ham go‘zallikning mohiyatini to‘laqonli anglatish uchun etarli emas.

Go‘zallik uyg‘unlik, maqsadga muvofiqlik, mutanosiblik, me’yor, tartiblilik, hamoxanglik, moslik, yaxlitlik, birlik, tenglik kabi tuShuncha-unsurlarning mavjudligini talab etadi. Bu tuShunchalar narsa-hodisalarning go‘zal bo‘lishini, chiroyli ko‘rinishini ta’minlaydi. Masalan har bir fasl o‘ziga xos go‘zallikni namoyon etadi. Biroq, faslning xususiyatlari uning go‘zalligidagi unsurlar bilan mos, mutanosib va hamoxang bo‘lmog‘ini talab etadi (daraxtlarning uyg‘onishi va zaminning ko‘klamga bezanishi - bahoriy go‘zallikni, qahraton sovuq va borliqni oppoq qorga burkanishi – qishning chiroyini belgilaydi va h.k.). Bu unsurlar go‘zallikdagi tug‘yoniylilik, maftunkorlik, foydalilik, mo‘jizaviylik kabi sifatlarni takomillashtiradi. Bu sifatlar qulaylik, manfaatdorlik, zavqlanish, lazzatlanish singari go‘zallikning xususiyatlarini belgilaydi.

Nafosatli muhokama hech qachon mantiqiy asoslanishi mumkin emas, degan nuqtai nazardan kelib chiqib Kant go‘zallik haqida quyidagi xulosaga keladi. Ya’ni, “go‘zallik barchaga hech bir manfaatsiz, beg‘araz tarzda, shundayligicha, o‘zining sof shakli bilan yoqishi zarur bo‘lgan narsa-hodisadir”².

Ta’kidlash lozimki, go‘zallik dastlab shakl orqali ko‘zga tashlanadi. So‘ngra u mazmun bilan boyitiladi. Shu bois, go‘zallik haqida fikrlaganimizda shakl va mazmunning uyg‘unligini e’tiborga olish zarur hisoblanadi. Ana shunday talabga

¹ Бычков В.В. Эстетика: Учебник. — М.: Гардарики, 2004. — С-182.

² Кант И. Соч.: В 6 т. Т. 5. С. 212

amal qilgan Kant go‘zallikning shakl va mazmun masalasiga noziklik bilan murojaat qiladi. Kant, dastavval go‘zallikning shakliy belgilarini ko‘rsata borib, Shu asosda tadrijiy ravishda uning mazmuniga e‘tiborni qaratadi. Jumladan, mazkur asarida go‘zallikni anglashning to‘rt jihatini ko‘rsatib o‘tadi: *birinchidan*, go‘zallik manfaatlardan xoli tarzda idrok etilgan holda yoqimlidir; *ikkinchidan*, go‘zallik muhakama qilinmay turib zavqlanadigan hodisa; *uchinchidan*, go‘zallik maqsadga yo‘naltirilmagan maqsadga muvofiqlikdir; *to‘rtinchidan*, go‘zallik barcha uchun zaruriy voqea-hodisadir. Aytish kerakki, faylasuf tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan ushbu ta’kidlar o‘zida go‘zallikning ichki mohiyatini qamrab olganligi bilan diqqatga sazovor.

I.Kant asarning «Go‘zallik tahlili» nomli bo‘limida go‘zallikni did muhokamasining tanqidi bilan bog‘liq xolda o‘rganib, uni did muhokamasiga tegishli bo‘lgan tuShuncha, deb biladi. Shuning uchun ham faylasuf didni predmetlardan qoniqish hosil qilish yohud ulardan qoniqmaslik borasida mulohaza qilishga qodir bo‘lgan tuShuncha sifatida idrok etadi. Shunga ko‘ra, faylasuf barcha manfaatlardan xoli tarzda idrok etiluvchi narsalarni go‘zal deb biladi.

I.Kant tomonidan go‘zallikka nisbatan qo‘yilgan bunday talab o‘zining birmuncha ustuvorligi bilan diqqatga sazovor. Zotan, predmetni «sof» go‘zallik tarzida idrok etish uchun inson unga eng avvalo manfaatsiz tarzda yondashmog‘i, predmetdan biror-bir ta‘mani ko‘zlamasligi lozim bo‘ladi. Bunday yondaShuv esa o‘z navbatida, go‘zallikning ma‘naviylik kasb etuvchi tuShuncha ekanligini ifodalaydi. Go‘zallik tushunchasini ma‘naviyat bilan bog‘lab tuShuntirgan F.Shillerning fikricha, go‘zallik — hodisaga aylangan erkinlik, erkinlik tomon yo‘l faqat go‘zallik orqali o‘tadi: hissiy go‘zallik ma‘naviylikka, ma‘naviylik esa moddiylikka olib boradi. Go‘zallik zo‘riqqan insonda uyg‘unlikni tiklaydi, bo‘shashgan odamda esa faollikni uyg‘otadi. Go‘zallik insonning oqillaShuvi yo‘lidagi zaruriy shartdir. Faoliyatning barcha turlari insonning alohida-alohida kuchlarini rivojlantiradi, faqatgina go‘zallik uni bir butun yaxlitlik sifatida

shakllantiradi, degan muhim g'oyani ilgari suradilar¹.

Umumiy ma'noda olganda, unsurlar, sifatlar va xususiyatlar uyg'un bo'lgan narsa-hodisalar o'zida go'zallikni namoyon etadi va u insonlarga xush yoqadi. Shuning uchun ham estetika-nafosat falsafasi fanida go'zallik eng Yuksak qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Shu ma'noda go'zallik ham inson tafakkuri va mehnatining mahsuli, ham tabiiy tarzda vujudga keladigan hodisa, ham bilishning mahsuli bo'lgan falsafiy-estetik tushunchadir.

Go'zallik estetikaning boshqa kategoriyalari orasida keng qamrovli xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotga, sanoat, telekommunikatsiya, san'at, ishlab chiqarish jarayonlariga go'zallikning bevosita yoki bilvosita ta'sirini kuzatish mumkin. Go'zallik bozor munosabatlarida qiymat kasb etuvchi mexanizm, texnikaviy taraqqiyotda sifat va qulaylik vositasi, maishiy turmushda esa farovonlik manbai sifatida takomillashmoqda.

Bugungi kunga kelib go'zallik tushunchasi estetika fani doirasidan chiqib, turli sohalarga kirib borishga ulgurdi. U nafaqat ko'zni quvontiruvchi balki ijtimoiy taraqqiyotning lokomotiviga aylangan. Zero, qaysi bir sohada mutanosiblik, uyg'unlik, moslik, maqsadga muvofiqlik, mavjud ekan, o'sha erda go'zallik mavjud.

Hozirda dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida estetik markazlar tashkil etilgan. Bu markazlar estetika, hususan go'zallikning amaliy ahamiyatiga doir ishlarni amalga oshirish, muayyan tadbirlar ishlab chiqish bilan Shug'ullanadi. INTERNET tarmog'ida estetika sohasiga doir o'n mingdan ziyod saydlarning deyarli 98%i go'zallikning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishga qaratilgan ma'lumotlardan iborat. Ana shunday markazlarni respublikamiz hududida ham tashkil etish zaruriyatga aylanishi lozim. Biroq, bu markazlar faqatgina moddalar, kosmetologiya, sheyping, monikyur, pedikyur, makiyaj estetikasi bilangina «o'ralashib» qolmasligi, aksincha, bunday markazlar

¹ Каранг: Шиллер Ф. Социниение в 6 томах. -Москва: Литература. 1967. Т.6. стр. 226.

go‘zallikning ma’naviy ahamiyatini ham yuksaltirishga xizmat qilishi lozim. Zero, go‘zallik narsa-hodisalarning namoyon bo‘lishigina emas, balki insonning o‘sha narsa-hodisalarga bo‘lgan munosabati hamdir. Bir so‘z bilan aytganda, go‘zallikni o‘rganish - insonni o‘rganish demakdir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib go‘zallik tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: *go‘zallik – ijtimoiy-ma’naviy xususiyatga ega bo‘lgan, ijtimoiy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi tushuncha bo‘lib, narsa-hodisalarning inson tafakkurida obrazli aks etadigan huzur-halovatning uyg‘unlik, me’yor, hamohanglik, mutanosiblik, maqsadga muvofiqlik asosida namoyon bo‘lishidir.*

Go‘zallik ideal xususiyat kasb etib, ijtimoiy-tarixiy voqelikka doimiy ta’sir o‘tkazish xususiyatiga ega bo‘lib, uning ahamiyati nafaqat san’atda, balki sportda, tabiat ko‘rkini asrab qolishda, atrof-muhitni go‘zallashtirishda, sanoat mahsulotlarining rang-barangligini zamonaviy inson talablari darajasiga ko‘tarishda, ishlab chiqarish vositalari dizaynini go‘zallashtirishda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

I.2. Go‘zallikka intilish – insonning etnomadaniy xususiyati sifatida

Mamlakatimiz fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan borar ekan, bu yo‘lda jamiyatning barcha sohalarida modernizatsiya qilish va diversivifikatsiya jaryonlarini jadallashtirish ishlarini olib borishni maqsad qilib olgan. Xususan, ta‘lim sohasida va kadrlarni tayyorlashning alohida konsepsiyasi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada “Ta‘lim to‘g‘risidagi” qonun (1997), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997) va bir qator qonunlarning qabul qilinishi yurtimizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning yaqqol tasdig‘idir. Mamlakatimizda uzluksiz ta‘lim tizimining joriy etilishi, Chunonchi, umumiy o‘rta ta‘lim, kasb-hunar ta‘limi va oliy ta‘lim sohasidagi islohotlar ta‘lim tizimimizning jahondagi ilg‘or davlatlar ta‘lim tizimiga tenglasha boshlaganidan dalolat beradi.

Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, maqsadimizga erishishimiz, yangi jamiyat qurishimiz, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma‘naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o‘tib kelayotgan yosh avlodga bog‘liq¹. Mustaqillik barcha ijtimoiy fanlar, ayniqsa, estetika fanining rivoji uchun ham katta inersiya berdi. Endi biz o‘tmishdagi boy ma‘naviy merosimiz durdonalarini go‘zallik tamoyillari orqali tahlil qilish va yangi cha ma‘no berish imkoniyatiga ega bo‘ldik. “Estetika” fani o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘lim tizimida, oliy ta‘limning bosqichlarida o‘quvchi, talaba yoshlarga, bo‘lajak kadrlarga inson turmushida kerak bo‘ladigan did, go‘zallik, sog‘lom turmush tarzi, chiroylilik, xunuklik, san‘atdan zavqlanish, poklanish singari estetik ong unsurlarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Inson paydo bo‘lgandan to hozirgi kunga qadar moddiy va ma‘naviy olamda hayot kechiradi. Olamni anglashga, bilishga, uni ma‘naviy o‘zlashtirishga harakat qiladi hamda moddiy va ma‘naviy qadriyatlar yaratadi. Inson faoliyat yuritar ekan, doimo tashqi olam bilan, jamiyat bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi va turli tabiiy-ijtimoiy hodisalarga duch keladi. Ba‘zan inson bu hodisalarga hissiy munosabatda

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – келажак пойдевори.//Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир, 3-жилд. Т., “Ўзбекистон”, 1996. – 36-б.

ham bo‘ladi. Tashqi olam bilan inson o‘zaro hissiyotli munosabatda bo‘ladi vabu munosabatini in’ikosli hodisalarda aks ettirib boradi. Bu estetiklik o‘z navbatida o‘zida yoqimlilik, foydalilik va hayajonli tuyg‘ularni, affektiv (jazava, junbushga kelish) holatlarni yuzaga keltiradi. Yer yuzidagi insonlar doimo tabiat, jamiyat va ular o‘rtasida munosabatlarda qatnashadilar, mehnat qilib uning natijasidan zavqlanadilar.

Estetika bu bilishining bir tarmog‘i bo‘lib, insonni o‘z hayotini shakllanishi haqida, barkamollik muhiti bilan o‘z naslini va oilasini ta’minlash va o‘z holatidagi tuyg‘ulariga amal qilishi va barkamollik, uyg‘unlik va go‘zallik haqida tasavvur hosil qilish, tinchlik, maishiy qulaylik va boshqa belgilarni ta’minlashga rioya qilishni o‘rganuvchi fan tarmog‘i hisoblanadi. Muxtasar qilib aytganda, estetika insonning his-tuyg‘ulari haqida ilmiy bilim bo‘lib, u tabiat va insonning o‘zaro ta’siri, barkamollik, uyg‘unlik va go‘zallikni his qilish asoslarini o‘rgandi. shunday qilib, zamonaviy estetikaning predmeti insonni hayotida go‘zallik, his-tuyg‘u bilan bog‘liq barcha narsalarning namoyon bo‘lishi, kishilarning aqli-idroki, iste’dodi dunyoviy ko‘rinishlar bilan ta’sirlaShuvi natijasida paydo bo‘lgan muommolar tashkil etadi. Estetika ilmiy haqiqatni bermaydi, lekin narsa va hodisalarning sifatiga hayotiy faoliyat va muvaffaqiyatli sharoitda to‘g‘ri ish qilayotganimizni nazorat qilib turadi.

Insonning ongi hozirgidek tizimlashmagan, rivojlanmagan paytlarda o‘z hissiyotlari, tuyg‘ularini aks ettirish uchun ma’lum ko‘rsatmalari, simvollar mavjud bo‘lgan. Avlodlarga qadriyatlarni, an’analarni, tabiat hodisalariga bo‘lgan munosabatlarni aks ettiruvchi ijodiyot mahsulotlarini yaratganlar. Bularni biz arxeologiya, etnografiya va antropologlarningilmiy izlanishlarida ko‘rishimiz mumkin.

Insoniyat madaniyat tarixiga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak, insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida ham tabiat va inson o‘rtasidagi garmoniyani ifodalovchi san’at asarlarini insonning tabiatga estetik munosabatini belgilovchi urf-odatlarini ko‘rish mumkin. Ya’ni, estetik ong san’at asarlarida

“moddiylashgan” va turli usullarda, shakllarda ifodalangan. Dastlab, hali yozuvdan foydalanish paydo bo‘lmasdan avval, g‘orlarning devorlariga chizilgan suratlar, tasvirlar asosida ham insonning tabiatga ongli (hozirgi davr nuqtai nazaridan primitiv va soddaligidan qat’iy nazar) estetik munosabati aks etgan. Keyinchalik esa, xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lgan: mif, afsona, rivoyat, hikoyat, matal, maqol, dostonlar va boshqa san’at asarlarini shaxs ekologik ongining tabiatni estetik idrok etish usuli, ifodalash shakli sifatida qarash kerak.

Ibtidoiy davrda toshdan yasalgan mehnat va ov qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari (ular ham toshdan yasalgan), toshdan yasalgan ona haykalchalari, chig‘anoqlar mayda toshlardan, morol (Sibir bug‘usi) va tog‘ echkisi tishlaridan yasalgan ayollar taqinchoqlari va boshqalar. Bu narsalarning barchasidan 50-40 million yil oldin (ba’zi manbalarga ko‘ra 2 million yil oldin) yashagan insonlar foydalanishgan va, ehtimol, ular tomonidan hissiy-emotsional holat asosida qilingan narsalar ularning amaliy mashg‘ulotlarini (mehnat, kundalik hayot, ovchilik vositalari) va go‘zalligini (ayollar taqinchoqlari) ko‘rsatib beradi deb xulosa chiqarish mumkin¹.

Qadimda oltin yoki kumush ilon o‘ralib turgan qadah – zardushtiylik dini tabobatining ilk marosimiy tasviridir. Bu esa hozirgi zamon tabobati ramzi sanalgan ilon chirmashgan qadah, zardushtiylik dini tabobatidan ko‘chirilganligini isbotlaydi. Ya’ni, ikki aka-uka egizaklar: Xaurvatat va Amirtatlarning olmos qadax ushlab turgan tasviri, uning asosi bo‘lgan. Xaurvatat – atrof-muhitdagi muvozanat va monandlik – uyg‘unlik homiysi, da’vo – shifo beruvchi; Amirtat esa – abadiyat ato etuvchi va, ayni paytda, alximiya xomiysi sanalgan. Abadiyat ichimligi to‘ldirilgan qadax – qalbiy ilmlar, koinot qonuni (asha), dunyoviy uyg‘unlik, abadiy va qudratli oliy **Haqiqat** ta’sirida sodir bo‘ladigan barcha o‘zgarishlarning ifodasi hisoblangan. Kumush ilon – insoniyatning shakllanish va rivojlanish yo‘li ramzi, oltin ilon esa – dunyoviy tadrijot – evolyusiya va dunyoviy uyg‘unlik ramzi sanalgan. Bu ta’limotlar va ramzlar, o‘z mohiyatiga

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, Т., 2002. – 70-б.

ko'ra, estetik ong va madaniyatning dastlabki badiiy ifodalanish bosqichi, deb baholanishga munosib¹.

Tabiat va tabiiy hodisalar insonning emotsional tuyg'ulariga ta'sir o'tkazib, sifatiy o'zgarishlarni vujudga keltirish mumkin. Masalan, bahor fasli yoki kuzgi xazonrezgi paytida shoir she'r yozadi, yozuvchi hikoya yozadi, rassom rasm chizadi. Bularning hammasi tabiat mo'jizalaridan zavqlanish tufayli yuzaga keladi. Bular qanday xususiyat va sifatlar bo'lishi mumkin? Estetika uchun, balki, bu eng asosiy savoldir, Chunki bunday xususiyat va sifatlar ta'siri ostida insonlarda shunday kuch va qobiliyat tug'ilganki, shuning uchun avlodlar o'tib odamlarning ijodiy salohiyati rivojlana borgan, ularning yaratuvchanlik qobiliyati tobora takomillashib borgan. Demak, yanada samarali mehnat qurollari, borliqdagi barcha amaliy narsalar, barcha bejamdor taqinchoqlar vujudga kelgan.

Arxeologik topilmalar ibtidoiy insonlarning maishiy ob'ekt va vositalari taqinchoqlari va diniy marosim predmetlari har qanday toshdan ham yasalmasligini ko'rsatadi. Bular, *birinchidan*, daryo yoki dengiz toshlaridan hayvon terisiga ishlov berish uchun to'g'ri va o'tkir to'lqinli qilib sayqallangan va tosh qurol sifatida foydalangan. Ushbu mikrolitlar: ignalar, o'q uchlari va nayzalardan tashlil topgan; *ikkinchidan*, yorqin yoki rangli toshlardan, kiyik (qo'y, echki) tishi yoki chig'anoqtoshlardan maxsus shakllar va ranglardan foydalanib taqinchoqlar yasalgan; *uchinchidan*, toshboltalar esa asosan qattiq, pishiq va ishonchli og'ir toshlardan ishlangan; *to'rtinchidan*, ibtidoiy odam asosan diqqatini tosh, suyak yoki chig'anoq shakliga undan keyin esa uning qattiqligiga, rangiga va boshqalarga qaratgan.

Qachonki, insonning estetik madaniyati bilan bog'liq go'zallik, nafosat haqidagi ehtiyojlari haqida izlanishlar olib borilishidan boshlab, inson kamolotining bir qator qirralari haqida nazariyalar paydo bo'ldi. XVIII asr o'rtalaridan chiroylilik yoki go'zallik ma'nolarini anglata boshlagan estetika

¹ Халимбой Бобоев, Солижон Ҳасанов “Авесто” маънавиятимиз сарчашмаси, Т., “Адолат”, 2001. – 83-б.

atamasini paydo bo'lishi insoniyatning bu boradagi birinchi qadami bo'ldi. Chunki turli ko'rinishdagi toshlar, chig'anoqtoshlar, suyaklardan qadimgi odam turli maqsadlar uchun foydalangan, u organik va tabiiy muhitdan foydalanib o'ziga va o'z yaqinlariga, ayniqsa, bolalari va ayollari uchun hamda turmushi, ro'zg'ori uchun kerak bo'ladigan narsalarni yaratgan. Atrof-muhit narsa va hodisalarga mos parametrlar uyg'unlik deb ataladi va u qadimiy kishilar uchun juda yoqimli bo'lgan. Chunki u tabiiy muhit bilan uyg'un yashovchi inson va tiriklik olamini o'rab turgan mutanosiblikni yaratadi. Kishilar odatda uyg'unlikni tashqi dunyo bilan o'zaro ta'sirlashib, muhitga moslashib yashashda deb bilishadi. Inson hayotida uyg'unlikning rolini hayot baxsh deb tushunishi, uning bu uyg'unlik muvozanatini ko'tarib turishga intilishi, uni yoqtirishi va hayotiy kuchini ko'payishiga olib kelishi deb taxmin qilish tabiiydir. Insonning atrof-muhitni yoqtirishi va buyoqtirishi nsonga optimistik ruh atoqilishi ijobiy holatdir. Atrof-muhit bilan uyg'unlikda yashash, hayotni sevish, Vatan tushunchasi va umuman uyg'unlik nazariy va amaliy jihatlarida etika va estetika fanlarida o'rganiladi. Uyg'unlik kategoriyasining estetik nazariyagacha bo'lgan ma'nosini va estetik nazariya asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Estetika uyg'unlikni go'zallik tushunchasi orqali tahlil qiladi.

Insoniyat tarixida azaldan bahs-munozaraga sabab bo'lgan muammo bu-qadimiy odamning dunyoqarashi, go'zallikni qanday anglashi va insoniyatning keyingi avlodlari go'zallik haqidagi tasavvurlarini o'zgarishiga nima sabab bo'lgan degan jumboqli savollar mavjud. Ushbu bahs-munozaraning mavzusi doimiy davom etadigan, echimi yo'q savollar qurshovidadir. Ya'ni, estetik his-tuyg'ular insonda tug'ma bo'ladimi? Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladimi? yoki ijtimoiy muhit ta'sirida yoshi katta insonlarda shakllanadimi? Bu savollar o'tmish mutafakkirlar, xususan, antik davr faylasuflarini, nemis klassik faylasuflarini, klassik tabiatshunoslarni, ko'pgina adabiy va badiiy tanqidchilarini qiynagan va bu savollarga javob izlashga majbur qilgan.

Go'zallikni yaratilishi xususida ikki xil qarash mavjud. Birinchisi - inson

tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yaratiladigan go‘zallik bo‘lib, bunda aql, tafakkur, bilim va xissiyot ustuvordir (san‘at va badiiy ijod namunalari, ilmiy asarlar va kashfiyotlar, moddiy ne‘matlar va ma‘naviy qadriyatlar va h.k.). Ikkinchisi - inson salohiyatidan tashqarida yuzaga keladigan, uning tafakkuri va bilimining mahsuli bo‘lmagan go‘zallik bo‘lib, unda makon va zamon salmoqli o‘rinni egallaydi (purviqor tog‘lar, cheksiz ummonlar, osmon jismlari va h.k.).

Go‘zallikka intilish insonning tabiiy xususiyati yoki dunyoni hissiy idrok etish belgisidir. Qadimgi Yunonlar bu jarayonni “aisthetikos” deb nomladilar, ya’ni hissiyotli, his-tuyg‘uli bilishdir. Keyingi davrda faylasuflar olamni bir-butun tarzda o‘rganib, insonning xususiyati haqida bir qarorga, to‘xtamga kelmadilar. Insonning ratsional xususiyatlariga ko‘ra, irratsional sifatlari ko‘payib ketganligi insonning barkamollikka erishish uchun ushbu masalalarga oydinlik kiritish asosiy vazifa bo‘lib qolgan. Insonning estetik ongi taraqqiyoti ijtimoiy-tabiiy muhitga juda qattiq bog‘langanligi sababli asosiy mohiyatidan, tabiiylikdan uzoqlashadi. SHaxs estetik ongi shakllanishida tabiiylik va ijtimoiylik birligi asosiy o‘rin egallaydi. Afsuski, ko‘plab kishilar ushbu o‘zaro bog‘liqlikni anglamaydilar. Ijtimoiy muhit kishilarni estetik ongini o‘stirishga, ma‘naviy va ijodiy hayotni qurishga va umuman komillikka tomon intilishiga katta yo‘l ochib boradi.

Inson o‘z tabiiy iqtidorini ma‘lum ijtimoiy muhitda o‘stirish, rivojlantirish uchun turli o‘z ijodiy faoliyatidan unumli foydalanmaydi. Ko‘p odamlar o‘z iqtidorini, imkoniyatlarini fahmlamaydi va o‘z hayotini erkin qura olmaydi. Vaholanki, inson ijodkor har qanday sharoitda ham o‘z ma‘naviy, axloqiy qiyofasini namoyon qilishi kerak. Bir qator kuchli ijodkor shaxslar (A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Oybek) juda og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda ham yashab ijod qilganlar, go‘zal milliy qadriyatlarni yaratib ketganlar. Insonning go‘zallikka intilishi barcha diniy manbalarda, falsafiy risolalarda keltirib o‘tilgani bejiz emas.

Hozirgi kunda kishilarning estetik ehtiyojlari – go‘zallikni his qilish, xunuklikdan qochish, turmushni go‘zallashtirish masalalari va umuman shaxs va

jamiyat estetik ongi bir qator muammolar qurshovida qolmoqda. Davr kishisi dunyoni go‘zallik asosida o‘zlashtirishi uchun bir qator omillar mavjudligiga qaramay estetik ehtiyojlar faoliyat ko‘rinishiga o‘tmayotir.

Bir vaqtlar go‘zallikni san’at, badiiy ijod orqali ruhiy qoniqish, huzurlanish, katarsis holatlari asosida tushuntirilgani bois, hozir ham Shu yo‘nalishda go‘zallikni tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Lekin san’at asarlari va turlaridagi “ommaviy madaniyat” elementlari buni boshi berk ko‘chaga etaklamoqda. Hozirgi kunda san’at bilan bir xil mavqeda bo‘lgan sport ommaviylashib, go‘zallikni namoyon etuvchi sub’ekt sifatida gavdalanmoqda.

Yuqoridagi bahs-munozaralardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirish lozim deb topdik:

birinchidan, har qanday tarixiy davrda jamiyat estetik ongi va madaniyati rivojlanish darajasi insonning atrof-muhitga estetik munosabatini mavjudligiga qarab belgilangan;

ikkinchidan, jamiyat estetik ongi va madaniyatini rivojlanishi darajasi bilan insonning go‘zallikka intilishi o‘rtasida dialektik aloqadorlik mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro vorislik munosabatlari doim namoyon bo‘laveradi;

uchinchidan, inson o‘z hayotiga nisbatan estetik munosabatni shakllantirib, muayyan axloqiy-estetik muammolarni badiiy obrazlarda ifodalashi jamiyatning bir butun estetik ehtiyojidan kelib chiqadi va umumjamiyat manfaatiga mos keladi;

to‘rtinchidan, insonning jamiyat va tabiatga estetik munosabatini shakllantirish orqali tarixiy merosi – hozirgi davr san’atida go‘zallik muammolarini ko‘tarib chiqishi, qadriyatlarning transformatsion jarayoni hisoblanadi;

beshinchidan, o‘tmishda insonlar hayotini darajasidan qat’iy nazar, diniy cheklovlardan qat’iy nazar, o‘zlarining etnomadaniy xususiyati bo‘lgan go‘zallikka intilishini rivojlantirganlar va bu bugungi kunda estetik immunitet tushunchasida ifodalanmoqda.

I.3. Sharq va G'arb mutafakkirlarining ijodida go'zallik tushunchasini o'rganilishi

Inson ma'naviy olamni asosan uch soha orqali o'zlashtiradi: *aql-idrok, iroda-ixtiyor, his-tuyg'u*. Ular o'z navbatida, insonning falsafiy, mantiqiy, axloqiy, estetik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, iroda-ixtiyorni o'rganish- axloqShunoslikning, aql-idrokni o'rganish-mantiq ilmining, hissiyotni o'rganish esa nafosatShunoslik (estetika)ning zimmasidadir. Mazkur sohalar azaldan falsafada o'z o'rinlariga ega bo'lib kelgan. Xususan, estetika insonning ma'naviy olamini nafis tuyg'ular bilan boyitib borishda muhim ahamiyat kasb etuvchi fan bo'lib kelgan. Shu bois Nafosat falsafasiga doir ilmiy manbalarda mazkur fan «San'at falsafasi» hamda «Go'zallik falsafasi» nomlari bilan talqin etib kelingan.

Go'zallik azaliy muammo sifatida o'tmish mutafakkirlarini befarq qoldirmagan. Estetik tafakkur tarixida go'zallik haqidagi g'oyalar, qarashlar, nazariyalar, ta'limotlarning butun bir tizimi shakllandi. Quyida ana shunday qarashlarning ayrimlari xususida mulohaza yuritamiz.

Falsafa, estetika, ahloqShunoslik, siyosatShunoslik singari ijtimoiy fanlar o'z tadqiqotlarini ko'proq antik davrga muqoyasa qilgan holda rivojlantiradilar. Chunki bu davrda mavjud fanlarga daxldor muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etildi va muayyan tizimga solindi. Shu bois biz ham go'zallikning ilmiy-nazariy talqiniga doir fikrlarni o'sha davrga murojaat etgan holda boshlashni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Qadimgi Xitoydagi estetikaning go'zallik tushunchasiga oid fikrlar Lao Szi (mil.av. VI-V asrlar) tomonidan daosizm ta'limotida ilgari surilgan. Uning ta'limotiga ko'ra, dao qonuni – tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirof etilishidir¹. Daosizm ta'limoticha «go'zallik va xunuklik, balandlik va pastlik, yaxshilik va yomonlik, borliq va yo'qlik, uzun bilan qisqalik bir-birini tug'diradi, birin-ketin keladi, bir-

¹ Фалсафа асослари. -Тошкент: Ўзбекистон, 2005 – 56 б.

biriga bog‘liq bo‘ladi, tabiatdagi barcha mavjudot, barcha hodisalar qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga oladi»¹.

Qadimgi hindlar tomonidan mil. av. uch minginchi yillarda yaratilgan dastlabki estetik madaniyat namunalari «Ramayana», «Mahobhorat», «Kalila va Dimna», «Vedalar» kabi mashhur asarlarda shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, estetik tasavvurlari, madaniyati haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan. Asrlar davomida shakllanib kelgan, Yuksak nafosat va mangu hikmat xazinasi bo‘lgan ana bu asarlarda hindlarning urf-odatlari va an‘analari, odob-axloqi va estetik madaniyati, dini va tarixi, milliy qadriyatlari, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, badiiy-estetik, falsafiy, diniy qarashlari o‘zining yorqin ifodasini topgan.

«Avesto»da tabiat va jamiyat go‘zalligining ko‘rinishlari, jumladan tabiatga bo‘lgan munosabatda ekologiya muammolari bilan bog‘liq masalalarga katta ahamiyat berilganida ko‘rinadi. Unda insonning to‘rt unsur (er, suv, havo va olov), Shuningdek, inson uchun foydali narsalarni muqaddas bilib, ularga estetik munosabatda bo‘lish o‘z ifodasini topgan. Zardo‘штиylar uchun «butun tabiatni – er, suv, daraxt, o‘simlik, jonivorlarni e‘zozlash, erga ishlov berib, sug‘orib, bog‘-rog‘lar va ekinzorlar barpo etish, chorvachilikni keng yo‘lga qo‘yish, suv va olovni muqaddas tutish shart bo‘lgan»².

Islom estetik tafakkur tarixida so‘z va uning mohiyatiga Yuksak e‘tibor qaratilgan: so‘z shaxsni gunohlardan forig‘ qilib, uni yaxshilik va go‘zallikka intilishga chorlaydi. Buning mohiyati «Qur‘oni Karim»ning “Sajda” surasida Ollohning sifati bilan uyg‘un holda e‘tirof etilsa, “Shuaro” surasida «Kim biron chiroyli amal qilsa, Biz uning uchun o‘sha (chiroyli amali)da yana husnni ziyoda qilurmiz (Ya‘ni ziyoda savob ato eturmiz)»³. Hadisi SHarifda esa bu masala «Tangri go‘zaldir va u go‘zallikni yaxshi ko‘radi»⁴, deyiladi. Islom dinida inson

¹ Туленов Ж., Фофуров З. Фалсафа. -Тошкент: Ўқитувчи, 1997– 41 б.

² Бобоев Х., Дўстжонов Т., Ҳасанов С. «Авесто» - Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – 48 б.

³ Куръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. –Тошкент: Чўлпон, 1992, - 299-359 б.

⁴ Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. –Тошкент: Фан, 1990. – 40 б.

qo‘li bilan yaratilgan me‘moriy obidlar, sag‘ana va masjidlar, qadamjolar ham chiroyli ta‘kidlanadi. Islom me‘moriy obidalaridagi darvoza, eshik va derazalarni uymakorlik, binolarni naqqoshlik san‘ati bilan bezash, devorlarga islomiy va girix uslubida ganchlardan turli shakllar yasash, ustunlarni arab yozuvi asosida naqshlar bilan bezatish bugungi kunda keng tus olgan.

Go‘zallik haqidagi mavjud fikrlar orasida go‘zallikka manfaatsiz munosabat masalasi g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Go‘zallikdan biror-bir narsani ta‘ma qilmagan xolda unga nisbatan manfaatsiz munosabatda bo‘lishning ahamiyati borasidagi qarashlar musulmon olamida «Hujjat ul-Islom» degan sharaflı nom bilan mashhur bo‘lgan Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy tomonidan ham ilgari surilgan.

Ilohiyotchi, faylasuf, tasavvuf falsafasining asoschisi Imom G‘azzoliy (1058-1111) go‘zallikka manfaatsiz yondaShuvning o‘ziga xos ahamiyati borasida nihoyatda muhim bo‘lgan estetik nazariyani ishlab chiqdi. Bu bilan falsafiy fanlar orasida Forobiy, Ibn Sino ananalarini davom ettirib, O‘rta asrlar musulmon olamida taraqqiy etgan nafosat ilmini yangi bosqichga ko‘tardi. Jumladan, G‘azzoliy «Ihyoi ulum ad-din» («Diniy bilimlarning jonlantirilishi») nomli risolasida falsafa, axloqShunoslik, nafosatShunoslikka doir barcha asosiy tuShunchalarni Qur‘on va Hadisga tayanib isbotlashga urinadi. Chunonchi, alloma go‘zallik tushunchasiga alohida to‘xtalar ekan, manfaatsiz go‘zallik, go‘zallikning nisbiyligi, oltinchi sezgi orqali his qilinadigan go‘zallik haqida o‘zining muhim nazariy fikrlarini o‘rtaga tashlaydi.

Imom G‘azzoliy ilgari surgan go‘zallikning nisbiyligi va go‘zallikka nisbatan manfaatsiz munosabat nazariyasi keyinchalik Ovro‘pa nafosatShunosligida ko‘zga ko‘ringan mutafakkirlar qarashlarining shakllanishiga turtki berdi. Abdulla Sher bu borada «Chunonchi, Immanuil Kant nafosat tuyg‘usini manfaatsiz, beg‘araz, faqat predmetga sof muhabbat bilan munosabatda bo‘lish tufayli yuzaga kelgan tuyg‘u deb ataydi. Go‘zallikning nisbiyligi borasida ham Kant G‘azzoliy tutgan yo‘ldan boradi», -degan fikrni ta‘kidlaydi.

Ma'lumki, antik davr estetikasida kosmologizm ta'limoti ustuvor mavqeni egallagaydi. Unga ko'ra, koinotdagi uyg'unlik, mutanosiblik, hamoxanglik o'zining ulug'vorligi bilan kishini hayratga soluvchi eng Yuksak go'zallik timsoli sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, qadimgi Yunon donishmandi Plotin (204-205-270 yillar) estetikasini *Birlik, Aql, Qalbdan* iborat uch asosiy muammo tashkil etadi. Bu ayni paytda plotincha dialektik uchlik hamdir. Mazkur uchlikning mohiyati uning «Go'zallik haqida» nomli risolasida o'z aksini topgan. Asarda faylasuf go'zallikni «botiniy Eydos» (*to endon eidos*) sifatida talqin etadi. Uning fikricha, Qalb va Aqlning uyg'unligi go'zallik ierarxiya (yuqorilab boruvchi bosqich)sini vujudga keltiradi. Ya'ni, tana Qalb bilan go'zal, Qalb Aql bilan mustahkam, Aql esa Ibtidoiy tavhidiy Ezgulik bilan go'zaldir.

Shuningdek, Plotin go'zallik uchun muhim unsur hisoblangan yaxlitlikni atroflicha tadqiq etadi. Jumladan, u inson vujudining yaxlitligi uning qismlariga hech qanday dahl qilmasligini uqtiradi. Mazkur fikrga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, Shuni ko'ramizki, birgina qismning o'zi borliqni go'zallik tarzida mujassam ettira olmaydi, qismlar faqat yaxlitlik atrofiga birlashgandagina go'zallikni namoyon qilishi mumkin. Qolaversa, inson o'zining didiga hamda go'zallik haqidagi ideallariga asoslanib narsa-hodisalarni go'zal yoki xunukka ajratadi.

Bir so'z bilan aytganda, Plotin estetikasida go'zallik quyidagicha ko'rinishda namoyon bo'ladi: voqelikdagi go'zallik o'z-o'zidan emas, balki nomoddiylikdan-ilk go'zallik deb atash mumkin bo'lgan Eydosdan bunyodga keladi. Eydos ishtirok etgandagina borliq go'zal bo'ladi. Eydos mavjud bo'lmagan narsa shaklga ham ega emas; shakl va mazmun hamohang bo'lmagan narsalarga xunuklikdir. Aksincha, qaerda Eydos borliqdan yuqori tursa, o'sha erda go'zallik mavjud. Shu bois go'zallik manbai bo'lmish «Biru-bor» hamma narsadan go'zal. Biru Borning orasida Aql eng go'zal va ilk go'zallikdir. So'ngra Aqlni qamrab olgan va uni teranlashtiruvchi qalb go'zal. Qalb amriga tobe bo'lgan va qalbg muqoyasa tarzida yashovchi Vujud esa undan keyingi go'zallik sifatida talqin etiladi. Zero,

Vujud va Qalb go‘zalligi aqliy go‘zallik uchun tayyorgarlik bo‘lib, Plotin nazdida irodali-zakiy oqil Eydos yoki aql orqali ro‘yobga chiqqan hayotgina go‘zallikni aks ettiradi.

Go‘zallik muammosiga nisbatan Plotin tomonidan bildirilgan mazkur fikrlar ma’lum ma’noda O‘rta asrlar nasroniylik dini ilohiyotchi olimlari qarashlarining shakllanishiga ta’sir etgan bo‘lsa ajab emas. (yulduzcha qo‘yib snoskaga izoh yozilgan) Jumladan, uning ta’sirini Avgustin Avreliy (354-430)ning estetik qarashlarida ham ko‘rish mumkin. Bu borada nafosatShunos olim V.V. Bichkov Avgustinning tartiblilik qonuniga oid fikrlarining ahamiyatini: «Estetika olamida mazkur qonun muhim kashfiyotdir. U go‘zallik va san’at o‘rtasidagi umumiylikni topishga izn berdi, badiiy qiyofani shakllantirish qonunlarini anglashga keng yo‘l ochdi»¹, - deya ta’kidlagan edi.

Shuningdek, Angliya Uyg‘onish davri estetikasining go‘zallik haqidagi qarashlariga XIV-asrning oxiridagi yangi aflatunchilik (neoplatonizm) falsafiy yo‘nalishga xos bo‘lgan go‘zallik va ezgulikning uyg‘unligi haqidagi g‘oyalar bevosita ta’sir etgan desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. yangi aflatunchilar nuqtai-nazariga ko‘ra, qachonki, ezgulik muhabbatni go‘zallik vositasi orqali o‘ziga yaqinlashtirsagina chin go‘zallik maqomiga ega bo‘lishi mumkin. Zotan, ezgulik ham go‘zallik singari muhabbatning manbai sanaladi. Go‘zallikka bu tariqa munosabat o‘z navbatida ingliz rennessansida tabiatdagi go‘zallik ma’naviy go‘zallikning bir ko‘rinishi ekanini isbotlashda, inson botiniy olamiga chuqurroq nazar tashlashda, aql va hissiyot, vujud va ruhning dramatik to‘qnaShuvlarini ochib berish yo‘lida etakchi yo‘nalish bo‘lib hizmat qildi. Zero, Angliya Uyg‘onishining buyuk vakili faylasuf-dramaturg Uilyam SHekspir o‘z asarlari orqali murakkab shaxslar xarakterini badiiy obrazlar bilan tasvirlashda mana Shu yo‘lni asos qilib olgan desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Go‘zallik g‘oyadan iborat va g‘oya tarzida anglanmog‘i lozim, deb bilgan

¹ Бычков В.В. Aesthetica patrum. Эстетика отцов Церкви. Т. 1. Апологеты. Блаженный Августин. М., 1995. С.19

Gegel tabiatdagi go‘zallikka nisbatan san’atdagi go‘zallikning ustuvor ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, mutlaq g‘oya o‘zlikni anglashning Yuksak shakli bo‘lgan san’atdagina go‘zallik sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki, san’at nafaqat voqelikni badiiy qiyofalar orqali aks ettiradi, balki voqelikdan-da yuksak bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Barcha hodisalarni moddiy asosdan tazalashga qodir bo‘lganligi uchun ham san’at go‘zallikni yarata oladi. Ayni paytda faylasuf tabiatdagi go‘zallikka munosabat bildirib, uni san’atdagi go‘zallikka nisbatan quyi bosqichda turishini ta’kidlaydi. Sababi, san’atning yaratuvchisi bo‘lgan insonda ilohiy asos - *ruh* bor, u yaratgan san’at asariga o‘sha ruh o‘tadi. Tabiatdagi go‘zallikdan san’atdagi go‘zallikning ustuvorligi ham ana shunda. Bu bilan faylasuf go‘zallik mohiyatan ilohiylik kasb etuvchi hodisa ekanligiga ishora qiladi.

Olmon mumtoz estetik ta’limotida Fridrix Shiller (1759-1805) ning o‘rni buyuk: u go‘zallikning ijtimoiylik xususiyatiga katta e’tibor qaratadi. Shiller jamiyatni inqilobiy larzalarsiz o‘zgartirishning tarafdori edi. Uningcha, inqilob axloqsizlikning ko‘rinishi: u asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy tamoyillarni, ma’naviy qadriyatlarni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlaydi (Sovet Imperiyasi olib borgan siyosat buning yorqin misoli). Bundan tashqari, inqilob nafosatga ham qarshi bo‘lgan siyosiy hodisa: u inson tabiatidagi uyg‘unlikni buzadi, go‘zallikni parchalab tashlaydi. Inqilobning insoniyatga keltiradigan ana shunday buyuk zararini nazarda tutgan Shiller jamiyatni qayta qurishdan avval, insonning o‘zini qayta qurmoq kerakligini hamda shaxsni barkamol bo‘lishi uchun tarbiyani go‘zallik vositasi orqali amalga oshirish zarurligini uqtiradi. Uning fikricha, go‘zallik - hodisaga aylangan erkinlik, erkinlik tomon yo‘l faqat go‘zallik orqali o‘tadi. Shuning uchun Shiller, «Xissiy go‘zallik ma’naviylikka, ma’naviylik esa moddiylikka olib boradi. Go‘zallik zo‘riqqan insonda uyg‘unlikni tiklaydi, bo‘shashgan odamda esa faollikni uyg‘otadi. Go‘zallik insonning oqillaShuvi yo‘lidagi zaruriy shartdir. Faoliyatning barcha turlari insonning alohida-alohida kuchlarini rivojlantiradi, faqatgina go‘zallik uni bir butun yaxlitlik sifatida shakllantiradi», -degan muhim g‘oyani ilgari suradi.

Faylasufning mazkur fikri istibdod zulmidan halos bo'lgan, endilikda insonparvar jamiyatni tadrijiy (evolyusion) tarzda barpo etishni maqsad qilgan mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy hayotida Yuksak ahamiyat kasb etadi.

Estetikaga doir hozirgi kundagi mavjud adabiyotlarda estetik tafakkur tarixining asosiy bosqichlari Antik davr, O'rta asrlar, yangi davr va Eng yangi davrlarga ajratilib tadqiq etiladi. Biroq, aksariyat adabiyotlarda Sharq estetik tafakkur tarixiga yondaShuvni holislikdan yiroq, deb hisoblayimiz. Vaholangki, nafosatShunoslikka oid ilk qarashlar dastavval Sharqda paydo bo'lganligi, antik davr mutafakkirlari esa mazkur qarashlar asosida o'zlarining ta'limotlarini ishlab chiqqanligi falsafa, nafosatShunoslik, san'at tarixiga doir ilmiy manbalarda isotlab berilgan. Bundan tashqari, yangi davr nafosatShunosligini birgina Ovro'pa bilan bog'lash Sharq xalqlari estetik tafakkuriga, qolaversa, milliy nafosatShunosligimizga nisbatan hurmatsizlikdir.

Millatparvarlik ruhini o'zida mujassam etgan bu harakat ma'rifatchilik, vatanparvarlik va istiqloq g'oyalarini o'zining axloqiy-estetik idealidagi etakchi yo'nalish deb bildi. Jadid mutafakkirlari o'zlarining estetik qarashlarini asosan uch soha orqali ilgari surdilar: *san'at*, *maorif*, *matbuot*. Ayniqsa, san'atning teatr turi jadid estetikasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi; u xalqni ma'rifatga, ilmga, ozodlikka chorlovchi asosiy soha sifatida e'tirof etildi. Buni jadidshunos olim SH. Rizaev alohida ta'kidlab: «Dramaturgik asarlarda jadid qarashlari, maqsad va intilishlari o'zga janrlardan ko'ra ko'proq va kengroq hamda keng miqyoslarda o'z aksini topdi. Dramatik asarlar jadidlarning xalq bilan yaqinlashuvi, uning maishiy, ma'naviy dunyosiga kirib borishini ta'min etdi».-deydi. Jadidlar shunday yo'l bilan Turkistonda yangicha estetik tafakkurni shakllantirish hamda taraqqiy ettirishga intildilar.

Ma'lumki, san'at axloqiy, estetik, siyosiy kabi ijtimoiy anglashning qator shakllari bilan doimiy hamkorlikda faoliyat olib boradi. Ayni paytda u falsafa bilan mustahkam aloqada. Zotan, badiiy ijod namunasi bo'lmish san'at asarida falsafiy g'oyalar goho ochiqchasiga, gohida esa yashirin, sirli, badiiy qiyofalar (obrazlar)

yordamida aks etadi. Asarning falsafiy mazmundorligi bevosita asar muallifi dunyoqarashiga, tafakkurining teranligiga bog'liq. Agar ijodkorning ijtimoiy-falsafiy, estetik-axloqiy dunyoqarashi etuk bo'lsa, u falsafiy mohiyatni badiiylik bilan uyg'unlashtirgan xolda asar ruhiga singdira oladi. Zero, san'at insonlarning estetik ideallarini badiiy qiyofalar orqali tasvirlashi barobarida jamiyat hayotining o'ziga xos badiiy-falsafiy mohiyatini ham aks ettiradi. Shuning uchun san'at fan va falsafa bilan hamkor bo'lgandagina bilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy anglashning ahloqiy, siyosiy, huquqiy kabi qator shakllari bilan aloqadorlikda bo'lib san'at o'zining ilmiy-falsafiy, axloqiy-siyosiy g'oyalarini badiiy qiyofalar orqali aks ettirishga harakat qiladi.

Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Ibrat, Elbek singari mutafakkirlarning qarashlarida go'zallik muammosi masalasi Vatan istiqloli, millat ozodligidek Yuksak g'oyalar bilan aynanlashtiriladi. Turkiston ma'rifatchi mutafakkirlarining san'at, badiiy adabiyot hamda falsafiy qarashlariga xuddi mana Shu ruh singib ketganligini ular tomonidan qoldirilgan ilmiy meroslar orqali xis qilamiz.

Har bir haqiqiy san'at asarida albatta, biror-bir falsafiy muammo ko'tariladi. Biroq, falsafiy muammolar asrda muayyan badiiy qiyofalar, badiiy ideallar, badiiy ramzlar orqali ifodalanadi. Shu bois estetik idrok etish jarayonida ko'tarilgan muammoning mohiyatini hamma ham darhol tuShunib olishi qiyin. Ayniqsa, Turkiston ma'rifatchi jadidlarining etuk namoyondasi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodi ana shunday noziklik bilan yaratilgan badiiy ijod namunasidir.

Bob bo'yicha xulosalar

Umuman olganda, estetik tafakkur tarixida go'zallik kategoriyasining yoritilishiga doir qarashlar, ta'limotlar, nazariyalarni tahlil qilishga qaratilgan mazkur bobda quyidagi xulosalarni keltirish maqsadga muvofiqir.

Birinchidan, estetik tafakkur tarixining biz ko'rib o'tgan bosqichlarida go'zallik kategoriyasining ham ontologik ham gnoseologik tahlilini ko'rish mumkin. Ontologik tahlil Shundan iboratki, garchan go'zallik Oliy Ibtido-Xudoga qiyoslanganligiga qaramay, mutafakkirlar go'zallikning mohiyatini borliqqa zid bo'lmagan va undan ajralgan holda yuzaga kelmaydigan nisbiy hodisa sifatida talqin qildilar. Shu bois, haqiqat, ezgulik kabi go'zallik ham inson mohiyatidagi muhim tuShuncha, deb e'tirof etildi;

ikkinchidan, go'zallik, insonning estetik faoliyatida kutilmagan holatlarda yuzaga kelsa-da, ayni paytda uni borliqdan ajratib bo'lmaydi. Inson haqiqat bilan qaysidir bir joylarda emas, balki borliqning real tasviri aks etgan tartibli, mukammal va mustahkam «hudud»larida uchrashadi. Ana Shu jihatlari bilan go'zallik mohiyatan falsafiy-ontologik maqomga ega bo'lgan tuShuncha sanaladi;

uchinchidan, go'zallik o'z-o'zidan vujudga keladigan hodisa emas. U muayyan elementlarning o'zaro hamoxangligi natijasida yuzaga keladi, shakllanadi. Uyg'unlik, me'yor, tartiblilik, maqsadga muvofiqlik, mutanosiblik kabi elementlar ana Shular jumlasidandir;

to'rtinchidan, mutafakkirlar go'zallikni falsafiy-estetik mohiyatini tahlil qilishda estetik elementlarning har biriga alohida munosabat bildirganlar. Biroq, har qaysi mutafakkir go'zallikning Yuqorida qayd etilgan elementlaridan birini maxsus o'rganish orqali go'zallikning mohiyatini ochib berishga intilganlar. Masalan Arastuda go'zallikning me'yor, Aflotunda - uyg'unlik, Avgustinda – tartib, Kantda - maqsadga muvofiqlik, Gegelda – mutanosiblik va hokazo.

II-BOB. GO‘ZALLIK TUSHUNCHASINI ESTETIK KATEGORIYALAR TIZIMIDAGI O‘RNI VA UNING IJTIMOIIY ONG SOHALARIDA AKS ETISHI

II.1. Go‘zallik tushunchasining estetik kategoriyalar tizimida in’ikosi

Go‘zallik tushunchasi sub’ektdagi yoqimli taassurot, xush kayfiyat va quvonch uyg‘otadigan ob’ektdagi estetik xususiyatni tavsiflashga yo‘naltirilgan ilmiy atama. Estetik xususiyat sifatida esa go‘zallik muayyan komillik va Yuksak qadriyatlar, insonni «erkinlikka olib boradigan yo‘ldir»¹.

Go‘zallik eng avvalo me’yor bilan bog‘liq. Lekin bu bog‘liqlik bilvosita – uyg‘unlik orqali ro‘y beradi. Ya’ni, nimaiki me’yorida bo‘lsa, unda uyg‘unlik xususiyat mavjud bo‘ladi; uyg‘unlik esa go‘zallikning poydevoridir. Uyg‘unlikda moslik va mutanosiblik bilan bir qatorda ba’zan nomoslik va nomutanosiblik katta ahamiyatga ega. Masalan, terakning adlligi, pastki tanasining ustki qismiga mutanosibligi – go‘zal. Ayni paytda tok zangining egri-bugriligi, pastki qismi bilan tepa tomonining nomutanosibligi ham – go‘zal. Chunki har ikki holatda ham uyg‘unlik mavjud. Zero u uyg‘unlik ikki va undan ortiq qarama-qarshi narsa – hodisalar yoxud narsa-hodisalar unsurlarining me’yor asosida «ichki keliShuvi» dan hosil bo‘ladi. Masalan, qiz bolaning oppoq yuzidagi moshdek yoki no‘xatdek qora xol – go‘zal, bunda oq bilan qora-qarama-qarshi ranglar me’yor asosida bir-biri bilan sig‘ishadi, uyg‘unlikni tashkil etadi, natijada yuzda go‘zal manzara vujudga keladi, aniqrog‘i, yuz go‘zallashadi. Biroq oq yuzadagi qora xol me’yordan ortiq o‘rin egallasa, yuzning katta qismini qoplab olsa, go‘zallik emas, xunuklik paydo bo‘ladi. Chunki me’yor bezilishi, qora rangning ortiqcha kattalashib ketishi uyg‘unlikka putur etkazadi. Ba’zan muayyan bir hajm dorasidagi narsa-hodisalarning ozgina u yoq-bu yoqqa siljishi yoki o‘rin almashishi ham go‘zallikni yo‘qqa chiqaradi. Bunga avstriyalik ruhShunos va estetik Fexner qadimgi daogi faylasuflar fikrini rivojlantirib, qiziq

¹ А.Шер. Гўзаллик ва хунуклик. <http://faylasuf.uz>. мурожат этилган сана 15.04.2016

misol keltiradi: qiz bolaning yuzidagi qizillik – go‘zallik, lekin u burunga ko‘chsa-xunuklikka aylanadi.

Demak, gap faqat hajmda emas. To‘g‘ri, qadimgi faylasuflar ta’kidlaganlaridek, hajman ko‘z ilg‘amaydigan darajada kichik bo‘lgan yoki, aksincha, nigoh qamrab ololmaydigan bag‘oyat ulkan narsa-hodisalarni go‘zal deyish mushkul, lekin go‘zallik hajmdan ko‘ra ko‘proq sifat bilan bog‘liq. Ko‘rib turibmizki, go‘zallik nihoyatda nozik, ta’bir joiz bo‘lsa, «injiq» xususiyat, xususiylik tabiatiga ega. Shu bois uni butunlay ezgulik bilan aynanlashtirish xato xulosalarga olib keladi. Chunki ezgulikning talablariga, kengroq ma’noda olsa, axloqiy qonun-qoidalar barcha uchun umumiy, go‘zallik esa har bir hodisada hususiydir. Masalan, axloqShunoslikdagi «yaxshi odam» tushunchasini olaylik, u hamma uchun-erkagu ayol, yoShu qari uchun bir xolda tatbiq etiladi.

Estetik kategoriyalarning sistemaliligi, o‘zaro funksional bog‘liqligi “estetiklik” (“nafosatlilik”) tushunchasida¹ ifodalanadi. Lekin Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilidagi mavjud o‘quv adabiyotlarida ushbu atama sistema tashkil etuvchi alohida kategoriya sifatida olib qaralmaydi. Vaholangki, mazkur metakategoriyasiz boshqa estetik kategoriyalarning yaxlit sistema qismlari tarzidagi o‘zaro bog‘lanishlarini belgilash mumkin emas.

Estetiklik - eng umumiy metakategoriya bo‘lib, unda barcha boshqa – estetik kategoriyalarning mazmuni mushtaraklashadi va falsafiy mohiyat kasb etadi. Mazkur kategoriyada insonning estetik sub’ekt sifatida borliqdagi narsa, hodisalarga bo‘lgan dunyoqarash tizimidagi munosabati ifodalanadi².

Borliqning barcha sohalari – tabiat, jamiyat va shaxs hayotining estetik jihatlarini faqat insonning ularga estetik sub’ekt darajasida bo‘lgan munosabatida anglab olinadi, baholanadi va o‘zlashtiriladi. Insonning estetik sub’ekt sifatidagi darajasi esa Haqiqat, Ezgulik, Go‘zallik oliy qadriyatlarini tamoyillarining uning

¹ Оллоёров М. Эстетик категорияларни системалаштириш масаласи хусусида.// СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. 2010, № 2

² Оллоёров М. Эстетиканинг асосий категориялари. Услубий қўлланма. Самарқанд. 2011, 17-бет.

faoliyatida, borlig'ida qay darajada o'zining tajassumini topganligi bilan belgilanadi.

shunday qilib, estetiklik kategoriyasining mohiyati barcha estetik tuShunchalarning xususan, go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik, hajviylik mezoniy tuShunchalarning o'zaro funksional aloqadorligi, Ya'ni muayyan sistema tarzidagi maqomida namoyon bo'ladi. Mazkur tuShunchalar (kategoriyalar) bir-birini taqozo etadigan va biri-biriga o'tib turadigan sistema qism jihatlarining o'zaro ichki aloqadorlikdagi xususiyatlarini ifodalaydi. Mazkur sistemani quyidagicha sxemada ifodalash mumkin

Falsafiy fikr tarixida ko'pgina faylasuflar ana Shu o'ziga xoslikni aniqlashga urinadilar. Ulug'vorlik haqidagi dastlabki nazariy fikrlar muallifi Psevdo-Longin deb taxmin qilinadigan, so'nggi antiq davrda yaratilgan (eramizdan avv. I asrning 40 yillarida) "Ulug'vorlik to'g'risida" nomli traktatda bayon etiladi. Ma'lumki, bu davr qadimgi Yunon tamaddunining beqiyos Yuksakligiga putur etib, individualizm, pastkashlik, tubanlik kabi illatlar ijtimoiy hayotda keng ildiz otaboshlaganligi bilan xarakterlanadi.

Mazkur traktat ana Shu ma'naviy inqirozning ta'siri natijasi o'laroq yozilgan bo'lib, uni (inqirozni) mazkur traktatning leymotivini kishilarda ulug'vorlikni anglash, o'z hayotlarida uni qaror toptirish ana Shu inqirozni bartaraf etishda belgilovchi rol o'ynaydi, degan g'oya tashkil etadi. Psevdo-Longinning fikricha, ulug'vorlik go'zallikning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishidir. Go'zallikning mohiyatini uyg'unlik tashkil etadi. Buni so'z san'atida yaqqol ko'rish mumkin. Chunki undagi go'zallik so'z va fikr uyg'unligining natijasidir, bunday uyg'unlik esa o'zining eng Yuksak ifodalanishda ulug'vorlikka aylanadi.

Ingliz faylasufi E. Byork (1729-97) "Ulug'vorlik va go'zallik haqidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi haqida tadqiqotlar" nomli asarida ulug'vorlikni kishining hayrat, qo'rqinch his-tuyg'usini ifodalovchi kategoriya sifatida talqin qiladi.

I.Kant ulug‘vorlik inson ruhida tug‘iladigan, uni junbushga keltiradigan his-tuyg‘u deb tuShuntiradi. “Ulug‘vorlik, - deb ta’kidlaydi u, - hech qanday tabiat hodislarini aks ettirmaydi, u faqat ruhimizda tug‘yon uradi”¹. Uningcha, go‘zallik hamma vaqt jozibali bo‘lib, kishini zavqlantirsa, lazzatlantirsa, ulug‘vorlik hayratlanish, qo‘rquv his-tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Nemis klassik faylasufining yana bir yirik namoyandasi Gegel ulug‘vorlikni mutlaq ruh taraqqiyot etapining estetik xarakteristikasi bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Mutlaq ruh san‘at bilan o‘zaro muayan muvofiqlikda rivojlanadi. San‘at taraqqiyotining klassik etapida ulug‘vorlik go‘zallik bilan sintezlashgan holda namoyon bo‘lsa, romantik bosqichida esa e’tibor ulug‘vorlikka, tarixiy shaxslar, qahramonlar xarakterini yaratishga qaratiladi.

Estetikada esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri «go‘zal odam» degan tuShuncha yo‘q, biz faqat «go‘zal qiz», «go‘zal yigit», «go‘zal ayl», «go‘zal erkak» degan iboralarinigina qo‘llashimiz mumkin. Sababi – erkak kishi uchun yarashib tushgan mo‘ylov ayolga go‘zallik baxsh etmaydi, ayolga nisbatan olganda go‘zallik bo‘lgan ko‘kraklar erkak kishi uchun xunuklikdir. Lekin go‘zallik bilan ezgulikning shartli ravishdagi, bilvrsita bog‘liqligi ham bor. Masalan, har bir haqiqiy san‘at asari asosida doimo axloqiy muammo yotadi, undagi ba’zi qahramonlar o‘zlarida xulqiy go‘zallik sifatlarini namoyon etadilar. Shu sababli estetikada xulqiy go‘zallik tushunchasi mavjud.

Biz xulqiy go‘zallik, deganda axloq-odob qonun qoidalariga namunaviy tarzda rioya qilgan, qalban go‘zal, o‘zida axloqiy va estetik qadriyatlarni uyg‘unlashtira olgan, muayyan darajada komillikka erishgan odamni tuShunamiz. «Go‘zal odam» tushunchasi faqat ana shunday hodisalardagina ishlatilishi mumkin. Go‘zallik ham ko‘pdan-ko‘p xususiyatlar kabi o‘z unsurlariga ega bo‘lgan yaxlitlik. Chunonchi, chiroylilik, noziklik, latofatlik, malohatlilik, injalik singari sifatlarini uning unsurlari deyish mumkin. Ammo bu unsurlarning hech biri alohadi-alohida olinganda, hatto mujassam tarzda olinganda ham go‘zallik bo‘la

¹ Кант И. Наблюдения над чувством прекрасного и возвышенного. Соч. в 6 т-х, т.5. М., 1990, с.772.

olmaydi. Chunki ular go‘zallikning hodisalaridir, uning mohiyati esa mazkur unsurlarning ezgulik bilan bog‘liqligida, Ya’ni ularning axloqiyligi yoki, juda bo‘lmaganda axloqiylikka zid emasliklarida. Zotan go‘zallik faqat axloqiy fazilat hisoblanishi muhabbat tufayli va faqat muhabbat vosita namoyon bo‘ladi. shunday qilib, go‘zallikning asosida muhabbat yotadi. Nimagaki muhabbat bilan qarasangiz, siz uchun o‘sha-go‘zal muhabbat esa, birinchidan-erkinlik, ikkinchidan-beg‘arazlilik, uchinchidan-xususiy tabiatiga esa. Go‘zallik ham xuddi shunday. Demak, muayyan go‘zallikni inson o‘zini yoki boshqanimi – baribir, majburlash orqali tan oldirishning iloji yo‘q; unga manfaat yuzasidan, xudbinlarcha yondashish mumkin emas; siz uchun go‘zal bo‘lgan narsa-hodisani boshqalarga ham albatta yoqadi deb hisoblashingiz noto‘g‘ri.

Mumtoz falsafaning zabardast mutafakkiri I.Kantning boshqalardan farq qiluvchi falsafiy tizimi tabiat olami (shafqatsizlik va yovuzlik) va erkinlik (madaniyat va ma’naviyat) olamlari o‘rtasidagi “uchinchi olam” – go‘zallik olamini kashf qilganligi bilan xarakterlanadi. Estetika muammolari Kant tomonidan o‘zining “Mulohaza qilish qobiliyati tanqidi” nomli asarida mantiqiy izchillik asosida ko‘rib chiqilgan.

Shuningdek, Kant go‘zallik va ulug‘vorlikni alohida o‘rganib chiqadi. U avval go‘zallik va ulug‘vorlikning umumiy jihatlarini ochadi. Go‘zallik kabi ulug‘vorlik ham hissiy zavq asosida emas, mantiqiy mulohaza asosida ham emas, balki refleksiv mulohaza asosida belgilanadi. Shuning uchun go‘zallik va ulug‘vorlikdan zavqlanish yoqimli hissiyot yoki ma’lum tuShunchalar bilan bog‘liq emas. Ammo ob’ekt jihatidan, ularni idrok qilish mexanizmi, bu ob’ektlar keltirib chiqaruvchi hissiyotlar jihatidan go‘zallik va ulug‘vorlik farqlanadi. Go‘zallik tabiatda predmet shakli bilan bog‘liq, ulug‘vorlik esa – shaklsizlik va chegarasizlik bilan. Go‘zallik qabul qilinishi (his qilinishi) tasavvur va idrok bilan bog‘liq, ulug‘vorlik esa aql yordamida bilinadi¹.

¹ Базарова Ф. Кант эстетикасининг табиий-илмий хусусиятлари.// faylasuf.uz/ murojat sanasi 16.04.2016

Go‘zallikni idrok qilish bilishning oliy qobiliyatlarini uyg‘otadi, “bunda xuddi hayotiy faollik oshgandek tuyuladi”; ulug‘vorlikni idrok qilish esa teskarisiga, tabiat mavjudodi sifatidagi inson hayotiy faolligining pasayishi (bo‘shashib ketish)ga olib keladi, ammo Shunda ma’naviy hissiyotlarini uyg‘otib tasavvur faoliyatini stimullashtiradi. Bizga ma’lumki, go‘zallik sifatni baholash bilan bog‘liq, ulug‘vorlik esa miqdorni. Tabiatdagi go‘zallik asosini o‘zimizdan tashqari izlaymiz, ulug‘vorlik esa o‘zimizdan va fikrlarimiz obrazlaridan kelib chiqadi, ular tabiat haqidagi tasavvurimizga ulug‘vorlik olib kiradi. Bundan esa tabiat hodisalarini bilish ro‘y bermasa-da, go‘zalligini idrok qilish ro‘y beradi va u haqidagi tuShunchamizni boyitadi. Chunki tabiatni estetik idrok qilish sub’ektiv maqsadga muvofiqlik tamoyiliga asoslanadi (Ya’ni, bilish qobiliyatlarning o‘yinini keltirib chiqarish), va insonni tabiatning ob’ektiv maqsadga muvofiqlik imkoniyatlari haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Kant fikricha, tabiatning mustaqil go‘zalligi haqiqatdan ham bizning tabiatning go‘zal hodisalari haqidagi tuShunchamizni boyitadi. Tabiatdagi ulug‘vorlik tabiatni tuShunishga olib kelmaydi, insonga ta’sir qilib, insonning o‘zida bo‘lgan, tabiatga bog‘liq bo‘lmagan maqsadga muvofiqlikni namoyon qiladi.

Kant ulug‘vorlikning ikki xil turini alohida ajratadi: matematik ulug‘vorlik va dinamik ulug‘vorlik. Birinchi turi ob’ekt kattaligi bilan belgilansa, Ya’ni bizning tasavvurimizni cheksizlikka etaklasa, ikkinchisi, tabiatning tahdidli kuchlari misolida sifatlanadi (dengizning qattiq to‘lqinlanishi, momoqaldiroq, chaqmoq, harakatdagi vulqon va boshqalar Shular jumlasidandir). Bunday tabiat hodisalarini inson havfsiz joydan turib mushohada qilganida, o‘z ruhiy kuchining oshib borayotganligini his qiladi va mushohada jarayonidan, o‘zidan “qarshilik layoqatini” his qilganidan zavqlanadi. Mushohada qiluvchi inson “tabiat oldida o‘z vazifasining ulug‘vorligini his qila boshlaydi”¹.

¹ Базарова Ф. Кант эстетикасининг табиий-илмий хусусиятлари.// faylasuf.uz/ murojat sanasi 16.04.2016

shunday qilib, Kant go‘zallikdan farqli, ulug‘vorlikni insonning ichki dunyosiga taaluqli, deydi. Zero, inson idrok va tasavvur layoqatiga tenglashtirib bo‘lmas ob’ektlarni mushohada qilishda qalbiga kuchli emotsional turtki berilganligini his qiladi.

Go‘zallik narsa-hodisa yoki voqelikning ko‘rishigina emas, ayni paytda muayyan dunyoqarashga asoslangan insonning nigohi hamdir, boshqacha qilib aytganda, u ikki olamning – insoniy ruh va tashqi muhit ixtiyoriyning uchraShuvidan, tug‘iladigan ma’naviy hodisadir. Shu sababli Shiller aytganidek erkinlikka yo‘l go‘zallik orqali o‘tadi. Go‘zallikning mavjud bo‘lish doirasi «Alloh go‘zal va u go‘zallikni sevadi», degan hadis so‘zlarida o‘z aksini topgan: YAratgan - mutloq go‘zal, zot, demak, yaratilganlar, nisbiy esa-da go‘zal bo‘lishi lozim. Shu bois go‘zallik, umuman olganda, avvalo tabiatda mavjud, bunda ikki xil tabiat nazarda tutiladi – olamiy tabiat va odamiy tabiat. Olamiy tabiat, bu – gullar, qiyg‘os gullagan daraxtlar, lolazor, suvga egilgan majnuntol, dumini yoygan tovu, tunda bulbulning sayrash v.h. Odamiy tabiat esa o‘z navbatida ikkiga – ichki va tashqi tabiatga bo‘linadi: ichkisi-Yuqorida aytilgan xulqiy go‘zallik bo‘lsa, tashqi odamiy tabiat – insoniylashgan muhit, insoniy ruh ko‘chib o‘tgan jamiyatdagi go‘zallik.

Xunuklikka esa, aytganimizdek, u go‘zallikning ziddi. Qadimgi donishmandlar go‘zallikni komillik bilan, xunuklikni nuqson bilan bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Xunuklik kayfiyatni buzadi, kishida ob’ekt haqida yoqimsiz tassurot qoldiradi, muhabbat tuyg‘usini emas, aksincha hazar, ba’zan esa jirkanish hissini uyg‘otadi. Go‘zallik va xunuklikni ikki alohida dunyo emas, balki bir dunyoning ikki qutbi sifatida olib qarash lozim; aytib o‘tganimizdek, go‘zallik bor ekan, go‘zallik mavjud, ular doimo bir-biri bilan dialektik munosabatda. Bunday munosabatni biz, ayniqsa, ularning bir-biriga o‘tib turishida ko‘rishimiz mumkin. YOsh, yuzlari tiniq, qaddi qomati adl – go‘zal qizning yillar o‘tib, qari, hamma yog‘ini ajin bosgan bukchaygan, kasalmand kampir bo‘lib qolishi yoki bahorda qiyg‘os gullagan o‘rikning qishda tikanga o‘xshab tikkaygan shoxlari bir-biriga

chirmashib ketgan yalang'och daraxtga aylanishi buning yorqin misolidir. Xunuklik ham ko'p hollarda xuddi shunday evrilishni boshdan kechiradi. Masalan, mahalla chetida axlatxona bo'lib yotgan tashlandiq er-xunuk, uni gulzorga aylantirilsa – go'zallik kasb etadi yoki shaynaning zarg'aldoqning isish polaponi – xunuk, voyaga etgach esa u rangdor, go'zal sifatida ko'zni quvontiradi.

Go'zallik va xunuklik dialektikaining san'atda namoyon bo'lishi alohida e'tiborga molik. Zero san'atning asosiy vazifasi haqiqat va ezgulikka yo'naltirilgan go'zallikni tasvirlashdan iboratdir; go'zalliksiz san'atning mavjudligi mumkin emas, san'atda xunuklik ham go'zal tasvirlanadi va go'zallikka aylanib ketadi.

shunday qilib, insondagi, jamiyatdagi hamda tabiatdagi go'zallik bilan xunuklik hech qachon mutlaq bo'la olmaydi, doimo nisbiylik va muvaqqatlik tabiatiga egadir. Ularning o'zaro dialektik aloqadorligi, bir – biriga o'tib turishi ana Shundan. Yuqoridagi tahlillar quyidagi xulosalarga o'tamiz:

birinchidan, go'zallik – bu asosiy estetik qadriyat bo'lib, uni idrok etish qobiliyati esa estetik sub'ektning asosiy xossasidir. Bu xususiyat estetik ong va uning asosiy qismlariga ham taalluqlidir;

ikkinchidan, qadimgi davr mutafakkirlarining ijodida go'zallik muayyan mezon – o'lchov ko'rinishdagina namoyon bo'ladi. Ularning fikricha, go'zallik sifatiga nafaqat tabiat hodisalari, balki adolat, mardlik, sahovat, donishmandlik kabi yaxshi insoniy fazilatlar ham kiradi;

uchinchidan, go'zallik xilma-xil darajada namoyon bo'ladi. Tabiatdagi go'zallik ijtimoiy hayot go'zalligidan, foydali-amaliy faoliyatdagi go'zallik badiiy ijoddagi go'zallikdan farq qiladi. Lekin barchasi qandaydir umumiy belgiga egadir;

to'rtinchidan, voqea-hodisalarning umumiy belgilarini go'zallik tushunchasi bilan ifodalaymiz. Go'zallik tushunchasi estetikaning boshqa kategoriyalari bilan dialektik bog'liqda bo'lib, mezon, me'yor buzilish oqibatida teskari ta'sirga uchiradi. Shuncha ahamiyat kasb etadi. Go'zal narsalar inson amaliy faoliyatiga, manfaatlariga mos bo'lib, ularni idrok etish hayrat va quvonch bag'ishlaydi, shaxsning uyg'un hamohang rivojlanishiga, unda eng yaxshi insoniy xislat-fazilatlar tarkib topishga ko'maklashadi.

II.2. San'atda go'zallik mezonlari talqini

XXI-asr bo'sag'asida bashariyat xalqaro miqyosda adolatli tarzda integratsiya makonini yaratishga kirishdi. Jahonning eng taraqqiy topgan mamlakatlari bilan yaqindan aloqa o'rnatish, etakchi, xalqaro iqtisodiy, moliyaviy hamda insonparvarlik tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish davlatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalaShuv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov "Jahon yangi davrga kirdi. Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning, hamkorlikning yuksalib borishi ushbu davrning o'ziga xos xususiyatidir. Lo'nda qilib aytganda, keng qamrovli integratsiya hozirgi kunda olamShumul jarayon bo'lib, har bir xalqning porloq istiqboli va umuminsoniy sivilizatsiya yo'lidagi barcha kuch-harakatlarni birlashtirishga: har bir davlatning imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanishga ko'maklashadi"¹, - deya ta'kidlagan edi.

Har qanday umuminsoniy madaniyatning ildizi milliy madaniyatlardan ozuqa olmas ekan, uning rivojlanishi gumondir. Milliy madaniyatlar ham umuminsoniy madaniyatning muhim qirralarini o'zida aks ettira olmasa, o'z ahamiyatini yo'qotishi muqarrar. Xullas, bugungi zamonaviy o'zbek kiyimlarida ham an'anaviylik bilan bir qatorda umuminsoniy jihatlarning ham singib borishi kiyinish madaniyatining rivojiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizdagi YUNESKOning ruyxatida faqatgina tarixiy, madaniy, arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan obektlar soni 4000 dan oshadi. Ulardan 545 tasi me'moriy, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi san'at, 550 tasi arxeologik obidalardir. Turizm obetlari Xivada – 310 ta obekt, Buxoroda – 221 ta obekt, Toshkent shahrida – 144 ta, Samarqandda – 118 ta, Jizzax viloyatida – 372 ta obekt bor.

Qadimdan amaliy bezak san'atining estetik belgilarida rang omili alohida o'rin egallagan. Chunki, ba'zan buYumlarning ranglariga qarab ham ular qaysi xalqniki ekanini aytish mumkin. Ranglar odamlarga kuchli xissiyotlar

¹ Каримов.И.А. Ўзбекистон: Миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент, Ўзбекистон. 1996, 264-265 бетлар.

bag'ishlaydi. Ayniqsa, bayram va to'y marosimlari uchun ishlab chiqarilgan buYumlarda yorqin ranglar ustuvorlik qiladi. Lekin kundalik hayotda bunday yorqinlik va o'ta ta'sirchan ranglar doim ham muvofiq kelavermaydi, aksincha bu holat odamlarning ruxiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun bayramona kiyim va idishlar uchun alohida, kundalik iste'mol mollari uchun alohida ranglar ishlatiladi.

Xalq amaliy bezak san'atining boshqa san'at turlaridan farq qiluvchi muhim xususiyati Shundaki, u o'zida hayotni aks ettirishi bilan birga, uning ajralmas qismini ham tashkil qiladi. Bunda buYum-narsaning vazifasi - uning shakli bezagi, materiali, rangini belgilab, uning badiiy va estetik jihatdan ta'sirchanligini oshiradi. Biroq, tuShunchamizdagi dizaynning manbaini xalq amaliy san'ati namunalari hamda muayyan millatgagina tegishli ob'ektlar tashkil etadi. Bunday milliy dizayn namunalari eksport qilinmaydigan, faqatgina Shu millatning mentaliteti, geografik iqlim sharoiti, turmush tarziga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan buYum va jihozlar, urf-odat hamda an'analari bilan chambarchas bog'liq moddiy ne'matlar madaniy meros sifatida misol bo'la oladi. Masalan, o'zbek millatiga xos tandir, beshik, tahmon, tokcha, sandal kabi xonadon buYumlari, to'n, cho'pon, do'ppi, mursak, yaktak, belbog', nimcha singari kiyim-boshlar milliy dizayn tarixining ko'p qirraliligidan dalolat beradi.

San'at ijtimoiy ong shakli bo'lishi bilan birga, ayni paytda, ham ijtimoiy hayotning mustaqil sohasi, ham inson faoliyatining badiiy bo'lmagan sohalari bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy-estetik hodisadir. Bugungi kun badiiy madaniyatida san'at va boshqa sohalar o'rtasidagi chegaralar tobora emirilib, fan-texnika bilan uzviy aloqadorlik yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu jarayonni tashkil etishda inson badiiy tafakkurining alohida o'рни bor. Chunki, badiiy tafakkur yaratgan dunyo san'at dunyosidir. Ilm faqat inson aqliga murojaat qilsa, haqiqiy san'at asari insonning ham aqli, ham tuyg'ularini junbushga keltiradi. Shu sababdan, san'atning ilmdan qamrovi kengroqdir. San'atkor faylasuf singari voqelikni ilmiy izohlashga urinmaydi, balki uning muayyan talqinini yaratib, uni

o'zgalarga beixtiyor yuqtirish yo'lidan boradi. San'atning ta'sir kuchi undagi timsoliy tafakkur qudratidandir.

Yurtboshimiz Islom Karimov insonning ruhiy kamolotga erishishi san'atsiz amalga oshmasligini, bu maqsadga musiqa va milliy musiqiy merosimiz orqali erishish mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga qo'shiqchilik va estrada san'atidagi axloqiy jihatdan noma'qul, milliy qadriyat va qarashlarimizga yot bo'lgan ayrim ko'rinishlarni „yuqumli kasallik deb qabul qilish“ lozimligini uqtiradi va bunday hurujlarning o'ta xavfli holat ekanini anglashimiz zarurligini ko'rsatib o'tadi. „Nega deganda, agar insonning qulog'i engil-elpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta guShunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam „SHashmaqom“ singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi“¹.

San'at ratsionalizm, ilmiy bilish tamoyillari ustuvorligiga asoslangan hozirgi axborot texnologiya davrida tom ma'nodagi ma'naviyat fenomeni vazifasini o'tash imkoniyatiga ega bo'lgan ijtimoiy ong shaklidir. Hozirgi davrda insoniyatning iste'molchilik ehtiyojini qondirish vositasiga aylanib borayotgan fan-texnika taraqqiyotining ta'siri o'laroq ma'naviy inqirozning global miqyosida keskinlashib borishi mazkur mavqega ega ijtimoiy ong shakli san'atgacha bo'lgan ehtiyojni dolzarb qilib qo'yimoqda².

„Go'zallik g'oyadan iborat va g'oya tarzida anglanmog'i lozim“ — deya uqtirgan olmon mumtoz faylasufi Georg Fridrix Gegel tabiatdagi go'zallikka nisbatan san'atdagi go'zallikning ustuvor ekanligini ta'kidlaydi u mutlaq g'oya o'zlikni anglashning Yuksak shakli bo'lgan san'atdagina go'zallik sifatida namoyon bo'ladi, degan edi. Chunki, san'at nafaqat voqelikni badiiy qiyofalar orqali aks ettiradi, balki voqelikdan-da Yuksak bo'lgan hodisa hisoblanadi. Barcha hodisalarni

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008, й. 143-бет

² Olloyorov M. Olloyorova M. San'at – ma'naviyatning tarkibiy qismi. Risola/ Samarqand. 2013, 49-bet.

moddiy asosdan tozalashga qodir bo'lganligi uchun ham san'at go'zallikni yarata oladi. Tabiatdagi go'zallikka munosabat bildirib, Gegel tabiatdagi go'zallikni san'atdagi go'zallikka nisbatan quyi bosqichda turishini ta'kidlaydi. Sababi, san'atning yaratuvchisi bo'lgan insonda ilohiy asos - ruh bor, u yaratgan san'at asariga o'sha ruh o'tadi. Tabiatdagi go'zallikdan san'atdagi go'zallikning ustuvorligi ham ana shunda. Bu bilan faylasuf go'zallik mohiyatan ilohiylik kasb etuvchi hodisa ekanligini, san'at mohiyatan ma'naviy hodisa ekanligini e'tirof etgan edi¹.

San'at qonuniyatlarini estetika, san'atshunoslik fani o'rganadi. San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan. Masalan, ba'zi san'atkor va san'atshunoslarni "tabiatning taqlidi" yoki "voqelikning aks ettirilishi" deb hisoblasa, boshqalari "San'atkorning sof shaxsiy ijodiy mahsuli", "o'z-o'zini izhor etish" sifatida talqin etadi. Bu san'at predmetining murakkabligi, uning xususiyatlari va shakllari, mujassamlashtirishning usullarining xilma-xilligi hamda turli davrlarda san'at nazariyotchilarining sinfiy va g'oyaviy fikrlari o'rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi. San'atda go'zallik kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetika fani-go'zallik san'atning zarur sharti ekanligini, go'zalliksiz san'atning yo'qligi va bo'lishi mumkin ham emasligini uqtiradi. San'atda mazmun va shaklni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. San'atning o'ziga xos xususiyati uning voqelikni ilg'or g'oyaviy nazardan badiiy obrazlar orqali aks ettirishdir. Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida san'at alohida o'rin tutadi. Chunki san'at yuksak ijtimoiy g'oyalarni targ'ib etuvchi, inson ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovchi vositalardan zarur bo'lgan o'zaro muloqotlar vositasi sifatida turli qit'alar va davlatlarni o'zaro bog'laydi.

¹ Каранг: Г. Гегель. Эстетика. В 4 х-т. — Москва: Искусство, 1971. Т.3. Стр. 312.

Zotan, inson san'atdan estetik zavq, bitmas-tuganmas ijodiy kuch-qudrat oladi va Shu ma'noda san'at ma'naviy yuksalishning eng ta'sirchan quroliga aylanadi.

Darhaqiqat, san'at voqelikni yaxlit uyg'unlikda idrok etib, insonga aql, tafakkur, tuyg'u, his-hayajon vositasida ta'sir etadi. Bunda turli obrazlar, ramzlar, timsollar, belgilar, ishora, o'xshatish va mubolag'alardan foydalanadi. Agar ilmiy tilni faqat mutaxassislargina tuShunsa, badiiy ijod mahsuli bo'lmish san'at asarlarini ko'pchilik anglaydi. Shu ma'noda san'at va falsafaning predmeti deyarli bir xil. Biroq, g'oya falsafada sof holda namoyon bo'lsa, san'atda u obrazlar orqali aks etadi. Bu g'oyani san'atkor hayotga ijodiy yondashishi bilan tuyg'ulari vositasida tasvirlaydi.

San'at va falsafaning o'zaro aloqadorligi, ularning bir-biridan farqi haqida olmon faylasufi A.SHopengauer "Olam ixtiyor va tasavvur sifatida" deb nomlangan yirik asarida fikrlar bayon etadi. Jumladan, faylasuf san'at bilan fanni bir-biriga solishtirar ekan, san'atni narsalarning asoslanish qonunidan mustaqil tarzda "mushohada qilish turi", deb ataydi. Estetik mushohada ob'ekti alohida narsa emas, balki asoslanish qonuni harakati ostidan olingan g'oya afltuncha ma'nodagi g'oya. Uni aql bilan emas, fahm (intuitsiya) yordamida payqash mumkin. San'atning fandan ustunligi ham ana Shunda. Shu ma'noda SHopengauer «g'oya»ni «tuShuncha»ga qarshi qo'yadi. TuShuncha fanga zarur, san'at uchun esa befoyda. San'atning maqsadi-g'oyani in'ikos ettirish. San'at turlarining farqi esa ulardagi ifoda materiali bilan belgilanadi. «San'atning mohiyati Shundaki, - deydi SHopengauer, - unda bir hodisa minglab hodisa uchun javobgar», u muhim voqea-hodisani olib, nomuhimini tashlab yuboradi. Obraz-mushohadali g'oya, u tuShunchadan farqli tarzda, son-sanoqsiz alohida narsalarning o'rnini mantiqiylik hamda mavhumiy umumiylik vositasida emas, balki fahmiy (intuitiv) idrok va tasavvur yo'li bilan egallaydi. Bu borada Geggelni fikri boshqacha. Geggel san'atning maqsadini uning ana Shu qayd etilgan predmeti bo'yicha belgilaydi: "axloqiy o'zgartirish san'atning provard maqsadi sifatida bir qadar oliy nuqtai

nazar sanaladi.... San'at haqiqatni faqat hissiy shaklda yoritadi, murosa topgan ziddiyatlarni tasvirlaydi, zero, uning provard maqsadi voqelikni ana shunday tasvirlash va yoritishdan iborat, demak, bu maqsad yolg'iz uning o'zida mavjuddir"¹.

Prezident Islom Karimov inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanishi, u insonning etuk shaxs va malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani hayotiy misollar orqali isbotlab berilgan. Jumladan, birgina televidenie va radio bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarishi atroflicha tahlil qilib o'tilgan.

Shuningdek, yosh avlodning estetik dunyosini aks ettirishda, uni ilg'or g'oyalar bilan boyitishda san'at qudratli kuch sanaladi. San'at nafaqat go'zallikni, balki jamiyatdagi va insoniy munosabatlardagi jamiki ikir-chikirlarni badiiy qiyofalar orqali aks ettirishga harakat qiladi. Bir so'z bilan aytganda san'at insonga eng yaqin va ayni paytda undan ajralmaydigan hodisadir.

SHaxsning estetik tarbiyasini san'at vositasida amalga oshirishning ahamiyatli jihatlarini ikki xususiyat bilan ifodalash mumkin. *Birinchidan*, san'at ijtimoiy anglashning boshqa shakllariga qaraganda insonga birmuncha yaqinroq hamda tezroq ta'sir ko'rsata olish imkoniga ega. *Ikkinchidan*, san'at insonni estetik jihatdan kamolotga etkazish jarayoniga muayyan mafkuraviy mazmun bag'ishlashi bilan birga inson ma'naviy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishda yaqindan yordam ko'rsatadi.

San'at o'zining estetik bisotini to'la namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi. Chunonchi, inson tafakkurini go'zallashtirish estetikaning bosh maqsadi hisoblansa, estetik tarbiyaning predmeti ma'naviy dunyoni inson tomonidan estetik anglash bilan belgilanadi. San'at

¹ Гегель Г.В. Санъатнинг мақсади. Маҳмуд Абдуллаев таржимаси.// "Шарқ юлдузи" журналі, №2, 2011, 126-бет

mohiyatan insonning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan ma'naviy hodisa hisoblanadi. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan.

Inson nafis narsalardan zavqlanishi, go'zallik va ulug'vorlikni xis etishi, fojeaviylikdan qayg'urishi, kulgulilikdan quvonishi bilan ham oliy mavjudotdir. CHinakam san'at ana shunday estetik munosabatni ro'yobga chiqaruvchi ma'naviy vosita sanaladi. San'atni „bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir“, — deb ta'kidlagan ma'rifatparvar alloma Abdurauf Fitrat san'at va uning insonga ko'rsatajak ta'siri to'g'risida mulohaza yuritib, shunday degan edi: „Buyuk bir shodlik ko'rgan kishi o'zining shod tuyg'ularini boshqalarga bildirib, shodligini orttiradir. Ulug' bir qayg'uga uchragan esa, o'z dardini boshqalarg'a o'tkarib, o'zini ovuntirgan bo'ladir. Miyasi yuksalmagan bolalar, san'atdan xabarsiz kishilar shodli-qayg'uli tuyg'ularini sakrab, o'ynab, kulib, yig'lab, talpinib jonlantiradilar, ochiqqa chiqarib boshqalarg'a anglatadilar-da, Shu yo'l bilan ovuntirilgan bo'ladilar, san'at egalari esa turli tovar (material)lar yordami bilan o'zlarining tuyg'ularini jonlantirib maydonga chiqaradir. Shu yo'lda boshqalarni o'z tuyg'ulari bilan tuyg'ulantirishga tirishadir“¹.

Bugungi kun esa insonlardan maqsadlar, tuyg'ular, ishlar va fikrlar uyg'unligini hamda olamning go'zalligi bilan birga uning murakkabliklarini engib o'tishni talab qilmoqda. Bu jarayonlarni barqarorlashtirish va maqsadli yo'naltirishda san'at asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Agar inson o'zining his-tuyg'ularini maqsadli, ijobiy tomonga yo'naltira olgan bo'lsa, uning kelajakdagi xayrli ishlarini o'zining maqsadiga muvofiqlashishini ta'minlagan bo'ladi. Aksincha, tuyg'ulari xali shakllanib ulgurmagan, estetik didi risoladagidek bo'lmagan odam hayotiy qiyinchilik va tashvishlar qarshisida ojizlik qiladi va natijada yot g'oyalar ta'siriga tushib qoladi. Ana shunday salbiy holatlarning paydo bo'lmasligi uchun ham san'at o'zini tobora insonga yaqinlashtirib boradi. Zero,

¹ Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Т., «Ўқитувчи», 1995

chinakam san'at insonni bu holatdan qutqara oladi, uni ma'naviy tahdidlardan himoyalaydi, qalbini forig'laydi.

San'at nafaqat go'zallikni, balki jamiyatdagi va insoniy munosabatlardagi jamiki ikir-chikirlarni badiiy qiyofalar orqali aks ettirishga harakat qiladi. Bir so'z bilan aytganda san'at insonga eng yaqin va ayni paytda undan ajralmaydigan hodisadir.

SHaxsning estetik tarbiyasini san'at vositasida amalga oshirishning ahamiyatli jihatlarini ikki xususiyat bilan ifodalash mumkin. *Birinchidan*, san'at ijtimoiy anglashning boshqa shakllariga qaraganda insonga birmuncha yaqinroq hamda tezroq ta'sir ko'rsata olish imkoniga ega. *Ikkinchidan*, san'at insonni estetik jihatdan kamolotga etkazish jarayoniga muayyan mafkuraviy mazmun bag'ishlashi bilan birga inson ma'naviy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishda yaqindan yordam ko'rsatadi.

Ma'lumki, san'at borliqni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olib tasvirlamaydi, aksincha uni badiiy qiyofalar vositasida ifodalaydi. Shunga ko'ra, san'at asari insonni faqat voqelikdagi go'zalliklar bilan cheklanmaslikka, ayni paytda mavjud go'zalliklarni ongli tarzda mushohada qilishga, baholashga undaydi. Rassomlik san'ati go'zallikni bizga Shu tariqa namoyon etadi. Bu borada Ro'zi CHorievning „Bolalik xotiralari“, „Zamondoshlarim“ portretlar turkumi, „Farg'ona vodiysi“ kabi rangtasvir asarlari fikrimizning yorqin ifodasidir.

Etuk rassomlar hayotning barcha hodisalarini rangtasvir orqali ko'radi, ularga ijod manbai sifatida qaraydi, san'atning hamma uchun zarur ekanligiga qat'iy ishonadi. Shu bois ularning asarlaridagi go'zallik ruhi insonlarni rangtasvirni sevishga da'vat etadi, tasviriy san'atni his qilish va uni idrok etishga chaqiradi. Bunday xususiyatlar O'rol Tansiqboev, Chingiz Ahmarov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, AliSher Mirzaev, Abdulhaq Abdullaev kabi atoqli rassomlar hamda Akmal Nuriddinov, Sergey Alibekov, Ortiqali Qozoqov singari musavvirlarning realistik yo'nalishdagi asarlarida o'z aksini topgan. Ularning asarlarida go'zallik nafaqat rassomning shaxsiy ideali, balki o'zida xalq hayotining muhim bo'lagini

mujassam etganligi, insonlarning tafakkuri va qalbiga ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi. Go'zallikni yaratishda rassomning zimmasiga yuklanadigan mas'uliyat Yuksakligi va muqaddasligi ham ana Shunda. Bu xususda estetik olim Tilab Mahmudov shunday deydi: „Qachonki san'at asarlari muhim hayotiy muammolarni aks ettirsa yoki xalq kayfiyati va g'oyalarini ifodalasa, ular millionlab mehnatkashlarning ezgu hamrohiga aylanadi. Bunday asarlar hech qachon xalqdan, amaliyotdan ajralgan emas. Rassomning millat hayoti bilan aloqasigina yangi va asl san'at asarlarining paydo bo'lishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi“.¹

Har qanday ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy hodisa davrlar o'tishi bilan takrorlanadi. Ammo, bu takrorlanishlar avvalgilari bilan bir xil bo'lmaydi, u muayyan yangi liklar, yangi cha munosabatlar orqali rivojlanib boradi. Insonning tarixiy tafakkuri o'zlikni anglashga qaratilgan muayyan jarayonlar orqali belgilanib, zaruriylik nuqtai-nazaridan olam tajribalarini o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Inson tomonidan qadriyatlardagi go'zallikni o'zlashtirish, idrok etish ana shunday tajribalar sirasiga kiradi. Zotan, inson hayotini, yashash tarzini, faoliyatini belgilash vazifasini o'z zimmasiga olgan *integratsiya* jarayonlarida bu masalaning ijobiy hal etilishi g'oyatda zarur.

Har bir haqiqiy san'at asarida albatta, biror-bir falsafiy muammo ko'tariladi. Biroq, falsafiy muammolar san'at asarlarida muayyan badiiy qiyofalar, badiiy ideallar, badiiy ramzlar orqali ifodalanadi. Shu bois estetik idrok etish jarayonida ko'tarilgan muammoning mohiyatini hamma ham darhol tuShunib olishi qiyin. Ayniqsa, Turkiston ma'rifatchi jadidlarining etuk namoyondasi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning «Go'zal» nomli she'ri ana shunday noziklik bilan yaratilgan badiiy ijod namunasi.

She'rda go'zallik o'ziga xos tarzda «bo'rttiriladi». Unda talaygina ma'joziy qiyofalar mavjud: shoirning „suyuklisi“ yor, qiz bola emas, balki Vatan shaklidagi go'zallikdir. „Men suyub...men suyub...kimni suyubmen?“ satridagi uch nuqta ham

¹ Махмудов Т. Эстетика и духовные ценности. — Т.: Главная редакция издательско-полиграфического концернa „Шарк“. 1993. — 174 с.

katta ahamiyatga ega. Ular shoirning suyaklisi tamomila boshqa narsa, hozirgi sharoitda, Ya'ni she'r yozilayotgan sharoitda ochiq aytib bo'lmaydigan go'zallikdir. U „go'zal“ — go'zal Turkistondir. Bu she'rda Vatan go'zalligi bilan unga oshiq bo'lgan farzandning ichki go'zalligi omuhtalashib ketadi. Ana Shu uyg'unlaShuv natijasida she'rning tashqi, shakliy go'zalligi ham Yuksak darajaga ko'tariladi. „Suyubmen“, „kuyubmen“, „yonibmen“ so'zlaridagi egalik qo'shimchasi „man“ shaklida emas, aynan „men“ shaklida berilishi Vatanga oshiq farzandning ijtimoiy-estetik mohiyatini ta'kidlab turadi. Ko'z oldimizda Vatan uchun, go'zal Turkiston uchun, qolaversa, uning go'zalligi uchun lozim bo'lganda jonini baxsh eta oladigan vatanparvar, mard inson qiyofasi gavdalanadi:

Men yo 'qsil na bo 'lub uni suyubmen ?!
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen,
Boshimni zo 'r ishga berib qo 'yubmen,
Men suyub... men suyub... kimni suyubmen?
Men suygan „suyukli“ Shunchalar go 'zal,
Oydan-da go 'zaldir, kundan-da go 'zal !!!¹

Mazkur she'r orqali biz, san'at asarida go'zallik madh etilar ekan, o'sha asarning faqat mazmuni emas, balki shakli ham go'zal bo'lishi kerak degan estetik aqidani haqiqat ekanligining amaldagi isbotini ko'ramiz. Zero, Sofoklning „Qirol Lir“, Navoiyning „Farhod va SHirin“, SHekspirning „Otello“, A.Qodiriyning „O'tkan kunlar“, Gyotening „Faust“ singari asarlari ana shunday go'zallik mahsullaridir.

Biz Yuqorida jamiyat hayotiga go'zallikning ta'sirini san'atning muayyan turlari orqali ifodalashga harakat qildik. Biroq, san'atda go'zallik ma'naviy qadriyatlar orqali aks etishi bilan birga talaygina estetik xususiyatlarni ham qamrab oladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, san'atda sog'lom ruhiyat va hayot haqidagi tasavvurlarni

¹ Чўлпон. Асарлар. 3 жилдлик // О. Шарофиддинов таҳрири остида. — Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. 1- жилд. — 448 б.

vujudga keltirish; *ikkinchidan*, real hayot haqiqatini in'ikos ettirish; *uchinchidan*, jonli insoniy tafakkur va dunyoqarash manbaini yaratish; *to'rtinchidan*, asarga ongli dunyoqarashga asoslangan ijod erkinligini, mustaqil fikrlash hamda zamon bilan hamnafaslik ruhini singdirish; *beshinchidan*, yangi lanayotgan hayot jarayonlariga yaqinlashish va uning ilg'or tomonlarini yoritish, ularni mazmunan boyitish; *oltinchidan*, yangi cha uslub va badiiy usullardan foydalanish, san'at asarida shakliy go'zallikka erishish.

Ma'lumki, har bir millat, har bir xalqning e'tiborga molik tomonlari bo'ladi. Go'zallikni idrok etishi, undan zavqlanishi, badiiy tafakkur qobiliyatining qandayligiga qarab ham millatga baho beriladi. shunday xolatlar bo'ladiki, o'zga millat vakilining go'zallikdan zavq olish saviyasi ikkinchi bir millat estetik idealiga mos kelmaydi. Bu xolat gohida ijobiy, gohida esa estetik idrok ko'lamini toraytirib, milliy o'ziga xoslik haqida noto'g'ri tasavvurlarni paydo qilishga olib keladi. Bu ayniqsa, san'atga bo'lgan munosabatda ko'proq ko'zga tashlanadi. Biroq, har ikki xolatda ham qiyoslash, birining ilg'or qadriyatlarini ikkinchisi tomonidan ongli tarzda o'zlashtirish, o'zidagi kamchiliklarni bartaraf qilish jamiyat hayotida go'zallikning ravnaq topishiga ko'maklashadi.

Mazkur paragrafda bayon etgan fikrlarimizni go'zallikning bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar orqali izohlashga harakat qildik. Bu fikrlardan kelib chiqib Shuni aytish mumkinki, birinchidan, san'atda go'zallik ijtimoiy taraqqiyotning ma'naviy asosi, harakatlantiruvchi kuchi, maqsadi va vazifasi bo'lib xizmat qiladi; ikkinchidan, san'at milliy g'oyaning Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi asosiy g'oyalari mohiyatan ana shunday maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladi; uchinchidan, go'zallik bor joyda taraqqiyot bor, insoniy munosabatlar barkamollik asosida shakllangan muhitdagina go'zallik mavjud.

II.3. Sport – go‘zallikni namoyon etuvchi estetik vosita sifatida

Hozirgi zamon falsafa fani va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasidagi inson bilishining hissiy, emotsional turlarini o‘rganish chuqurlashib bormoqda. Xususan, sportning falsafiy, estetik, etik, sotsiologik, san’atshunos likka xos xususiyati tadqiq etilishi uning insonparvarlik, qadriyatli jihatlarini oshiradi. Mamlakatimizda sport sohasidagi muhim o‘zgarishlar etishib kelayotgan barkamol shaxslar ongida estetik, axloqiy, ijtimoiy-falsafiy asoslarni yaratib yangi tadqiqot yo‘nalishlarini rivojlantirib kelmoqda. Xususan bu borada Yurtboshimiz I.A.Karimov shunday deydi: “Barchamiz yaxshi bilamizki, hayotdagi har qanday yutuq, ayniqsa, sport olamidagi g‘alaba o‘z-o‘zidan kelmaydi. Sport maydonlarida erishiladigan yutuq – bu avvalo butun borlig‘ini safarbar etib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad yo‘lida o‘zini engib, o‘zini ayamadan, kurashib yashaydigan insonning yutug‘i, ana Shu insonni tarbiyalab voyaga etkazgan ta’lim-tarbiya maskanining, butun jamiyatimizning yutug‘idir”¹.

Bugun sport jamiyat ma’naviy hayotining ajralmas elementi hisoblanadi va o‘z navbatida ijtimoiy va madaniy sohada katta o‘rin egalab bormoqda. Ko‘p asrlar davomida madaniy va sport faoliyati bir-biri bilan uzviy bog‘liq tarzda faoliyat olib borilgan. Bu etnogarfik, tarixiy, san’atshunos lik manbalariga yaqqol ko‘zga tashlanadi. Turli xalqlar, millatlar o‘zlarining go‘zallik va kuch omillarini tarannum etish singari ijodiyotlarini sarhisob qilib Shuni aytish mumkinki, turli zamonlarda jismoniy madaniyat va sportni shaxs ongiga ta’siri haqida qarashlar mavjud bo‘lgan.

Sportning falsafiy tadqiq etilishi XX asrning 60-yillarida SHimoliy Amerikada boshlandi². Sportning falsafiy tadqiq etishning ikki jihati mavjud. Birinchisi sport jismoniy tarbiya va sog‘liqni tiklash-jismoniy faollik vositasi sifatida pedagogika, meditsina fanlari doirasida o‘z echimini topa olmagan bo‘lsa,

¹ Каримов И.А. “Баркамол авлод” спорт ўйинлари катнашчиларига табрик сўзидан// Ўзбекистон эришган ютуқ ва маррлар – биз танлаган ислохотлар йўлининг тасдиғидир. Т-22, Т.: Ўзбекистон, 2014.- 310-311-бетлар

² William J.Morgan. The Philosophy of Sport: A Historikal and Conceptual Overuiew and Conjecture Regarding its Future// Jay Coakley and Eric Dunning. Handbook of Sport Studies. London: Sage, 2003. P.205-212.

ikkinchisi sportning intellektual, emotsional, estetik va sotsiologik muammolari ko'payib ketganligidir. Endi sport haqida tadqiqotlar pedagogik jarayondan chiqib ijtimoiy-gumantitar fanlar nuqtai-nazaridan turib ilmiy o'rganila boshlandi. O'tgan asrning 70-80 yilarida sportning falsafiy-estetik jihatlarini o'rganish tufayli xorijda ilmiy jurnallar tashkil etilgan bo'lib, unda dolzarb muammolar ko'tarilganligi ilmiy jamoaga ayondir. Masalan, AQSHda "Philosophy of Sport" nomli jurnali nashr ettirilib, bir qator ilmiy maqolalar chop etilib turgan.

1906 yili «Sport va san'at» mavzusiga bag'ishlangan xalqaro olimpiya kongressida Olimpiya o'yinlari o'tkazishda san'at qaysi shakl va masshtablarda ko'rsatilishi kerak degan masala muhokama qilindi. Unda 60ga yaqin rassomlar va yozuvchilar ishtrok etgan. Per de Kubertenning fikricha, vaqtlar o'tib madaniyatni tarkibiy qismi sifatida shakllanib kelgan olimpiya o'yinlari endi estetik ijodni, ijtimoiy-siyosiy hayotning globallashtiruvchi, gamogenlashtiruvchi asos vositasini o'taydi. Ko'hna Ellada shoirlari va rassomlari ham Olimpiyada o'yinlarida bejiz kurashmaganlar. Bu sport va san'atning ajoyib uyg'unligi bilan bog'liq jarayondir. «Musika va kuy olimpiya o'yinlari dasturiga kirgan. Ular Delfiyadagi o'yinlar asosi edi. Musika va kuy, she'riyat va teatr tomoshalari sport msobaqalarining birlashganidan keyin ham Pediya o'yinlarining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolaveradi»¹.

Globallashuv davrida sport sohasida qilingan institutsional o'zgarishlar, xalqaro olimpiada o'yinlari, siklik davom etib kelayotgan millionlar o'yinlari inson tafakkurida, shakllanayotgan shaxs ongida butunlay burilish yasamoqda. SHaxs ongining ontologik jihatini tashkil etadigan "o'yin" faoliyatining o'sib chiqqan ikki jihatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bular sport va san'atdir. G.T.Gadamerning falsafiy qarashlarida sport va san'at "o'yin" tushunchasida sintezlashadi. O'yinning san'at va sportni maishiy shakli deb qaralishi aynan Shu faylasufga tegishlidir. Hozirgi kunda ham inson tafakkurida o'yin qanday rol

¹ <http://www.olimpnachalo/htm>.

o‘ynashida faylasuflar har-xil fikrdalar. Umuman olganda o‘yin ijodiy jarayonning boshlanishi sifatidagi muvofaqiyatli odimlardir.

Sport va san‘atning fenomeni sintezlaShuvi muammosi hozirgi kunda falsafiy bahs markazini egallab kelmoqda. Buning ta’sirida bir qator estetik nazariyalar, Ya’ni texnika estetikasi, sport estetikasi, mehnat estetikasi, turmush estetikasi paydo bo‘ldi. Sport va san‘at o‘xshashligi, integratsiyasi bo‘yicha bir qator mualliflar ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklar chop ettirganlar¹. Mazkur tadqiqotlar sport va san‘at sintezi, sportning ayrim turlari (masalan, badiiy gimnastika) bilan san‘atning xusiyatli jihati o‘xshashligi ta’kidlanadi yoki o‘xshashligini inkor qiladilar. Sportning tabiiy rivojlanishida inson jismoniy rivojlanishi imkoniyatlari chegarasida qo‘lga kiritilgan muvafaqiyatlar allaqachon mavjud bo‘lgan ilmiy yutuqlar, faktlar nuqtai-nazaridan kelib chiqqan. Shu sababli “badiiy til”ning sportga kirib kelishi sport rivojlanishining yangi qirrası sifatida ko‘rib chiqilib, chegarasi bo‘lmagan sport mahoratini takomillashtirib o‘stirish yo‘li bilan inson tanasi orqali ifodalash imkoniyatlaridan kelib chiqadi”².

Sport faoliyati va san‘at tabiatan o‘xshashligi estetikada ikki taqqoslanadigan rejada ko‘rib chiqiladi. Ya’ni sportchining estetik harakatlari va sport musobaqalarida tomoshabin, muxlislar tomonidan estetik uyg‘unlikni qabul qilinishida ko‘rib chiqiladi. Bu ikki holatda ham san‘atkor, artist va sportchi – muxlis o‘rtasida makon - go‘zallikni his etish deb nomlanadi. Bu borada A.Sher o‘zining “Estetika” darsligida quyidagi fikrni keltiradi: “san‘at bilan sportning yana bir o‘xshash tomoni Shundaki, har ikkisi ham biror-bir moddiy ehtiyojini qondirmaydi, bevosita maqsad emas, maqsadga muvofiq tarzida voqe’ bo‘ladi, ularning umumiy jihati mavjudligini oqlaydi asosiy narsa bu – odamlarda estetik zavq berish xususiyati”³dir.

¹ Столяров В.И. Философия спорта и телесности человека. Монография. М.: Университетская книга. 2011; Воронин Р.Е. Философско-эстетические и художественные аспекты танцевального искусства. Автореф. Дисс.кан.искус. Санкт-Петербург. 2007; А.Шер. Эстетика. Дарслик. Т.: Ўзбекистон. 2014;

² Воронин Р.Е. Философско-эстетические и художественные аспекты танцевального искусства. Автореф. Дисс.кан.искус. Санкт-Петербург. 2007, с-5

³ Шер А. Эстетика. Дарслик. Т.: Ўзбекистон. 2014.-245-бет

Teatr artisti yoki badiiy ijodkor turli bo‘lmagan voqea va hodisalarni “chiroyli aldash” yo‘li bilan tomoshabinlarga taqdim etib, ularni o‘zga muhitga olib kiradi va go‘zallik, xunuklik holatlarini his qildiradi. Sportda esa futbolchi “simulyasiya”, “fint” ishlatishi yoki raqibini aldashi muxlislarni zavqlantiradi. Shuning uchun FIFA tomonidan har yili “eng chiroyli gol”, “oltin to‘p”, “oltin butsi”, “eng halol o‘yin” nominatsiyalari e‘lon qilinadi. Aslida sport ham, san‘at ham kishilarni hayot go‘zalligiga o‘shuqta qilish, umr lahzasidan zavqlanish uchun yaratilgan faoliyat turlaridir. Lekin san‘atda iqtidorsiz inson “fonogramma” qilsa, sportda esa “doping” iste‘mol qilishi yoki “biror kishi”ni yordami bilan g‘alabaga erishish holati yuz bersa, unda har ikki holat ham estetikadagi xunuklik tushunchasi orqali ifodalanadi.

Sport faoliyatida estetik mazmunini aniqlashga va sport va san‘atni estetik unsurlar orqali taqqoslashga harakat qilganlardan biri bu D.V.Nikishindir. Uning fikricha, “sport qonun va qoidalar bilan belgilab berilgan faoliyat bo‘lib, tomoshabinga natija oldindan ma‘lum, Chunki musobaqa tomoshabin uchun bir butun mazmun – g‘alaba yoki mag‘lubiyat sifatida qabul qilinadi. Badiiy asarni his qilish xususiyati bir-butunlikni his qilish, asardagi g‘oya har parchasida mavjud bo‘lishi talab etiladi”¹.

Mazkur xulosaga ko‘ra sport biror natijaga qaratilgan bo‘lib, san‘atda natijaning hamma ham his qilavermaydi. San‘at va sport tabiatan o‘xshashligi bo‘lgani bilan ayni paytda farqli jihatlari ham mavjud. Ushbu farqni sport estetikasi bilan Shug‘ullangan B.Lou shunday ta‘riflaydi: “inson badanining – tabiiy shakldagi go‘zallik ekanini, sportchi qiyofasi ideal badan tuzilishini o‘zida mujassam etishini e‘tirof qilar ekanmiz, sportdagi go‘zallikni san‘atdan ko‘ra, tabiatga taaluqli deyishimiz mumkin, zero sportdagi go‘zallik ko‘p hollarda tasodifiylik xususiyatiga ega”².

¹ Никишин Д.В. Эстетика спортивного зрелища (на премьер футбола) // Рукописный журнал Общество ревнителей русской философии. София. – 2002. – Вып.4

² Лоу Б. Красота спорта.М.: “Радуга”М.: 1984, с-23-24.

Muallifning fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, sport estetik ko'rinishga, xususiyatga ega bo'lib, unda go'zallikni namoyon bo'lishi tasodifiy, lahzalik xususiyati mavjud. Sportni san'at sohasiga to'liq kiritish yaramaydi. Lekin inson faoliyatining ikki jabxasini birlashtirayotgan, o'zaro detirminlashtirayotgan inson ongida shakllangan "o'yin" tafakkuridir.

Sportning hozirgi kunda jadal rivojlanib kelayotgan tarmog'i badiiy gimnastikadir. Bu erda aytish mumkinki, sport va san'at talablari, baho va qadriyatlari qo'shilgan. Bu sport turiga ko'proq qizlar ishtirok etadilar. Ularni gimnastika, plastika va go'zal, uyg'un, mantiqiy harakatlari g'alaba keltiradi. Bu erda tomoshabinni musiqaga mos harakat, obrazni mavjudligi qiziqтира, hakamlar orginallik, va murakkab akrobatika, emotsionallik, individuallikni baholaydilar. Bu sport turida badiiy kompozitsiyani mavjudligi raqs san'atiga uyg'unligini ta'minlaydi. Raqslar ritmik xarakterga ega bo'lib, unda oyoq, qo'l, bosh va tana harakatlari ma'lum bir tartibga bo'y so'nadi. Qat'iy reglamentni mavjudligi sport va san'at sohalarini yaqinlashuvini ta'minlaydi. Yana bir o'xshashlik bu so'zsiz ifoda etuvchi til mavjudlidir. "Simvollar tili va tabiiy til"larning mavjudligi sportchining millatlararo, xalqaro erkin bo'lishi, alohida tarjimon kerak bo'lmasligini bildiradi. Inson tanasining ham o'z tili bor. Professional bokschi o'zini harakatda namoyon qiladi, xuddi aql mashqlariga o'xshash mustaqil o'ziga xos va sergak. Bokschi kutilmagan harakatlar qilib o'zini namoyon qiladi. Boks bu ikki tana bahsi, oliy darajadagi ikki intellektning to'qnashuvidir.

Tana nafaqat insoniy tabiatimizning muhim o'lchami, har qanday insoniy ishlarning asosiy quroli hamdir. Suqrot shunday degan: «Barcha insoniy kasbda tana kerakdir. Tana kuchi qo'llaniladigan barcha holatlarda esa organizmning yaxshi rivojlanishi muhimdir. Tana kamroq kerak bo'lgan joylarda ham, tafakkur sohasida ham jismoniy sog'lom bo'lmaganlar katta xatolarga yo'l qo'yadi»¹. Qadimgi Yunonlarda atrof olam go'zalligi haqida o'z tasavvurlari vujudga kelgan. I.S. Kon shunday nuqtai-nazarni ilgari suradi. Ayniqsa Yunonlar rivojlangan jiddiy

¹ Ксенафонт. Воспоминания о Сократе. – Кн.1. – М., 1993, 109-б

raqobatbardoshlik va musobaqali hayot inson tanasi orqali tuShunilgan. Yunon xalqi er kishisiga nafaqat ijtimoiy yutuq, jismoniy kuch, balki, tana go‘zalligi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Qadimgi Yunon madaniyatining erkak tanasi estetikasiga bo‘lgan yuqori e‘tibori ana Shundan dalolatdir. shunday, «yalang‘och inson faqat o‘z kuchi, go‘zalligi yoki ilohiyligiga ega erkak – butun tarix davomida qadimgi Yunon madaniyat va san‘atida sevimli obraz bo‘lib xizmat qilib kelgan»¹. Aynan ko‘zada tasvirlangan sahnaga yoki haykalga qarab sportchining ochiq tanasi bo‘yicha kuch qudratini bilib olamiz. Sporchilar tayyorgarlik va mashg‘ulotlar paytida ular har doim yalang‘och holatda bo‘lganlar. Jismoniy mashqlar tufayli ularning ajoyib tanalari haykaltaroshlar va rassomlar uchun g‘oyaviy obraz bo‘lib xizmat qilgan. YAlang‘och tana go‘zalligi ichki go‘zallikni aks ettiradi, tana va ong uyg‘unligini namoyish etadi, deb hisoblaganlar. Antik dunyo san‘ati ilk bor insonni tabiat mo‘jizasi sifatida madh etdi. O‘ziga xos sharoitlarda mavjud bo‘lib, unda tayanch holatdagi va sportda harakatdagi tana ajoyib holat kabi qabul qilinadi. Ular tomoshabinlarning kayfiyati, ta’lim darajasiga, sportchini qomati, harakati, chiqish ritmi shaklini baholanishiga bog‘liq.

Hamma insonlar ham go‘zallikni sezmaydilar. B..Louning “Sport go‘zalligi” deb nomlangan asarida M,Makkenzening shunday fikrlari keltirib o‘tiladi: “tana harakatda ifodalanar ekan, harakat go‘zalligi tanaga vaqt va makon ustidan hukmronlik qilishga imkon beruvchi jismoniy o‘z-o‘zini nazorat qilishda namoyon bo‘ladi”². Sport – ko‘plab atletikachilar harakatidagi kompozitsion unsurlarga boyligi tufayli rassom yoki haykaltaroshlar uchun faoliyat maydonidir. Sportchi muvozanatni sezish, vaqtni boshqarish, tez harakatlanayotganda tana va ruhni nazorat qilishi shart. Sportning har qanday turi sportchidan uslubiy va kompozitsiya hissini talab qiladi. Sportning barcha turlarida, ayniqsa agar, sportchi yuqori mahoratga ega bo‘lsa, bu unsurlar rassomlar uchun kerak bo‘lgan kompozitsion xususiyatlar mavjuddir.

¹ Кон. И.С.Мужеское тело в истории культуры. – М., 2003, с-77

² Лоу Б. Красота спорта. – М., 1984, с-29

Badiiy faoliyat fantaziyani erkin ifodalashidan va insonning intellektal qobiliyatlarini namoyon etishdan iborat. O'z chiqish vaqtida sportchi namoyish etadigan shiddat va ritmda makon va vaqt ustidan hukmronlik yo'qotiladi, bundan xulosa qilish mumkinki, sport vaqt cheklanishlariga ega bo'lmagan go'zallikni yaratuvchanligi bilan san'atga o'xshashdir. San'at kabi sport ham insonga o'z-o'zini namoyish imkonini beradi, tomosha esa sportga jamoat hurmatini olib keladi.

Sportchi qiyofasidagi badiiy tasvirlar ko'plab sivilizatsiyaning artefaktlarida, madaniy merosida uchraydi. Ko'plab rassomlar va haykaltaroshlar turli davrlarda sport mavzusiga murojat qilishgan. Lekin haykaltarosh yoki rassomning ijodi ko'p jihatdan uning sport haqidagi bilimlariga bog'liq. Undan tashqari, mazkur sport turiga xos bo'lgan harakatlar mohiyatini o'zida mujassam etgan sport musobaqalarining epizodlarini ta'kidlab o'tish joiz. Ba'zi harakatlar yashin tezligida bajariladiki, faqat tajribali ko'zgina bunday muhim daqiqalarni payqay oladi. Ko'pincha sport yangi liklarida operatorlar sportchining kutilmagan sakrashlari, harakatlari go'zalligini namoyish etishadi. Fotosurat esa rang-tasvir va haykaltaroshlikning barcha talablariga javob beradi, bino-barin estetikaga ham. "Sport estetikasida go'zallik – tezlik, aniqlik, kuch va iroda birlashganda yuz berishi mumkin. (Masalan futbol) CHiroyli "gol" urish uchun zarbani aniq, tezlik va kuchini hisobga olgan holda bajarishi lozim, aks holda u tomoshabinlarda estetik zavq uyg'otmaydi"¹.

shunday qilib, sportchining sevimli sifat turi bilan qoniqishi, o'yinda g'alab qozonishga intilish, tamoshabinni chiroyli qomat va texnika bilan hayratlantirish inson san'atining asl mohiyatidir. Bu esa estetik madaniyatning mo'jizalarida o'z aksini topadi. Go'zallikni ijtimoiy ong taraqqiyotida aks etishini, aynan tez ommaviy tus olib ketadigan sport va san'atda namoyon bo'lishini tadqiq qilar ekanmiz, san'at va sport go'zallik prizmasi orqali ***birinchidan***, insonning bahoviy

¹ Рахмонов. А. Рахмонова Д. Спорт эстетикасида эстетик категорияларнинг таснифи. // Ўзбекистонда эстетик билимлар ривож ва маданий таракқиёт мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. 2014, 71-б

va qiymat kasb etuvchi tushunchalari sifatida; **ikkinchidan**, insonning jismoniy-hissiy qadriyatiga aylanadigan faoliyat kategoriyalari sifatida; **uchinchidan**, insonning ham moddiy, ham ma'naviy ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida; **to'rtinchidan**, ijtimoiy go'zallikni rivojlantiruvchi lokomotivi sifatida namoyon bo'ladi.

Bob buyicha xulosalar

birinchidan, mutafakkirlarining ijodida go'zallik muayyan mezon – o'lchov ko'rinishdagina namoyon bo'ladi. Go'zallik estetik kategoriyalari ichida markaziy bo'lgani uchun ko'plab mutafakkirlar go'zallikni ijtimoiy ong yoki insonning hissiyoti bilan bog'laydilar. O'z davrida go'zallik sifatiga nafaqat tabiat hodisalari, balki adolat, mardlik, sahovat, donishmandlik kabi axloqiy fazilatlar ham kiritilgan;

ikkinchidan, tabiatdagi go'zallik ijtimoiy hayot go'zalligidan, foydali-amaliy faoliyatdagi go'zallik badiiy ijoddagi go'zallikdan farq qiladi. Umuman hammasi muhim belgilariga egadir;

uchinchidan, go'zallik tushunchasi estetikaning boshqa kategoriyalari bilan dialektik bog'liqda bo'lib, mezon, me'yor buzilish oqibatida teskari tushuncha ahamiyat kasb etadi. Go'zal narsalar inson amaliy faoliyatiga, manfaatlariga mos bo'lib, ularni idrok etish hayrat va quvonch bag'ishlaydi, shaxsning uyg'un hamohang rivojlanishiga, unda eng yaxshi insoniy xislat-fazilatlar tarkib topishga ko'maklashadi;

to'rtinchidan, san'atda go'zallik kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetika fani-go'zallik san'atning zarur sharti ekanligini, go'zalliksiz san'atning yo'qligi va bo'lishi mumkin ham emasligini uqtiradi. San'atda mazmun va shaklni bir-biridan ajratib bo'lmaydi;

beshinchidan, sportda go'zallik insonning bahoviy va qiymat kasb etuvchi tushunchasi sifatida maydonga chiqadi. San'at va sportning o'xshashligi aynan go'zallik fenomenining birligida ko'rinadi.

III-BOB.JAMIYAT SOHALARINI MODERNIZATSIYALASHDA GO‘ZALLIK TUSHUNCHASINING O‘RNI VA UNI AKS ETISHI

III.1. Barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi jarayonida go‘zallikni tutgan o‘rni.

Mamlakatimizda har bir yil qay nomda nomlanmasin, unda davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, kengqamrovli maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutadigan reja va vazifalar hisobga olinadi. 2010 yilni “Barkamol avlod yili” deb nomlanishining asosiy sababi ham barcha ezgu niyatlarning markazida farzandlarni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom qilib o‘stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko‘rish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi ekanligidir. Shuning uchun mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, biz yurtimizning ertangi rivoji yo‘lida qanday chuqur o‘ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarni bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha ko‘p sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro‘yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo‘lsa, yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan etuk mutaxassis Yoshlarimiz, desak, o‘ylaymanki, hech qanday xato bo‘lmaydi.¹

Chunki har tomonlama etuk avlodgina murakkab og‘ir sinov va qiyinchiliklarni engish, ko‘zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini anglash qiyin emas.

Ma’lumki, axloqiylik faqat insonning xatti-harakati, qilmishi orqali yuzaga keladi. Odam toki harakatsiz ekan, biz uning na yaxshiligini, na yomonligini bilamiz. Muayayn xatti-harakat sodir qilinganidan keyingina biz uni yo ezgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida baholaymiz. Go‘zallik esa, o‘zini harakatsiz ham namoyon etaveradi. Shu bois etika (axloqShunoslik) bilan estetika

¹ И.А. Каримовнинг 2011 йилнинг асосий яқунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузаси

(nafosatShunoslik) fanlarining insonga munosabati deyarli bir xil va bir-biriga yaqin. Biroq, bunday yaqinlik, Yuqorida aytganimizdek, aslo aynanlikni anglatmaydi. Bu ikkala fanning tadqiqot ob'ektlari orasidagi farqni birinchi bo'lib qadimgi Yunon faylasufi Arastu «Metafizika» asarida nazariy jihatdan isbotlab bergan edi. Uning fikricha, "toki ezgulik bilan go'zallik bir xil narsa emas ekan (birinchisi dom harakatda, go'zallik esa, harakatsiz ham namoyon bo'ladi) matematikaga ezgulik va go'zallik taaluqli emas, degan kishilar xato qiladi"¹.

Bundan tashqari, etika fani ham estetika fani ham tarbiya jarayonida bir-biriga yanada yaqinlashadi. Chunki, estetika –insonning hayotga zavqiy munosabatini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Darhaqiqat bu fan nafaqat insonga nafosat va go'zallik olamini idrok etishni, Shu bilan birga hayotning barcha ko'rinishlariga ijobiy, optimistik ruhda qarashni ham o'rgatadi. Chunonchi, san'atshunoslik faniga xos bilimlar san'atning barcha turlariga xos, mushtarak bo'lgan xususiyatlarini va ularning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berib, o'rgatadi, san'atning eng muhim yo'nalishlari, Chunonchi biz tadqiq etayotgan dizayn, tasviriy san'at to'g'risida chuqur mazmunli va keng miqyosli bilimlar hosil qilishga ko'maklashadi. Shu bois estetik tarbiya jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana Shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuch ekanligi bejiz emas.

Shuningdek, estetik tarbiya samarasining o'z sharti bor. U ham bo'lsa Shundaki, agar u umumiy ta'lim-tarbiyatning maqsad, uslub va vositalari tizimiga, shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishning ichki va tashqi omillari uyg'unligiga, tarbiyaviy faoliyatning spetsifik xususiyatlariga asoslanib olib borilsagina, mo'ljallangan samara va rejalashtirilgan muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Bu tarbiya tizimi oila va maktab, mehnat jamoalari, ommaviy axborot vositalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoat tashkilotlari kabilarda o'zaro hamkorlikda amal qilsagina kutilgan natijalarga olib keladi.

¹ Аристотель. Метафизика. 1078в. // Сочинения в 4 т. Т.1. – М.: "Мысль", 1975.С.326.

Bugungi kunda shaxs ma'naviy olamni yuksaltirish, milliy va umuminsoniy, axloqiy va estetik qadriyatlarni qaror toptirish hamda tarbiyani mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu ayniqsa, hozirgi murakkab va taxlikali zamonda yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil hurujlar, Yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tarbiyaning oliy shakli bo'lmish estetik tarbiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shunday ta'sirning zamonaviy ko'rinishlari – giyohvandlik, axloqsizlik va “ommaviy madaniyat”dir.

Birgina giyohvandlikning inson estetik tafakkuriga, jamiyatdagi estetik qadriyatlarga hamda shaxs estetik kamolotiga salbiy ta'sirini faktik ma'lumotlar bilan izohlash qiyin emas. Axloqsizlik esa turli ko'rinishlarda u yoki bu usullar orqali Yoshlar dunyoqarashiga kirib bormoqda.

Bugungi kunda bunday hurujlarning turlari, ko'rinishlari va ta'sir doirasi nihoyatda keng. Shu sababli Yoshlar o'rtasida estetik tarbiya jarayonlarini yanada mustahkamlash, sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni turli tahdid va hurujlardan ogoh etish va asrash e'tibordagi muhim vazifalar sirasiga kiradi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Barkamol avlod yili” davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida ham “Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban “ommaviy madaniyat” hurujlaridan himoya qilishga doir quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish¹ alohida qayd qilingan:

birinchidan, milliy mustaqil tafakkurni, yuz berayotgan hodisalarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, axloqiy madaniyatni va Internetdan foydalanish madaniyatini oshirish, past saviyali “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishiga qarshi kurashish;

ikkinchidan, Yoshlar tomonidan tarixiy, madaniy qadriyatlarni, ajdodlarimizning ijodiy merosini o'zlashtirish;

¹ Баркамол авлод йили Давлат дастури. Тошкент. “Ўзбекистон” 2010, 9-бет.

uchinchidan, Yoshlarni zararli va madaniyatimizga, an'analarimizga va dunyoqarashimizga yot bo'lgan, Internet kanallari orqali kelayotgan materiallardan muhofaza qilish maqsadida Internet-klublar faoliyatiga talablarni oshirish.

Ana Shundan kelib chiqqan xolda "Barkamol avlod yili" davlat dasturida "Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlikdan, chetdan kirib keladigan ekstremistik markazlar hamda past saviyali "ommaviy madaniyat" illatlarining zararli ta'sirlari, tahdididan muhofaza qilish" deb nomlangan bandida "milliy mustaqil tafakkurni, yuz berayotgan hodisalarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, axloqiy madaniyatni va Internetdan foydalanish madaniyatini oshirish, past saviyali "Ommaviy madaniyat"ning kirib kelishiga qarshi kurashish; - Yoshlarni zararli va madaniyatimizga, an'analarimizga va dunyoqarashimizga yot bo'lgan, Internet kanallari orqali kelayotgan materiallardan muhofaza qilish maqsadida Internet-klublar faoliyatiga talablarni oshirish" masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu talablar bevosita estetik tarbiyani yanada takomillashtirishni taqazo etadigan ma'naviy hodisa hisoblanadi. Buni quyidagi jihatlar orqali izohlash mumkin:

birinchidan, inson paydo bo'lgandan buyon uning mohiyati, kamoloti, hayot tarzi xususidagi bahslar yakunlanmagan; *ikkinchidan*, bu borada din, falsafa hatto, zamonaviy fanlar ham tugal fikrni ayta olgan emas. Garchan, insonning jismoniy jihatdan biologik tadrijiyligi poyoniga etgan bo'lsa-da, asrlar davomida u o'z «men»i va ularni yuzaga chiqarish yo'lida zarur bo'lgan muhitni yaratish uchun olib borgan ishlari davom etmoqda; *uchinchidan*, hozirgacha inson va borliq, inson va jamiyat, inson va texnika o'rtasidagi munosabat masalasi ko'plab ilmiy sohalarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda. Shunga ko'ra, go'zallik falsafasi hisoblangan estetika ayni paytda, inson go'zalligining mohiyatiga doir muammolarni tadqiq etishni o'zining muhim vazifasi qilib belgilaydi.

Estetik tarbiya insonga hayot va san'atdagi go'zalliklardan bahramand bo'lish, ularni baholay bilish hamda o'zi ham go'zalliklar yaratish tuyg'ularini shakllantirishga ko'mak beradi. Ammo, bu jarayon o'z-o'zicha emas, balki bir

qator omillar va vositalar ishtrokida amalga oshiriladi. Jumladan, oila, mahalla, maktabdan tashqari muassasalar (bog'cha, gimnaziya), akademik litsey, kasb-hunar kollejlari badiiy-havoskorlik tugaraklari, oliy o'quv dargohlari hamda jamoalari estetik tarbiyani shakllantiruvchi asosiy omillar bo'lib sanaladi¹.

Barkamol avlodni jismonan baquvvat va estetik jihatdan go'zal g'oyalar asosida tarbiyalash davr talabiga aylandi. Buni e'tiborga olgan Prezident I.A. Karimov 2000 yilni "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qildi va bu yildan respublikamizda sport alohida e'tibor berila boshlandi. Mamlakatda "Sog'lom avlod" Dasturi ishlab chiqildi va bu dastur asosida estetik tafakkur va sport sohasidagi milliy qadriyatlarni tiklashga erishildi. Yurtboshimiz "Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi", deb ta'kidlaydi. Bu fikrning zamirida qanchadan qancha hikmat yotganligini anglab etish, kelajagimizni chiroyli va ko'rkam bo'lishligi, o'zbek farzandlarining jahon maydonlaridagi nufuzi orta borayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Estetik tafakkur tarixida go'zallikning tabiatda namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan tadqiq qilinishi bilan bir qatorda insonning jismi va ruhiyatiga daxldor ko'plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Ularni asosan ikkiga ajratish mumkin: 1. Inson go'zalligini tashqi ko'rinishga qarab baholash. 2. Go'zallikning insonga xos belgilarini ma'naviy tuyg'ular, axloqiy fazilatlar bilan bog'lab o'rganish.

Yoshlar ijtimoiy borliq, hodisalar, voqeliklar bag'rida dunyoga kelib ulg'ayar ekan, ijodiyot va ijtimoiy hayot tomonidan in'om etgan ajoyib, hayratomuz nafosat, go'zalliklarning shohidi, guvohi bo'lar ekan, ulardan zavqlanmasdan, bahramand bo'lmasdan, bahri-dili ochilmasdan hayot kechira olmaydi. shunday ijtimoiy hayot go'zalliklardan Yoshlar bahra olgandan keyin uning ko'tarinkilik kayfiyati, badiiy ruhiyati vujudga kelib tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ruhiy-ma'naviy holat Yoshlarning estetik tafakkuri shakllanishi va kamol topib borishining mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Bunday ruhiy-badiiy

¹ Ибрагимов С. Баркамол авлодни шакллантиришда эстетик тарбиянинг ўрни (гўзаллик тушунчаси орқали). // Маънавий янгиланиш жараёнларида этика ва эстетиканинг долзарб муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент. Нишон-ношир. 2011, 83-бет.

holat Yoshlarda badiiy asarlarni o‘qib chiqqanida yoki tomosha qilayotganida ham paydo bo‘lishi mumkin. Lekin bu erda Yoshlarning estetik tafakkurining asosiy negizini ijtimoiy borliq, voqea-hodisalar tashkil etishini e’tiborga olmoq lozim. Chunki, Yoshlar ijtimoiy borliqdagi go‘zalliklarni, nafosatni ko‘rishi yoki eshitishi natijasida zavqlanadi, ko‘tarinkilik hissiyotlari paydo bo‘lib, hayot go‘zalliklaridan bahra oladi. Bu – Yoshlarda paydo bo‘layotgan estetik tafakkurning asl mohiyati va mazmunini anglatadi. Zotan, bolalikdan boshlab hayot go‘zalliklarining sir-sinoatlarini sinchkovlik bilan o‘rganib, bilib olishga intilayotgan Yoshlarning estetik tafakkur doirasi kengayib borishi evaziga badiiy ijodni mashq qilishga kirishishi ham Shuni taqozo etmoqda. Ayni paytda Yoshlarimizda “badiiy didning barkamol yoki to‘mtoq, etuk yoki bachkana bo‘lishi muaychn shaxsning ma’naviy ehtiyojiga, tarbiya muhitiga bog‘liq.

XXI Globallashuv asrida ommaviy madaniyat zamonaviy qiyofada – go‘yo rivojlangan madaniy dunyoga integratsiyalashish, liberallashish, demokratlashish niqoblari ostida namoyon bo‘lmoqda. Bu niqoblar ostidagi salbiy holatlar va ular shakllantirishi mumkin bo‘lgan illatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar orasidagi keskin tafovutni anglay bilish zamon talabidir. Ommaviy madaniyat, eng avvalo milliy ahloqqa zarba berib, jamiyatning g‘oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan xatarli ekanligini ham to‘g‘ri tuShunish kerak. Bu xavf-xatarga qarshi qat’iy tura oladigan shaxsni shakllantirishda tarbiyaning barcha ko‘rinishlarini uyg‘un holda olib borish shart. Yuqorida aytib o‘tilganidek, estetik tarbiya aynan Shu maqsad yo‘lida yosh avlodni milliylikka zid bo‘lmagan estetik ideal timsolida, yuqori estetik didli qilib shakllantirishi dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy madaniyat yutuqlariga xolisona va kerak bo‘lganda tanqidiy yondashib, to‘g‘ri saralay olish uchun xam estetik tarbiya zarur. Shu bilan birga, estetik tarbiya doimo ahloqiy tarbiya bilan aloqadorlikda bo‘lib, haqiqiy nafosat olami ezgulik va odob-axloq qonunlaridan ajralmagan holda amal qilishini eslatib o‘tish o‘rinli. Bu aloqadorlik turli behayolik, odobsizlik, axloqsizlik kabi ma’naviy qashshoqlikka olib keluvchi illatlarga qalqon bo‘la oladi.

Milliylik bilan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan estetik ideal timsolida, Yuksak estetik didli shaxs "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan g'oyasizlik, didsizlik, sifatsizlik va behayolik kabi illatlarga qat'iy tura oladi. Kirib kelayotgan axborotlar va ma'lumotlarni ko'r-ko'rona qabul qilaveradigan, o'zligini yo'qota boshlagan ommaga aylanmaydi. Ta'sir etishning nozik va qudratli quroliga aylangan reklama, moda kabilarga ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi. Ularning orqasida mafkuraviy zabt etish bilan birga iqtisodiy manfaat va maqsadlar ham turishini to'g'ri anglay oladi.

Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotganligiga e'tibor qaratgan xolda aytishmiz mumkinki, insoniy go'zallikka doir estetik ideallarni yaratish masalasi hayotiy zaruriyatga aylandi. Endilikda O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan, uning himoyasini ta'minlashga, mustaqilligini mustahkamlashga qodir bo'lgan shaxslarni zamon kishisining ideali sifatida e'tirof etilishi pirovardida inson go'zalligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois barkamol avlod tarbiyasida go'zallik estetik ideal bilan uyg'unlikda va bir-birini to'ldirish asosida yuzaga keladi.

Ma'lumki, badiiy-estetik ong borliqni, voqelikni estetik nuqtai nazardan anglash, idrok etish ifodasidir. "Inson borliqni nafosat qonunlariga rioya qilgan holda anglaydi... Nafosat qonunlariga rioya etish, Ya'ni yaratish qobiliyati inson faoliyatining mohiyat va mazmunini tashkil etadi. Shuning uchun insonning har qanday faoliyatida estetik manba mavjud: inson o'z faoliyati davomida moddiyat bilan birga ma'naviyatga shodlik - sevinch, orzu umid, erk-ozodlik tuyg'ulariga suyanib yashaydi, moddiy samaralar bilan birga o'zi va boshqalar faoliyatining nafosat mezonlari bilan o'lchanadigan ijtimoiy baholanishiga harakat qiladi"¹. Badiiy-estetik ideal ushbu nafosat qonunlariga tayanar ekan, borliqni go'zallik mezonlari orqali takomillashtirishga intiladi. U Shunchaki ifoda, tasvir emas, hatto rang-barang asarlar, ifodalar va tasvirlar ham ideal bo'lavermaydi, aks holda har

¹ Умаров Э. Эстетика (нафосатшунослик). -Тошкент: Ўзбекистон, 1995. - 77 б.

qanday badiiy-estetik qadriyat idealga aylantirilgan bo'lardi. Ideal mavjud voqeliklar ichidan eng yuksagini, eng etugini, eng go'zalini tanlab oladi, Ya'ni badiiy-estetik tip yaratadi. Ushbu tip bir tomondan, mavjud estetik qadriyatlar va borliqni estetik idrok etish talablaridan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan, ularni yangi pog'onaga, etuklik darajasiga ko'tarishni nazarda tutadi.

Badiiy-estetik idealning shakllanishida estetik didning alohida o'rni bor. Aslida estetik did bilan badiiy-estetik ideal o'zaro dialektik bog'liq voqeliklardir. Estetik didi shakllangan odamning ideali bilan ushbu didi rivojlanmagan kishining estetik ideali o'rtasida jiddiy farq mavjud. Masalan, estetik didi etarli rivojlanmagan kishi Pikasso yoki Salvador Dali asarlarida aft-angori yoki tana tuzilishi atayin buzib tasvirlangan gavdalarni ilg'ashi, musavvirlarning borliqqa munosabatini butunlay teskari tutishini mumkin. To'g'ri, har kimning didi, Shu jumladan badiiy-estetik didi ham, o'ziga xosdir. Hatto ko'p yillardan beri tasviriy san'at bilan Shug'ullanib kelayotgan musavvirlar ichida ham Pikasso va Salvador Dali rang tasvirlarini turlicha idrok etish, baholash uchrab turadi. Biroq ushbu musavvirlar bilan estetik didi shakllanmagan tomoshabin o'rtasida tafovut kattadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan xulosa Shuki, Yoshlarni estetik tarbiyasida adabiyot va san'atni rolini kuchaytirmay turib, mustaqillik ma'naviy hayotini bir butun tizim sifatida shakllantirib bo'lmaydi. Mustaqillik ma'naviy hayotini yangi zamon talabi asosida isloh qilib borish jarayonida kishilik jamiyatida katta ijtimoiy kuch hisoblangan Yoshlarning milliy estetik tafakkurini go'zallik qonunlari asosida shakllantirmay turib ko'zlangan maqsad – fuqarolik jamiyatini barpo etib bo'lmaydi. Chunki, Yoshlar kelajakda qurilayotgan fuqarolik jamiyatining komil insonlari bo'lib voyaga etishishlari va uning boshqaruvchilari ham o'zlari bo'lishlari zarur

Mazkur paragrafga xulosa qilib Shuni aytish mumkinki, *birinchidan*, go'zallikning inson kamolotidagi ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadigan va jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan dolzarb muammo sanaladi; *ikkinchidan*, ma'naviy qadriyatlar tizimida go'zallikning o'rnini - xalqimizning azaliy

an'analariga, udumlariga, ruhiyatiga asoslanib kelajakka ishonch va ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirish bilan belgilashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz; *uchinchidan*, qadriyatlarsiz inson, jamiyat, tuzum bo'lmaganidek, ular go'zalliksiz ham yashay olmaydi. Qadriyatlarning go'zalligi inson barkamolligiga, jamiyat ravnaqiga, tuzumning insonparvarligiga xizmat qiladi; *to'rtinchidan*, aksincha, mohiyatan go'zallikka xizmat qilmaydigan qadriyatlar ustuvor bo'lgan jamiyat, inson, ijtimoiy-siyosiy tuzum asta-sekin inqirozga yuz tutadi.

III.2. Go‘zallikning bunyodkorlik sohasidagi in‘ikosi

Go‘zallik qanchalik ko‘p ehtiyojga aylansa, estetik did ham Shunchalik yuksalib boradi. Psixologlarning fikriga ko‘ra, estetik ehtiyoj inson ehtiyojlarining oliy ko‘rinishi bo‘lib, u ma‘naviy va moddiy ehtiyojlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, boshqa ehtiyojlardan farqli o‘laroq, estetik ehtiyoj yaratuvchanlik xususiyatiga ega. Insonning estetik didiga asoslangan ehtiyoji qadriyatlarni iste‘mol qilibgina qolmay, balki uning o‘zi ham yangi larini yaratishga undaydi. Shu ma‘noda estetik ehtiyoj insonning fikrlashi kabi beqiyosdir. Ayniqsa, dizayn haqida tovar, Ya‘ni mahsulot yoki xizmat turlari nuqtai nazaridan gapirar ekanmiz iste‘molchi sub‘ektning ma‘naviy-estetik olami turlicha, o‘z navbatida, estetik dididan kelib chiqqan holda talab-ehtiyoji ham turlicha bo‘lishini inobatga olish zarur. Bunday holat iste‘molchi rolini o‘ynayotgan sub‘ektni turli guruhlarlarga ajratish imkonini beradi. Bu guruhlarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan birga har bir shaxsning modaga, an‘ana va zamonaviylikka bo‘lgan munosabatidan kelib chiqqan holda “lider va autsayder”, “novator va konservator” deb atash mumkin.

Dizayner buYumga o‘ziga xos nafosat va uyg‘unlikni singdirib, unda insoniy qadriyatlarni shakllantiradi. BuYumlar olamini va turmush estetikasini go‘zallashtirish orqali insonda jamiyatga nisbatan munosabatni shakllantiradi. Shunga ko‘ra, badiiy-loyihalash bo‘lmish dizaynning muhim ma‘naviy, estetik, ijtimoiy, ruhiy va tarbiyaviy ahamiyati, uning jamiyatda tutgan ijtimoiy-madaniy o‘rni ham aynan Shu omil bilan belgilanadi.

Shuni alohida ta‘kidlash zarurki, zamonaviy dizayner xalq hayotini, urf-odat va an‘analarini, turmush tarzi va ruhiyatini, millat mentalitetini chuqur o‘rganishlari barobarida axloqiy-estetik qadriyatlari haqida bilimga ega bo‘lishlari zarur. Chunki dizaynga milliylik baxsh etish o‘ta dolzarb masala bo‘lib, u o‘zida xalq ruxiyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Shuning uchun jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash uchun taqlid qilish o‘rniga, o‘ziga xoslikni Ya‘ni, o‘zlikni namoyon qila bilish kerak. Zero, bugungi Globallashuv davrida dizaynerlik

faoliyati oddiy iste'mol buyumlari orqali ham mafkuraviy g'oyalarni, ham yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon qiladi.

Go'zallikning shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rgangan tadqiqotchi B.E.Husanov go'zallik ham san'atning ham dizaynning asosiy mezonini ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, inson hayoti, faoliyati nafaqat tabiiy ehtiyojlarga, balki o'zi tomonidan yaratilgan narsalar olamiga ham bog'liq. Inson o'zini qurshab turgan olamning qanday bo'lishini ko'p xollarda o'zi belgilaydi. Ana shu jarayonning asosida esa zamonaviy amaliyotning muhim ko'rinishi hisoblangan narsalar olamini badiiy loyihalash masalasi yotadi. Fan-texnikaning taraqqiy etib borishi natijasida badiiy loyihalash ham takomillashib boradi. Dastlabki yaratilgan texnika vositalarini kishilar go'zallik olamiga mutlaqo begona bo'lgan hodisa sifatida idrok etishgan bo'lsa, keyinchalik loyihachilar tomonidan texnikaga nisbatan badiiy yondashuv natijasida u o'zining avvalgi dag'al, qo'pol, noqulay ko'rinishini yo'qotdi. Endilikda texnika o'zining bejirimligi, qulayligi, jozibasi bilan insonga yaqinlasha boshladi.

Darhaqiqat, dizayn go'zallik kategoriyasi bilan uyg'un holdagina rivojlanadi. Holbuki, buyumni badiiy loyihalashtirishda uning shakli bilan mazmuni hamohang, mos bo'lishi kerak. Qisqasi dizayndagi estetik talab shaxsning moddiy ehtiyoji bilan birga ma'naviy ehtiyojini ham qondira olgandagina go'zallikni namoyon ettiradi. Shuning uchun ham dizaynga doir ilmiy adabiyotlarda "Buyumni estetik sifatleri nimalarni taqazo qilishini aniq bilib olish uchun go'zallik to'g'risidagi umumiy tushunchani tarkibiy qismlarga ajratish zarur. Go'zallik to'g'risida buyumning tashqi shakliga qarab fikr yuritilganligi sababli avvalo tashqi shaklning qanday belgilari mavjud ekanligini bilib olish lozim. Faqat shundan keyingina muayyan narsa qanday sifatlarga ega bo'lishi lozimligi, u chiroyli deb atalishga haqli bo'lish uchun qanday qonunlar asosida yaratilishi kerakligi haqida gap yuritsa bo'ladi. Ana shunda bizning bergan

bahomiz dalil-isbotli bo‘ladi»¹.

Texnika estetikasi va turmush nafosatiga doir adabiyotlarda dizayn iborasi tez-tez uchrab turadi. U inglizcha «desing» so‘zidan olingan bo‘lib, «loyiha, chizma» degan ma’nolarni anglatadi². Biroq, dizayn mohiyatan chizma va loyihadan farq qiladi. Mazkur farqni anglash esa bizni qurshab turgan narsalar olamining shakl- shamoyilini, rangini, joylashgan makonini va boshqa Shu kabi jihatlarni mushohada qilish orqali belgilanadi. Bu o‘z navbatida dizayndagi ikki muhim tomonni yuzaga keltiradi. **Birinchidan**, dizayn o‘zining maftunkorligi, diqqatni jalb eta olishi, Yuksak did bilan yaratilganligi, foydalanish uchun qulayligi, bejirimligi singari xususiyatlar bilan belgilanadi. **Ikkinchidan**, u o‘z vazifasini to‘la-to‘kis bajara olishi, hizmat ko‘rsatish darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Demoqchimizki, dizayn nafaqat texnika sanoatining mahsulotiga nisbatan qo‘llaniladi, balki o‘zida bundan-da keng qamrovli xususiyatlarni aks ettiradi. Dizayn go‘zallik kategoriyasi bilan hamkorlikda taraqqiy etib boradi. Holbuki, buYumni badiiy loyihalashtirishda uning shakli bilan mazmuni hamohang, mos bo‘lishi kerak. Qisqasi dizayndagi estetik talab shaxsning moddiy ehtiyoji bilan birga ma’naviy ehtiyojini ham qondira olgandagina o‘zida go‘zallikni namoyon ettiradi

Aytish kerakki, har qanday go‘zallik hukmining asosida albatta uning ijrosi yotadi. Biroq, eng muhimi, ijroning go‘zal niyatlarga yo‘naltirilganligi, Yuksak maqsadlarga qaratilganligidir. Zotan, texnikaning g‘ayriinsoniy maqsadlarni ko‘zlab yaratgan mahsulotlari qanchalik jozibador, chiroyli, maftunkor bo‘lmasin, u chinakam go‘zallik bo‘la olmaydi. Chunki, narsalar olamida kishilar e’tiborini o‘ziga tezda jalb eta oladigan shunday predmetlar borki, ular orasidan qay biri inson kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi-yu, qay biri unga ziyon etkazadi, buni anglab olish birmuncha qiyin kechadi. Shunga ko‘ra, texnika kuchi yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ham jamiyat va inson ma’naviy

¹ Холмянский Л.М. Шчипанов А.С. Дизайн.-Т.: Ўқитувчи. 1991.-5 б.

² Розенсон И. А. Основы теории дизайна. — СПб.: Питер, 2006. — 224 с. — ISBN 5-469-01143-7.

rivojiga birday naf keltiravermaydi. Jangovor qurollarning yaratilishi va ularni qo‘llash aynan Shundan dalolat beradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, xalqimizning bunyodkorlik salohiyati azaliy qadriyat hisoblanadi. Bu qadriyat me’morlik yohud imoratsozlikka milliy qadriyatlarimizning bir bo‘lagi sifatida munosabat bildirilmoqda. Chunonchi, “O‘zbek imoratsozligining o‘ziga xos va nodir fazilatlaridan biri Shuki, unda e’zozlanayotgan tuyg‘u o‘zining takrorlanmas eng Yuksak cho‘qqisini topadi”.

Mamlakatimizda bunyod etilayotgan yangi dan-yangi me’moriy obidalaridagi milliy uslub, koshinlardagi handasaviy chiziqlarning nafisligi hamda ichki devor sirtlaridagi naqshlarning o‘ziga xos jilosi imoratsozlik sohasiga go‘zallikning ta’siri sezilarli ekanligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy taraqqiyotning ikki muhim jihati - moddiylik va ma’naviylikni o‘zida namoyon ettiradigan me’morchilik o‘z navbatida, mamlakatda shaharsozlik sohasining shakllanishiga, ravnaq topishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi paytda kundalik hayotimizda «shaharsozlik» va «obodonlashtirish» degan so‘zlar tez-tez tilga olinmoqda. Agar uning SHo‘rolar davridagi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, me’moriy majmualarning umumiy ko‘rinishi, ularning eksterer (tashqi) va interer (ichki) bezagidagi bir xillik shaharning badiiy-estetik qiyofasiga salbiy ta’sir etganligini sezishimiz mumkin. Xususan, aholi uchun qurilgan turar joylarning bir xil shaklda bo‘lganligi Shundan dalolat beradi. Mazkur binolar avvalo, xalqning mentalitetiga hurmatsizlik qilgan xolda tartibsiz, noqulay hududda bunyod etilganligi, aksariyatining qurilishida tabiiy muhit, milliy xususiyatlarni hisobga olinmaganligi natijasida shahar ko‘rkinining buzib turar edi.

Endilikda, mustaqillik sharofati tufayli mamlakatimizda shaharsozlik sohasiga katta e’tibor qaratildi. Bu borada 2002 yil 4 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining shaharsozlik Kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qonuni qabul qilindi. Qonunda ko‘rsatilganlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, shaharsozlikda go‘zallikning namoyon bo‘lishi ikki muhim jihatga-shaharni muhandislik talablari asosida

loyihalashtirishga hamda ularning nafasat mezonlari bilan uyg'unligiga bog'liq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, shahardagi binolarning me'moriy, badiiy-dizaynerlik, iqlimiy jihatlarini qamrab oladi. Zero azaldan ko'rkam, obod shaharlari bilan dunyoga dong taratgan Turonzaminda shaharsozlik ana shunday tamoyillar asosida rivojlangan. Fikrimizni bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida keltirilgan bizga qimmatli ma'lumotlar orqali izohlashga harakat qilamiz.

Shahar, qasaba, qal'alar to'g'risida fikr yuritar ekan, mutafakkir ularning o'ziga xos, bir-biridan farq qiluvchi jihatlariga e'tiborni qaratadi. Bu borada O'shni «bahori bisyor yaxshi», Andijonni «oshlig'i vofir, mevasi farovon», Marg'ilonni «yaxshi qasaba», «pur ne'mat», Isfarani «oqar suvli, safoliq bog'chalari bor», Koson (Kosonsoy)ni «yaxshi xavoliq er» kabi shahru qasabaga ko'rk bag'ishlovchi qator sifatlar bilan ta'riflaydi. Samarqandni esa «Rubi maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur... Samarqand shahri ajab orosta shahredur, bu shahrda bir xususiyati borkim, o'zga kam shahrda andoq bo'lg'ay. Har harfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emastur, tavr rasmedur. Xo'b nonvoliqlari va oshpazliqlari bordur. Olamda yaxshi kog'az Samarqanddin chiqar, Juvozi kog'azlar suyi tamom Konigildan keladur», -deya ta'riflaydi.

Muallif «Boburnoma»ning bir necha joyida Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqand qal'asi ichida bunyod etilgan madrasa, masjid, hammom va honaqolarning me'moriy hamda badiiy-estetik xususiyatlarini bayon etadi. Jumladan, «Muqatta'» masjidining noziklik bilan tarashlangan yog'ochlari va masjid devorlariga nafislik bilan islimiy hamda hitoiy naqshlarning ishlanganligi Bobur tomonidan chiroyli tarzda tavsiflanadi.

Bugungi kunda yurtimizda rivojlanib borayotgan shaharsozlik va me'morlik sohasiga zamonaviy yondoshuv asosida shahar va qishloqlarimizning infratuzilmasi tubdan o'zgardi. Chunki, mamlakatimizdagi muhtasham binolar, inshootlarning milliy me'morchilik an'analari Ovro'pa me'morchilik an'analari bilan uyg'unlashgan holda bunyod etilmoqda. Jumladan, «Xalqaro anjumanlar

saroyi”, qurilishi yakunlanayotgan “O‘zbekiston Milliy kutubxonasi” binosi hamda turli madaniy-ma’rifiy maskanlar, sport sog‘lomlashtirish inshootlari Shular jumlasidandir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, go‘zallik voqelikka qarama-qarshi bo‘lgan hodisa emas, balki insoniy qadriyatdir. Zero, har qanday go‘zallik inson tomonidan idrok etilishi bilan qadriyatga aylanadi. Ana Shuning o‘zi go‘zallikning ontologik xususiyatga ega bo‘lgan estetik kategoriya ekanligidan dalolat beradi. shunday ekan, shaharsozlik va me’morlik tarixiylik, ijtimoiylik, nafosatdorlik kabi uch muhim xususiyatga ko‘ra shakllanib boradi. Har qanday jamiyatning ijtimoiy munosabatlariga go‘zallik orqali ta’sir etishdan ko‘zlangan maqsad kishilarning ma’naviy va moddiy ehtiyojini to‘laqonli tarzda qondirishdan iborat. Bular me’morchilik va shaharsozlikda Yuqorida ta’kid etilgan uchta xususiyat orqali namoyon bo‘ladi. Ya’ni, hozirda mazkur sohalarni rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad:

birinchidan, mustamlakachilik yillarida ongu Shuurimizdan begonalash-tirilgan milliy tuyg‘ularimizni, qadriyatga aylangan buyuk an’analarni qayta tiklash;

ikkinchidan, benazir qadriyatlarimiz orqali O‘zbekistonni jahon ham-jamiyatida munosib o‘ringa ega bo‘lishini ta’minlash;

uchinchidan, kelgusi avlod tafakkurida ulug‘ ajdodlarimizning nomi va merosi bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otish;

to‘rtinchidan, kelajak avlodga ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan bunyodkorlik fazilatini o‘rgatish, ularga ozod va obod Vatan qoldirishdan iborat.

Darhaqiqat, mamlakat taraqqiyotini insonlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olmasdan tasavvur etish mumkin emas. Biroq, insonlarda tabiat, jamiyat munosabatlari bilan faoliyat olib borishdan avval ularda dastlab voqelikni anglash jarayoni shakllana boshlaydi Inson voqelikni kuzatadi, o‘rganadi, mushohada qiladi va so‘ngra u bilan faoliyat olib boradi. Estetik faoliyat esa Yuqorida ta’kidlaganimizdek, talab va ehtiyojga asoslanadi. Talab va ehtiyojni qondirishga

qaratilgan faoliyat o'z navbatida, insonda manfaatdorlik hissini paydo qiladi.

Inson hayoti, faoliyati nafaqat tabiiy ehtiyojlarga, balki o'zi tomonidan yaratilgan narsalar olamiga ham bog'liq. Inson o'zini qurshab turgan olamning qanday bo'lishini ko'p xollarda o'zi belgilaydi. Ana Shu jarayonning asosida esa zamonaviy amaliyotning muhim ko'rinishi hisoblangan narsalar olamini badiiy loyihalash masalasi yotadi. Fan-texnikaning taraqqiy etib borishi natijasida badiiy loyihalash ham takomillashib boradi. Dastlabki yaratilgan texnika vositalarini kishilar go'zallik olamiga mutlaqo begona bo'lgan hodisa sifatida idrok etishgan edi. Keyinchalik loyihachilar tomonidan texnikaga nisbatan badiiy yondashuv natijasida u o'zining avvalgi dag'al, qo'pol, noqulay ko'rinishini yo'qotdi. Endilikda texnika o'zining bejirimligi, qulayligi, jozibasi bilan insonga yaqinlasha boshladi. Mazkur holatning rivojlanib borishi bilan birga texnika loyahasiga nisbatan ikki xil munosabat ham shakllanib bordi. Birinchidan, loyihaning asosida texnikaning mexanik faoliyati, uning ishlash jarayoni ko'zda tutilgan bo'lsa, ikkinchidan, uning tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratildi. Keyinchalik mazkur ikki munosabatning uyg'un faoliyati natijasida mashinaning insoniylashgan yangi uchinchi olami, zamonaviy ibora bilan aytganda - dizayn yuzaga keldi.

Texnikaviy taraqqiyot doimo rivojlanib, yangi rivojlanib boradi. Eski texnologiyalar o'z o'rnini yangi texnologiyalarga bo'shatib beradi. Voqelikda esa mazkur o'tish jarayonini ishlab chiqarish sharoitlarining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'zgarib, takomillashib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Mashinalar texnikasi davrida manfaatdor munosabat bilan estetik munosabat orasidagi qarama-qarshilikning keskinlashuvi nafaqat texnikaning o'ziga yoki mehnat taqsimotiga, ayni paytda, ishlab chiqarish sohalari maqsadlarining o'zgarishiga ham bog'liq. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning manfaatdorligi va nafosatdorligi o'rtasidagi aloqadorlikka doir tadqiqotlardan Shu narsa anglanadiki, mazkur aloqadorlik barcha predmetlar uchun bir xilda emas. shunday predmetlar borki, uning estetik o'ziga xosligi funksional-loyihalashtirish asoslari bilan belgilanadi; uning go'zalligi mazmun va shakl, ma'naviylik va moddiylik,

manfaatdorlik va foydalilik mezonlari bilan hamoxang tarzda rivojlanib boradi. Masalan, samolyotsozlik, avtomobilsozlik sanoati boshqa zamonaviy transport vositalar ishlab chiqarish sohasi xuddi Shu talab asosida ravnaq topadi. Bu borada O'zbekistonning Janubiy Koreya, Chevrolet kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlab chiqarayotgan mahsulotlari, xususan, «Nexia», «Spark», «Matiz», «Captive», «Malibu», «Cobalt» sinari engil avtomobillarni misol qilib keltirish o'rinlidir. Mazkur avtomobillarning qulayligi, zamonaviy dizayni hozirgi kishilarni didiga mosligi bilan go'zallik talablariga javob beradi.

Keyingi paytlarda jahonning qator mamlakatlarida mazkur avtomobilning nufuzi yanada ortib bormoqda. Buning natijasi o'laroq, O'zbekiston Avtomobil ishlab chiqaruvchilar xalqaro tashkiloti-OICA a'zoliciga qabul qilindi. Mazkur tashkilot jahondagi barcha milliy avtomobil assotsiatsialarni o'zida jamlaydi. Bu tashkilotning nufuzi Shu darajadagi, uning tarkibiga jahon avtomobilsozligining «FORD», «CRISLER», «GENERAL MOTORS», «MERCEDES-BENZ», «TOYOTA» singari gigant avtofirmalar va kompaniyalari kiradi. Ana Shular qatoriga bizning «O'zavtosanoat» assotsiatsiyamiz ham qirqinchi a'zo bo'lib qo'shildi. Demak, bugungi kunda o'zbek avtomobilsozligining funksional loyihasi foydalilik mezonlari bilan hamohang tarzda shakllanmoqda, deyishga asos bor.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday go'zallik hukmining asosida albatta uning ijrosi yotadi. Biroq, eng muhimi, ijroning go'zal niyatlarga yo'naltirilganligi, Yuksak maqsadlarga qaratilganligidir. Zotan, texnikaning g'ayriinsoniy maqsadlarni ko'zlab yaratgan mahsulotlari qanchalik jozibador, chiroyli, maftunkor bo'lmasin, u chinakam go'zallik bo'la olmaydi. Chunki, narsalar olamida kishilar e'tiborini o'ziga tezda jalb eta oladigan shunday predmetlar borki, ular orasidan qay biri inson kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi-yu, qay biri unga ziyon etkazadi, buni anglab olish birmuncha qiyin kechadi. Shunga ko'ra, texnika kuchi yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ham jamiyat va inson ma'naviy rivojiga birday naf keltiravermaydi.

Shuni inobatga olgan xolda aytishimiz mumkinki, texnika mahsuloti

quyidagi hollarda oʻzida goʻzallikni namoyon ettiradi:

birinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulotlar inson manfaatlariga hamda didiga mos boʻlishi shart;

ikkinchidan, bu Yummlarning ehtiyojni qondirish imkoni eskilik tamoyillaridan xoli boʻlmogʻi lozim;

uchinchidan, loyihalashtiruvchi nafaqat texnikaviy bilimga, ayni paytda voqelikni estetik idrok eta olish qobiliyatiga ham ega boʻlishi kerak.

Umuman olganda, jamiyat taraqqiy etib borgani sari goʻzallikning miqyosi ham kengayib boraveradi. Biroq, insonning yashash sharoiti bilan uning oʻsib borayotgan ehtiyojlarini, orzu-umidlarini, istaklarini doimo toʻla-toʻkis qondirib borishning imkoni yoʻq. Shunga qaramay, inson ularni yaratish uchun intilib yashaydi. Zero, inson narsalarning moddiy va maʼnaviy olamini yaratib borishi natijasida ijtimoiy taraqqiyot ham shakllanib boradi. Buni quyidagi xulosa bilan ifodalash mumkin: goʻzallik ijtimoiy taraqqiyotda *birinchidan*, qiymat kasb etuvchi tushuncha, *ikkinchidan*, qadriyatga aylanadigan kategoriya, *uchinchidan*, insonning ham moddiy, ham maʼnaviy ehtiyojini qondirishga qodir boʻlgan hodisa, *toʻrtinchidan*, ijtimoiy taraqqiyotning lokomotivi hisoblangan mexanizm sifatida muhim ahamiyatga ega. Biroq, uning davomiyligini taʼminlash shaxs va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar hamoxangligini qay tariqa rivoj topishiga bogʻliq.

Mazkur paragraf boʻyicha xulosa qilib aytish mumkinki, goʻzallikning bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlar orqali izohlashga harakat qildik. Mazkur fikrlardan kelib chiqib maʼnaviy qadriyatlar tizimida goʻzallik ijtimoiy taraqqiyotning maʼnaviy asosi, harakatlantiruvchi kuchi, maqsadi va vazifasi degan xulosaga kelish mumkin. Zotan, milliy istiqlol mafkurasining Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi asosiy gʻoyalari mohiyatan ana shunday maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladi. Chunki, goʻzallik bor joyda taraqqiyot bor, insoniy munosabatlar barkamollik asosida shakllangan muhitdagina goʻzallik mavjud.

III.3. Globallashuv sharoitida Yoshlarda go‘zallik mezonlarini shakllantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining natijalari

Globallashuv davri deb qaralayotgan bugungi kunda milliy va umumbashariy madaniy estetik qadriyatlar insoniyat hayotida har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zero Globallashuv sharoitida o‘zlarining g‘arazli niyatlarini amalga oshirishga intilayotgan, o‘zlarining jirkanch muddaolariga ommaviy madaniyatni targ‘ib qilish orqali erishishga intilayotgan qora kuchlar mavjudki, ular ijtimoiy ongi shakllanib ulgurmagan, hayotiy tajribalari etarli bo‘lmagan yosh avlodga ta’sir etishning turli vositalari, yo‘l usullaridan foydalanishga harakat qiladilar. shunday ekan oilada, ta’lim muassalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, bolalar va o‘quvchi Yoshlar bilan ishlash shakl-tamoyillarini rivojlantirish ta’lim tarbiya ishlari jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng tadbiq etish bugungi kundagi dolzarb vazifalar sarasiga kiradi. Bu xususida Yurtboshimiz I.A. Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat engilmas kuch» asarida shunday yozadi: "... ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo‘ravonlik, individualizm, egosentizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, Shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi"¹, deb ta’kidlaydi.

Ommaviy madaniyat mahsulotlari odamlarning iste’mol ehtiyojlarini qondirsa-da, ularning ma’naviy dunyosi rivojlanishiga kam ta’sir ko‘rsatishini adabiyot va san’at asarlari misolida ko‘rib chiqish mumkin. Ma’lumki, adabiyot va san’at asarlari uch xil ijtimoiy vazifani bajaradi: 1) olamni obrazli bilish; 2)

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. Тошкент. Маънавият. 2008, 117-бет

odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish; 3) tarbiyalash. Adabiyot va san'atning predmeti – inson, uning ichki dunyosi, tafakkuri va tuyg'ulari olami, hayotga, voqelikka munosabati, ruhiy kechinmalari va h.k. Badiiy asar orqali inson tabiat, jamiyat to'g'risidagi, o'zi, hayotining mazmuni, ma'nosi haqidagi tasavvurlarini boyitadi, ranglar, ohanglar, tuyg'ular, ruhiyat kechinmalari xilma-xilligini, nozikligini, inja jilolarini, o'zining yaratuvchilik salohiyatini kashf etadi va rivojlantiradi. Yuksak san'at kishiga ko'pdan-ko'p bilimlar beradi.

Olamni konkret obrazli bilishda qanchalik buyuk ahamiyat kasb etmasin, adabiyot va san'atning bosh vazifasi, albatta, odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirishdir. Inson - ehtiyojlari uzluksiz rivojlanadigan mavjudot. Aynan ushbu xususiyat uni hayvonot olamidani ajratib olgan va odamga aylantirgan. Hayvonot olamida biologik ehtiyojlardan, ya'ni yashash va nasl qoldirishdan tashqari ehtiyojlar yo'q. Hayvonlarning biologik ehtiyojlari o'smaydi, balki qayta-qayta takrorlanadi.

Odamlarda esa biologik ehtiyojlardan tashqari turfa xil ijtimoiy ehtiyojlar mavjud. Ular avloddan avlodga, bir avlod umri davomida ham yildan-yilga ortib va o'sib boradi. Ularni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga bo'lish mumkin. Bir ehtiyojning qondirilishi, yangi, yanada yuksakroq ehtiyojni vujudga keltiradi. Qorni to'q, o'zini xavf-xatardan holi sezgan kishi qo'shiq xirgoyi qilgisi, raqsga tushgisi, biror uyinchoq yoki buYum yasagisi, surat chizgisi – umuman nimadandir huzur-halovat va zavq-shavq olgisi keladi. U qushlarning sayrashiga, suvning jildirashiga - tabiat ovoziga quloq tutadi. Gullar hididan, chiroyidan, rangidan bahra oladi. O'zi ham tabiatga taqlidan ijod qila boshlaydi: surat chizadi, haykalcha yasaydi, kuy to'qiydi (san'at ana shunday tug'ilgan). Bu jarayonda inson tabiatni, Shu jumladan o'z insoniy tabiatini yanada chuqurroq va kengroq bilib oladi. Uning ongi, Shuuri, tuyg'ulari o'tkirlashadi, sayqal topadi. Go'zallikka intilish, undan zavq-shavq tuyish, bahra olish, o'zining mazkur sohadagi yaratuvchilik imkoniyatlarni amalga oshirish ehtiyoji insonda hech qachon intiho topmaydi, ma'lum bir chegarada to'xtab qolmaydi. U ushbu ehtiyojini turli

usullarda qondiradi. Xalq ogʻzaki ijodi va amaliy bezak sanʼati, adabiyot va sanʼatning barcha turlari, janrlari uni qondirishga qaratilgan insonning maxsus ijodiy faoliyatidir.

Adabiyot va sanʼat asarlarini oʻzlashtirish, Yuqorida taʼkidlanganidek, insonning maʼnaviy yuksalishiga, tuygʻulari, dunyoqarashi teranlashishiga, noziklashishiga, ezgulik va goʻzallik bilan yoʻgʻrilishiga barakali taʼsir koʻrsatadi. Natijada odamlar oʻrtasidagi munosabatlar yaxshilanadi, mehr-oqibat kuchayadi. Ular oʻz hayotini, faoliyatini, muhitini “goʻzallik meʼyorlari boʻyicha qayta yarata boshlaydi”, Yuksak ideallarni koʻzlaydi. shunday qilib, adabiyot va sanʼat nafaqat insonga bilim beradi va uning maʼnaviy, estetik ehtiyojlarini qodiradi, Shuningdek, uni tarbiyalaydi, unda asl insoniylikni, ezgulik va nafosatni shakllantiradi. Ayonlashmoqdaki, adabiyot va sanʼatning bu uch vazifasi uzviy, biri-biridan ajralmasdir.

Soʻzangaron tibbiyot kolleji oʻquvchilarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida goʻzal milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda oʻquvchilarni maʼnaviyat, estetika, insonlarning ichki dunyosining goʻzalligi va goʻzallik meʼyorlariga daʼvat etuvchi, maʼnaviy dunyosi keng, ular tomonidan goʻzallikni yaratish haqidagi aniq tasavvurlarining mavjud boʻlishini talab etadi. Biz innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida maʼnaviy-estetik ruhda tarbiyalanganligini pedagogik va psixologik ijtimoiy mezonlaridan foydalandik.

Soʻzangaron tibbiyot kolleji oʻquvchilarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida goʻzallik mezonlari asosida tarbiyalash maqsadida biz “*Ommaviy madaniyat*” va goʻzallik mezonlari” mavzuda davra suhbatini oʻtkazdik. Davra suhbatida soha mutaxassislar, ustozlar bilan birgalikda tashkil etdik. Suhbatda kollej talabalari ishtirokchilarga savollar bilan murojaat qilishdi: “Yoshlar tarbiyasidagi dolzarb muammolar nimalardan iborat?”, “Siz Yoshlar tarbiyasida estetik tarbiyani qanday oʻrni bor deb oʻylaysiz?”, “Jamiyat taraqqiyotida Yoshlarning oʻrnini qanday izohlaysiz?”, “Hozirgi kunda Yoshlarning maʼnaviy dunyosi qanday boʻlishi lozim?”, “Yoshlarning goʻzallik mezonlaridagi

ommaviy madaniyat illatlarini bartaraf etish uchun nima qilmoq zarur?” kabi ko‘pgina savollar bilan murojaat qilishdi va ularda go‘zallik, xunuklik, estetiklik, hissiyot, Yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari ularning bartaraf etishda guruh murabbiylarining faoliyatida innovasion tarbiya texnologiyalarining o‘rni haqida, estetik tarbiya jarayonining ahamiyati haqida tasavvurlari kengaydi.

Biz tanalagan mavzuimiz yuzasidan tadqiqot ishlarini So‘zangaron tibbiyot kollejida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida go‘zallik me‘yorlari va estetika ruhida tarbiyalashdagi maqsadini aniqlab oldik: talabalarni ichki dunyosini, ruhiyatini, butun ma‘naviyati sayqal topgan, ular ma‘rifatga, ilm olishga, go‘zallik me‘yorlar asosida tarbiyalanganlik, go‘zallikka da‘vat etuvchi, ma‘naviyat, go‘zal xulq-odob qoidalarini haqidagi aniq tasavvurlarini shakllantirishdan iborat.

Tibbiyot kolleji o‘quvchilarining faoliyatida talabalarining xulq atvorini kuzatish, tarbiyaviy jarayonni tashkil etishni takomillashtirish bevosita ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari (Otamurod Nurmuxammedov), guruh rahbarlari bilan suhbat o‘tkazish davomida olingan natijalar tahlil qilindi va tarbiyalanuvchi talabalarni shartli ravishda uch guruhga ajratdik.

Birinchi guruhga oilaviy tarbiyada go‘zallik me‘yorlariga amal qilib tarbiyalangan talabalar kiritildi. Bu guruhga kiruvchi talabalar his-tuyg‘u hamda xulq-atvor birligi, ular ma‘rifatga, ilm olishga, Yuksak didga ega, xushmuomala, go‘zal xulq singari fazilatlariga ega, yaxshilikka da‘vat etuvchi, ma‘naviy dunyosi keng, shaxslaroaro o‘zaro munosabatga kirishish jarayonida ijobiy tasavvur qoldiradi va amaliy faoliyatlarida ana Shu xususiyatlarini namoyon eta oladi.

Ikkinchi guruhga o‘rta darajada estetik madaniyati shakllangan, his-tuyg‘u hamda xulq-atvor birligi, ular go‘allikka qisman intiladi, chiroyli axloq-odobga ega, shaxslaroaro o‘zaro munosabatga kirishish jarayonida estetik talablar haqida qisman tasavvurga ega, amaliy faoliyatlarida ana Shu xususiyatlarini qisman namoyon eta oladi.

Uchinchi guruhga axloqiy-estetik madaniyat yetarli darajada shakllanmagan talabalar kiritildi. Ularda his-tuyg'u hamda xulq-atvori bir-biriga teskari, ilm olishga intilishi sust, shaxslaroaro o'zaro munosabatga kirishisha olmaydi, go'zallik va tabiatga ehtiyotkor munosabatda emas, estetik tafakkur haqidagi tasavvurlari sust darajada shakllangan, oxirgi marta o'qigan badiiy kitobini eslay olmadi.

Tibbiyot kolleji o'quvchilarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida go'zallik me'yorlari ruhida tarbiyalashga doir tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: *aniqlovchi, shakllantiruvchi, yakunlovchi*.

Boshlang'ich bosqichda tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida go'zallik ruhida tarbiyalash va estetik madaniyati qay tarzda shakllanganligi o'rganildi, dunyoni go'zallik ruhida qabul qilishi tahlil etildi. Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida estetik mezonlar ruhida tarbiyalash uchun guruh rahbarlari bilan birgalikda ularni tahlil qilindi, asosiy bajariladigan amaliy ishlar belgilab olindi, uchraShuv va suhbatlarning asosiy tarkibiy qismlari aniqlandi va quyidagi savollar orqali kollej o'qituvchilarining estetik tarbiyaga oid bilimlari o'rganilib chiqildi.

Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida "ommaviy madaniyat" va go'zallik mezonlarining farqi bilishi darajasini tekshirish uchun guruh rahbarlari ish rejalari tahlil etildi va birgalikda muhokama etildi. **"Ommaviy madaniyat" davr talabimi yoxud mas'uliyatsizlik oqibatimi"** **mavzusi bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini baholash varaqasi** (tajriba avvalida 30 nafar o'quvchi)

№	Savollar	Baho		
		Yuqori	O'rta	Past
1	Ommaviy madaniyatni ma'nosini bilasizmi?	8	15	7
2	Go'zallik deb nimani tuShunasiz?	11	10	9
3	Ommaviy madaniyat kishilarni didini yuksaltiradimi?	10	11	9

4	Estetik madaniyatni shakllantirish uchun qanday tarbiya texnologiyalaridan foydalanish lozim?	12	8	6
5	Go‘zallik dunyoni qutqaradi deganda nimani tuShunasiz?	9	12	9
6	Dunyoni go‘zallik talablari asosida o‘zlashtirish uchun nimalar qilmoq kerak?	10	9	11

Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida go‘zallik ruhida tarbiyalash jarayonini tashkil etish uchun guruh rahbarlari ish rejalari tahlil etildi va birlikda muhokama etildi. Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida estetik talablar asosida tarbiyalash maqsadida tasviriy ko‘rgazma tashkil etildi va talabalar ularning topshiriqlarini devoriy gazetalar chiqarish, bukletlar tayyorlash jarayonida ifoda etishdi.

Asosiy bosqichda – Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida estetik talablar asosida tarbiyalashga doir tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Ya’ni turli tarbiyaviy ahamiyatga ega kechalar, tarbiyaviy, ma’naviyat soatlarida va darsdan tashqari tadbirlari jarayonida tarbiya texnologiyalarni joriy qilish, go‘zallik mezonlari asosida tarbiyalash borasidagi **“Go‘zallik – insonning sifatdan qoniqishidir”**, **“Estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti”**, **“Go‘zallik – san’at va sportda insonning hissiyotlarini aks etishi”**, **“Estetik did bilan badiiy didning bog‘liqligi”** mavzularda ma’ruzalar, davra suhbatlari va noan’anaviy tarbiya texnologiyalari asosida bir qancha estetik ongini shakllantirishga doir tadbirlar va ma’naviyat soatlari tashkil etildi.

Yakuniy bosqich jarayonida tarbiyaviy faoliyat shakllarining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi bosqichi amalga oshirildi. Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida go‘zallik mezonlari ruhida tarbiyalash faoliyati yo‘lga qo‘yilib, talabalarning axloqiylikruhda tarbiyalanganlik darajasi tahlil qilindi. Guruh rahbari bilan hamkorlikda bajarilgan ishlarni tahlil o‘tkazildi va talabalarni innovasion

tarbiya texnologiyalar asosida ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash borasidagi amalga oshirilgan ishlar savollar asosida tahlil etildi. Tibbiyot kollejlari fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida talabalarni estetik bilimlar asosida tarbiyalash, barkamol avlodning muammolarini o'rganish va Shu asosda ularning yechimini topish ehtiyoji tobora ortmoqda. Shu nuqtai nazardan talabalarni axloqiy-estetik me'yorlar ruhida tarbiyalash muammosi davlat ahamiyatiga molik bo'lgan vazifadir.

““Ommaviy madaniyat” davr talabimi yoxud mas’uliyatsizlik oqibatimi” mavzusi bo’yicha o’quvchilarning bilimlarini baholash varaqasi (tajriba so’ngida 30 nafar o’quvchi)

№	Savollar	Baho		
		Yuqori	O’rta	Past
1	Ommaviy madaniyatni ma’nosini bilasizmi?	18	10	2
2	Go’zallik deb nimani tuShunasiz?	17	10	3
3	Ommaviy madaniyat kishilarni didini yuksaltiradimi?	19	9	2
4	Estetik madaniyatni shakllantirish uchun qanday tarbiya texnologiyalaridan foydalanish lozim?	16	10	4
5	Go’zallik dunyoni qutqaradi deganda nimani tuShunasiz?	18	9	3
6	Dunyoni go’zallik talablari asosida o’zlashtirish uchun nimalar qilmoq kerak?	15	9	6

Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida axloqiy-estetik mezonlar ruhida tarbiyalashga doir tajriba-sinov ishlarini o'tkazish natijasida ularda axloqiy me'yorlar tarbiyasi, xulq tarbiyasi, ma'naviyatga oid bilimlar, ichki his-tuyg'ularini shakllantirishda ijobiy o'zgarishlar qo'lga kiritildi.

Quyidagi jadvalda keltirilganidek, milliy qadriyatlar asosida tibbiyot kolleji o'quvchilarini estetik tarbiyalanganlik natijalari o'z aksini topdi.

Tibbiyot kolleji o'quvchilarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida axloqiy me'yorlar ruhida tarbiyalanganlik darajasi

Guruhlar	Tajriba avvalida 60 nafar o'quvchi			Tajriba yakunida 60 nafar o'quvchi		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi jami 30 nafar	7	11	12	17	9	4
Nazorat guruhi jami 30 nafar	9	12	9	11	10	8

Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida axloqiy-estetik mezonlar ruhida tarbiyalash jarayonida, tajriba-sinov ishlarining natijalariga muvofiq talabalarni go'zallik mezonlari ruhida tarbiyalanganligi borasida fikr to'la tasdiqlandi. Uning tasdiqlanishi Tibbiyot kolleji talabalarini innovasion tarbiya texnologiyalari vositasida axloqiy-estetik mezonlar ruhida tarbiyalanganligini samarali va muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilish ehtimoli ko'zda tutilgan metodikaning pedagogik jihatdan to'g'ri asoslanganligini isbotlandi.

Tajriba–sinov maydonchasi: kasb-hunar kolleji tizimida o'tkazilgan tajriba sinovlarining natijalari

Ma'ruza mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi

Mavzu	“O'quvchilarni estetik mezonlar ruhida tarbiyalashda go'zallik tushunchasini o'rni va roli”
1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
Talabalar soni:20–30 gacha	Vahti: 80 daqiqa
O'quv mashg'ulotning shakli	Informasion bahs munozarali dars

Ma'ruza rejasi	1. Go'zallik tushunchasining mohiyati 2. Go'zallikka intilish – insonning etnomadaniy xususiyati sifatida 3. Sharq va G'arb mutafakkirlarining ijodida go'zallik tushunchasini o'rganilishi
Mashg'ulotning maqsadi:	O'quvchi Yoshlarning estetik didi va ularni go'zallikni qay darajada tushinishini tekshirish asosiy maqsad
Pedagogik vazifa:	O'quv faoliyatining natijasi:
Barkamol avlodni tarbiyalashda go'zallik haqidagi qarashlarning ahamiyatini Yoshlarga yetkazish.	O'quvchilar ta'lim jarayonida go'zallik tushunchasini mohiyatini o'rganadilar va go'zallik tushunchasi haqidagi mutafakkirlarni asarlarini barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati masalasini o'rganadilar.
Shaxs ma'naviyatini tarbiyalashda ta'lim muassasalari va oila hamkorligi	Talabalarga shaxs ma'naviyatini tarbiyalashda allomalar asarlarining ahamiyati yoritiladi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, «Klaster» texnologiyasi, «Nimada?» texnologiyasi, «FSMU» uslubi
O'qitish vositalari	Komp'yuter tenologiyasi, slaydlar
O'qitish shakli	Jamoa bo'lib ishlash
O'qitish shart–sharoitlari	Texnik vositalar bilan ta'minlanganligi.
Mustahkamlash	Talabalar bilimlarini mustahkamlash uchun savollarni beradi. FSMU usullaridan foydalanib, mavzu mustahkamlanadi.
Baholanadi	Kuzatish ogzaki nazorat, savol –javob, topshiriklar

1.2.“ O'quvchilarni estetik mezonlar ruhida tarbiyalashda go'zallik tushunchasini o'rni va roli”

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	Ta'lim oluvchi
	Ta'lim beruvchi	
1. Mavzuga kirish (15 dakika)	1.1 O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga yangi mavzuning rejasi yoziladi.(1–ilova). 1.2 Mavzuning kirish kismi tuShuntirib beriladi. 1.3 O'quvchilar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar Tinglaydilar
2–bosqich Asosiy	1.1 Powerpoint dasturi yordamida slaydlarni namoyish kilish va izoxlash bilan	Yozadilar.

bosqich (55 dakika)	mavzu buyicha asosiy nazariy jixatlarini tuShuntirib beradi 1.2 «Klaster» metodi asosida o‘quv materiali Mustahkamlaniladi.	Yozadilar. Tinglaydilar Savollarga javob beradilar. Tahlil kiladilar.
3–bosqich. Yakuniy bosqich.	3.1 Mavzu buyicha o‘quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa kiladi. 3.2 O‘quvchilar bilimlarini Mustahkamlash uchun savollarni beradi. FSMU , Insertdan foydalanib, mavzu mustahkamlanadi.	Savollar beriladi. Vazifani yozib oladilar.

**Mavzu: “O‘quvchilarni estetik mezonlar ruhida tarbiyalashda go‘zallik
tushunchasini o‘rni va roli”**

Reja:

1. Go‘zallik tushunchasining mohiyati
2. Go‘zallikka intilish – insonning etnomadaniy xususiyati sifatida
3. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining ijodida go‘zallik tushunchasini
o‘rganilishi


O‘quv faoliyatining natijasi: Talabalar ta’lim jarayonida Yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash imkoniyatlari bilan tanishadilar. Talabalarga barkamol avlod tarbiyasida ta’lim muassasalari va allomalarning bebaho asarlari ahamiyati yoritiladi.

2–ilova

Baholash mezon iva kursatkichlari

Guruhlar	Savolning tulik va anik yoritilishi 0–5 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0–5 ball	Guruh a’zolarining faolli0–5	Jami ball

Klaster metodi



FSMU texnologiyasi

Savol	Go‘zallik mezonlari insonning didini o‘stiradimi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab kursating	
(M) Kursatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umulashtiring.	

Tajriba sinov ishlarini tashkil etish va uni o‘tkazish metodikasi.

Falsafiy fanlar darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida tajriba sinov ishlarining tizimini tashkil qilish va uning haqqoniyligini ta’minlash maqsadida olingan natijalarning amaliy ahamiyatini tasdiqlovchi va bir biri to‘ldirovchi metodlar majmuasini qo‘lladik.

Tajriba sinov ishlarini amalga oshirish uchun 2015-2016 o‘quv yillari mobaynida Suzangaron tibbiyot kolleji o‘quvchilari va o‘qituvchilari bilan tadqiqot

ishlari o'tkazildi. Tadqiqot ishni olib borishda 201, 202–guruh mos ravishda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Bularda nazorat guruhiga 201–guruh, tajriba guruhiga 202–guruhi talabalari ajratildi. Shundan 25 ta o'quvchi nazorat guruhlariga, 25 ta o'quvchi tajriba guruhlariga jalb qilindi. Tajriba sinov ishlarida jami 50 ta o'quvchi ishtirok etdi.

Tajriba sinov va nazorat maydonlari tarkibi

№	Sinov maydoni	Tajriba guruhi	O'quvchilar soni	Nazorat guruhi	O'quvchilar soni	O'quvchilarning umumiy soni
1	Suzangaron tibbiyot kolleji	201 guruh	25	202 guruh	25	50

Tajriba guruhlarda dars taklif etayotgan pedagogik texnologiyalarni kullash, rivojlantirish asosida, nazorat guruhlarida esa an'anviy uslubda amalga oshirildi.

Pedagogik tajriba sinov–ishlarini tashkil etish metodikasi yukorida, o'quvchilar falsafiy fanlarini uzlashtirishda yo'l quyayotgan xato va kachiliklarni ular oldidagi muammolarni urganish jarayoniga asoslanadi. Tajriba–sinov ishlarini kuyidagi tartibda dasturi ishlab chikildi.

Tajriba–sinov dasturi.

1.O'rta maxsus kollejlarda “Falsafiy” fanlarining umumiy hajmini aniklash va fanning ukitilish jarayonini urganish va tahlil kilish.

2. Har bir sinflarda “Estetika” fanining o'qitilish jarayonlarini kuzatish, o'quvchilarning fanga oid nazariy va amaliy bilimlarini aniklash.

3. “Estetika” fani yuzasidan o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan tajriba sinov dars ishlanmalarini tayyorlash

1. “Estetika” fani mashg'ulotlarini tashkil etishda:

A) interaktiv

- B) innovasion
- S) axborot texnologiyalar
- D) tabaqalashtirib o‘qitish
- Ye) didaktik uyinli o‘qitish
- J) muammoli o‘qitish metodlaridan foydalanish.

5. Har bir metod buyicha olingan natijalarni aniklash va takkoshlash.

6. Olingan nazariy va amaliy bilimlar natijalarini urganish va takkoshlash, o‘quvchilar bilim va kunikmalarida uzgarish darajasini kayd kilish.

7. Olingan ilmiy natijalarni kafedra yig‘ilishida, ilmiy konferensiyalarida olib chiqish va ular asosida tavsiyalar berish.

Utkazilgan tajriba–sinov ishi Yuqoridagi dastur asosida tashkil etildi.

3.1–jadvalda qayd etilgin tajriba guruhlarida biz ishlab chiqqan texnologiya asosida “falsafiy fanlar” darslarini yo‘lga qo‘yish uchun dastlab ish rejalari, kalendarli reja va kunlik ish rejalari o‘rganildi va tahlil kilindi. Tajriba –sinov ishlarida tajriba guruhi Yuqorida keltirilgan noan’anaviy usullar, sahnalashtirish, trening, boshkotirma, turli xil topishmoklar shaklida dars tashkil etildi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirishga sabab buldi. Buning isboti sifatida jadval 3.2 da tajriba guruhi a’zolarining DTS asosida bilim, kunikma va malakalari monitoringi natijalari aniklandi. Ushbu jadvalda tajriba guruhi sinflar hamda o‘quvchilar soni asosida samaradorlik foiz hisobida aniq qilib kursatilgan.

O‘quvchilarni estetik mezonlar ruhida tarbiyalashda go‘zallik tushunchasini o‘rni va roli mavzusida olib borilgan tajriba–sinov natijalariga ko‘ra kollej o‘quvchilari estetik talablar asosida tarbiyalanmoqdalar. yangi pedagogik texnologiyalar va innovasion tarbiya usullarini qo‘llanishi sifat samardorligini oshirib boradi.

Bob buyicha xulosalar

Mazkur bobga xulosa qilib Shuni aytish mumkinki, *birinchidan*, go‘zallik inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etib, jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan masalalardandir; *ikkinchidan*, ma’naviy qadriyatlar tizimida go‘zallikning o‘rnini markaziy ahamiyatga egadir. Chunki har qanday yaratilgan yoki mavjud madaniy-ma’naviy qadriyatlar go‘zallik prizmasidan o‘tkaziladi; *uchinchidan*, mohiyatan go‘zallikka xizmat qilmaydigan qadriyatlar ustuvor bo‘lgan jamiyat, inson, ijtimoiy-siyosiy tuzum asta-sekin inqirozga yuz tutadi; *to‘rtinchidan*, inson narsalarning moddiy va ma’naviy olamini yaratib borishi natijasida ijtimoiy taraqqiyot ham shakllanib borib, go‘zallik ijtimoiy taraqqiyotda qiymat kasb etuvchi tuShuncha, qadriyatga aylanadigan kategoriya, insonning ham moddiy, ham ma’naviy ehtiyojini qondirishga qodir bo‘lgan hodisa, ijtimoiy taraqqiyotning lokomotivi hisoblangan mexanizm sifatida muhim ahamiyatga ega; *beshinchidan*, go‘zallik haqidagi bilimlar tibbiyot kasb-hunar kollejida o‘ta zaruriy va ayni paytda samarali hisoblanadi. Chunki sog‘lom turmush tarzini yaratishning asoslari estetik kategoriyalarga borib taqaladi.

XULOSA

O'tgan yigirma besh yil ichida amalga oshirilgan islohotlar va yangi lanish jarayoni ijodning barcha ko'rinishlari uchun, jumladan estetika sohasini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi. Aytish mumkinki, mamlakatimiz jahon hamjamiyati bilan keng integratsiyaning eng faol tarafdori bo'lib kelmoqda. Biroq, olib borilayotgan islohotlar integratsiyadan faqat iqtisodiy maqsadlarnigina emas, balki, eng avvalo ma'naviyat, ilm-fan, madaniyat, san'at, sport, maorif va axborot sohalarida integratsiyalashishga da'vat etadi. Bu hol ayni paytda turmush tarzining go'zalligi va yashash tarzini go'zallashtirish masalalarini keng tarmoqli rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Turmushda go'zallikni yaratish hamda voqelikdagi go'zalliklarni idrok etish inson va jamiyat ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, shaxsning badiiy-esetik dunyoqarashini kamol toptirishda san'at, sport muhim o'rin tutadi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqqan holda dissertatsiyamiz yuzasidan quyidagi xulosalar taqdim etishni lozim topdik:

birinchidan, o'tgan yillarda amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonlari jamiyatda badiiy-estetik ijodkorlikning yangi tamoyillarini ishlab chiqish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Buni avvalo, san'at ahli uchun erkin faoliyat muhitining yaratilganligida, ijod subektlari tomonidan estetik qadriyatlarni idrok etishda chegaralanishga barham berilganligida, Shuningdek, sport sohasida estetik tarbiya pedagogik asosdan chiqib falsafiy mazmun kasb etganligida ko'rish mumkin. Muhimi Shundaki, bunday ijobiy holatni estetik madaniyatning har bir sohasida kuzatish mumkin. Shu ma'noda go'zallik estetik qadriyat sifatida millatning ma'naviy-madaniy qiyofasini belgilovchi mezon bo'lmish san'at va sport bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi;

ikkinchidan, mamlakatimizda yuz berayotgan modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari barcha soha vakillari qatori badiiy ijod ahlining tafakkuriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuning barobarida bu islohotlar dizayner va san'atkor zimasi muhim ijtimoiy vazifalarni qo'yimoqda. Jamiyat a'zolarining

estetik didini yuksaltirish, sogʻlom estetik muhitni yaratish, atrofni goʻzallashtirish, turmush nafosati va texnika estetikasining yutuqlaridan samarali foydalanish hamda estetik tarbiya tizimini takomillashtirish kabi vazifalarni hal etishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish dizaynni sanʼat turlari bilan integratsiyasini taqazo etadi;

uchinchidan, bugungi kunda mamlakatimizda sogʻlom turmush tarzi , fuqarolik jamiyatini barpo etishda erkin fuqaro maʼnaviyatini shakllantirish masalasi gʻoyat dolzarb ahamiyatga ega boʻlib bormoqda. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarning samaradorligi avvalo xalq maʼnaviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur oʻrganilishi, anʼana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va sanʼat, sport, ilm-fan va taʼlim rivoji eng muhimi, jamiyat tafakkurining oʻzgarishi va yuksalishi bilan uzviy bogʻliq.

Tadqiqotimiz oʻz oldiga goʻzallik tushunchasining zamonaviy tahlilini, goʻzallikni individual hamda ijtimoiy hodisa sifatida olib oʻrganishni asosiy vazifa qilib qoʻygan edi. Dissertatsiyadagi ushbu maqsadni amalga oshirish yoʻlida ilgari surilgan gʻoyalar asosida quyidagi *taklif va tavsiyalarni* berish mumkin.

1. Goʻzallik tushunchasi falsafiy-estetik hodisa sifatida etikaning mezoniy tushunchalari bilan bir qatorda oliy qadriyat tizimini tashkil etadi. Shuning uchun axloqshunoslik fanini talabalar ongiga etkazishda estetikani markaziy tushunchasi boʻlgan goʻzallikdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Goʻzallik tushunchasi estetikaning eng qamrovli va universal tushunchasi sifatida boshqa estetik tushunchalarga nisbatan etakchilik xususiyatiga ega. Goʻzallik eng oliy qadriyat boʻlmish insonning ideal haqidagi tushunchasini shakllantiradi. Shuning uchun Samarqand davlat universitetida taʼlim yoʻnalishlarida oʻtiladigan estetika fanining tarkibiga goʻzallikni mohiyatini kuchliroq singdirish maqsadga muvofiqdir.

3. Goʻzallik ham umuminsoniylik, ham milliy xususiyatga boʻlib, har qanday sinfiylik, partiyaviylik, yakka mafkuraviylik singari aksil maʼnaviy

doiralardan xolidir, ayni paytda milliy-ma'naviylikni inkor etmaydi. Shuning uchun millatlararo totuvlik g'oyasini targ'ib etishda aynan Shu estetik tuShunchadan foydalanish samarali bo'lar edi.

4. Go'zallik ideal va real voqelik orasidagi ko'prik vazifasini o'tashi barobarida badiiy ijod ravnaqi va san'at turlari taraqqiyotini ta'minlaydi. Go'zallik muammosini o'rganish o'z navbatida san'atning mohiyati va dolzarb masalalarini anglab etishga hamda tadqiq etishga ko'maklashadi, zamonaviy estetikaning nazariy teranlaShuviga, rivojlanishiga yordam beradi.

5. Go'zallik barkamol inson shaxsini tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida inson estetik didini shakllantirishda ulkan ahamiyatga ega. shunday ekan estetiklikni shakllantiruvchi vosita sport sohalarini rivojlantirilishi, shakllanib kelayotgan shaxsning estetik ongi uchun yana bir immanent hodisa bo'lib rol o'ynaydi.

6. Go'zallik o'z mohiyatini voqelik bilan qarama-qarshi munosabat orqali emas, balki u bilan uzviy aloqadorlikda namoyon etadi, san'atning mazmunini, mohiyatini mushohada etishga yordam beradi.

7. Go'zallik insonni har tomonlama rivojlanishiga ko'mak berishi barobarida boshqa estetik omillarning jamiyat hayotida yanada faollaShuviga sharoit yaratadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tadqiq etish, ularning ilg'or tomonlarini jamiyatimiz hayotiga tatbiq qilish dolzarb vazifaga aylandi. Bundan keyin milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, go'zallik va ulug'vorlikka intilib yashashdek hayotiy tamoyillarimizni saqlab, yuksaltirib borishimiz kerak bo'ladi. Ana Shulardan kelib chiqqan xolda go'zallik masalasiga doir tadqiqotga qo'l urildi va jamiyat mafkurasi, milliy g'oya, milliy g'urur, milliy o'z-o'zini anglash nuqtai-nazaridan go'zallikka yangi cha nigoh tashlandi.

Biroq, go'zallikni o'rganishga doir bir qator imkoniyatdagi ishlarni amalga oshirishni zarur, deb bilamiz. Jumladan, mustaqillik tufayli yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib go'zallikni har tomonlama tadqiq etish kerak. Ya'ni, fuqarolik jamiyatida inson bilan jamiyat orasidagi munosabatlarni

muvofiglashtirishdagi, mamlakatimizning jahon bozoriga chiqishida go‘zallikni qiymat kasb etuvchi mexanizmga aylanishini ta’minlashdagi, huquqiy davlat qurishdagi, shaharsozlik va obodonchilik muammolarini xal qilishdagi, yangi davr kishisining turmush nafosatini go‘zallashtirishdagi, kompyuterlashgan zamon etikosferasi (axloqiy muhit)ni yaratishdagi ahamiyati va o‘rnini tadqiq etib, jamiyatimiz uchun foydali xulosalar chiqarib beradigan tadqiqotlar olib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rasmiy hujjatlar:

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari:

- 2.1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
- 2.2. Каримов.И.А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент, Ўзбекистон. 1996
- 2.3. Каримов И.А. “Баркамол авлод” спорт ўйинлари қатнашчиларига табрик сўзидан// Ўзбекистон эришган ютуқ ва маррлар – биз танлаган ислохотлар йўлининг тасдиғидир. Т-22, Т.: Ўзбекистон, 2014
- 2.4. Karimov I.A. Halollik – faoliyatimizning asosiy mezonini bo‘lsin. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
- 2.5. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. -Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
- 2.6. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
- 2.7. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. - Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
- 2.9. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «O‘zbekiston».
- 2.10. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: « O‘zbekiston », 1997.
- 2.11. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

2.12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: «O'zbekiston». 2010.

2.13. Karimov I.A. “Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир” – Т., «O'zbekiston» 2015 yil.

III. Kitoblar, risolalar, to'plamlar va Dissertasiya:

1.1. Abdulla Sher. AxloqShunoslik. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

1.2. Abdulla Sher. “Estetika” Toshkent. 2014

1.3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2001.

1.4. Xusanov B. Shaxs va jamiyat munosabatlarida go'zallikning namoyon bo'lish xususiyatlari Toshkent.: O'zMU, 2002.

1.3. Mahmudova G.T. Turkistonda jadidchilik harakati va uning axloqiy-estetik fikr taraqqiyotiga ta'siri.: Fals. fan. nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T.: 1996.

1.4. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. – Toshkent: Sharq, 2001. – 395 b.

1.5. Allayorov M. Estetika. Samarqand, 2003

1.6. Abdulla Sher, Bahodir Husanov, Erkin Umarov. Estetika. T., 2008.

1.7. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. J.2. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.

1.8. Arastu. Axloqi kabir. Poetika. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.

1.9. Aliqulov H. Gumanistik meros va shaxs ma'naviy kamoloti. –Toshkent: Falsafa va huquq, 2006 .

1.10. G'aybullayev O. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat. T.: Chashma- print. 2008.

1.11. Yoshlar muammolari va ularning echimi: holat va istiqbol. II – respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: yangi asr avlodi, 2003. – 200 b.

- 1.12. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2000.
- 1.13. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T., O'qituvchi, 1997.
- 1.14. Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movaunnahr-O'zbekiston, 2009 – 445 b;
Nazarov Q. Bilish falsafasi (gnoseologiya). –Toshkent: Universitet, 2005. –339 b;
- 1.15. Erkaev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. - Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 240 b.
- 1.16. Madaeva SH.O. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur (XX asr saboqlari va XXI asr istiqbollari). – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. – 127 b.
- 1.17. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ularning Yoshlar tarbiyasidagi o'rni. – Toshkent: 2004.
- 1.18. Muxtarov A. SHaxs tarbiyasida milliy g'oya, ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligi. – Toshkent: yangi asr avlodi, 2003.
- 1.19. Otamuratov S. Globallashuv va millat. – Toshkent: yangi asr avlodi, 2008.
- 1.20. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –Toshkent: Sharq, 1999.
- 1.21. Qahhorova SH.B. Global ma'naviyat – g'loballashuvning g'oyaviy asosi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
- 1.22. Falsafa: qomusiy lug'at. – Toshkent: Sharq, 2010.
- 1.23. YUsuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. –Toshkent: Fan, 1990.
- 1.24. YUsupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari.–Toshkent: Universitet, 1998. – 160 b;
- 1.25. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan.- Toshkent: O'qituvchi-Ziyo,1997. – 182 b;
- 1.26. SHayxova X. Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. – Toshkent: Falsafa va huquq, 1992.-116 b;
- 1.27. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniya. –Toshkent: Sharq, 2009.

1.28. Husanov B. Gʻulomov V. Muomala madaniyati. –Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010.

IV. Xorijiy adabiyorlar:

4.1. Heinrich Heine. Gedichte. Berlin und Weimar, Aufbau – Verlag. 1988.

4.2. Saymon G. Ratsionalnost kak protsess i produkt myshleniya // THESIS.- 1993.- Voʻp. 3.- S. 74.

4.3. Alle M. Usloviya effektivnosti v ekonomike.- M., 1998.- S. 185.

4.4. Makeeva V. G. Kultura predprinimatelstva. M., 2002. Pompeev YU. A. Istoriya i filosofiya otechestvennogo predprinimatelstva. SPb., 2003. S. 189.

V. Jurnal gazeta maqolalari:

5.1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi // Xalq soʻzi gazetasi. 2016 17-yanvar №6 1-bet.

5.2. Abdulla Sher. Tasavvuf, Gʻazzoliy va goʻzallik falsafasi // Sogʻlom avlod uchun. –T oshkent, 2002. №2.

5.3. Porus V.N. Objit katastrofu. Svoevremennye zametki o duchovnoy kulture Rossii// Voprosy filosofii. –Moskva, 2005. - № 11.

VI Internet materiallari.

1.[http:// info.islom.uz](http://info.islom.uz)

2.www.ZiyoNet.uz

3.www.nuu.uz

4. [http:// www.allbest.ru](http://www.allbest.ru)

5. portal.nuu.uz.